



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3762
2026 - yil 26 - Yanvar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRINING BUYRUG'I

Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik [kodeksi](#), "Telekommunikatsiyalar [to'g'risida](#)"gi, "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari [to'g'risida](#)"gi, "Davlat boji [to'g'risida](#)"gi, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish [to'g'risida](#)"gi va "Shaxsga doir ma'lumotlar [to'g'risida](#)"gi qonunlariga muvofiq buyuraman:

1. Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2020-yil 30-iyundagi 208-mh-son "Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 3275, 2020-yil 30-iyun) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020-y., 10/20/3275/1194-son) o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.
3. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi, Elektron texnologiyalarni rivojlantirish markazi hamda O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi bilan kelishilgan.
4. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

Vazirning birinchi o'rinbosari
06-Yanvar 2026-yil
287-mh- son



PEKOS OLEG ANDREYEVICH

Kelishildi:

O'zbekiston milliy
teleradiokompaniyasi raisi
18-Dekabr 2025-yil



DJURABAYEV ABDURASHID
ABDUVOXIDOVICH

Rais
17-Dekabr 2025-yil



TURAXUJAYEV HALILILLO
SOBIRJONOVICH

O'zbekiston Respublikasi DXX
Raisi
14-Dekabr 2025-yil



KURBANOV BAXODIR
NIZAMOVICH

Rahbar
10-Dekabr 2025-yil



XODJAKBAROV
OMONILLAXON
TULKUNOVICH

Rais
09-Dekabr 2025-yil



VAXABOV DAVRON
ABDUJALALOVICH

O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar
vazirining 2026-yil 5-yanvardagi 287-mh-son
buyrug'iga
1-ILOVA

Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish QOIDALARI

Mazkur Qoidalar telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini belgilaydi.

I bo'lim. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Qoidalar O'zbekiston Respublikasi hududida telekommunikatsiyalar operatorlari (bundan buyon matnda operator deb yuritiladi), telekommunikatsiyalar xizmatlari provayderlari (bundan buyon matnda provayder deb yuritiadi), dilerlari va eshittiruvchilar bilan foydalanuvchilar o'rtasida shartnoma (kelishuv) asosida taqdim etiladigan telefon aloqasi, taksofonlarda telefon aloqasi, qo'riqlash signalizatsiyasi apparaturasini o'rnatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish, axborot-ma'lumot, telegraf, ma'lumotlar uzatish tarmog'i, Internet, jamoat foydalanish joylarida Internet jahon axborot tarmog'idan simsiz foydalana olish, mobil aloqa, milliy va xalqaro rouming, tijorat asosidagi kabelli, efir, interaktiv, IPTV (IP-televideniye), OTT (Over the Top) va onlayn televideniye va radioeshittirish xizmatlarini tashkil qilish, shuningdek ulardan foydalanish, xizmatlarni ko'rsatish tartibi, shartlari hamda subyektlarning javobgarligi, huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

2. Mazkur Qoidalar quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

idoraviy telekommunikatsiyalar tarmoqlari tomonidan telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatishga, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya va Elektron texnologiyalarini rivojlantirish markazining ajratilgan aloqa tarmoqlarida, shuningdek ichki ishlab chiqarish va texnologik vazifadagi aloqa tarmoqlarida telegraf xizmatlarini ko'rsatishga, Global harakatdagi shaxsiy yo'ldosh aloqa tarmoqlarida rouming xizmatlarini ko'rsatishga;

dasturlarni cheklanmagan tomoshabinlarga bepul asosda erkin tomosha qilish uchun tarqatuvchi efir televideniye tarmoqlariga;

bir tashkilot (muassasa yoki korxona), shu jumladan ta'lim tashkilotining binolari yoki hududlari bilan cheklangan kabel, efir televideniyesi tarmoqlariga;

abonentlarning umumiy soni o'ntadan oshmaydigan kabel, efir televideniyesi tarmoqlariga;

alohida telekommunikatsiyalar tarmoqlariga taalluqli bo'lgan hamda O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi, mudofaa, xavfsizlik va huquq-tartibotni qo'riqlash ehtiyojlari uchun foydalaniladigan televideniye va videokuzatuv tarmoqlariga;

jismoniy shaxslarning shaxsiy mulki bo'lgan va individual qabul qilishni va efir teleradioeshittirish dasturlari (shaxsiy ehtiyojlari uchun) tarqatilishini ta'minlaydigan kabel, efir televideniyesi tarmoqlariga.

3. Mazkur Qoidalarda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

abonent – operator yoki provayder bilan tuzilgan shartnomaga asosan telekommunikatsiyalar xizmatlaridan bevosita foydalanuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs;

abonent liniyasi – telekommunikatsiyalar liniyasining operator yoki provayder telekommunikatsiyalar tarmog‘ining kirish nuqtasidan abonent rozetkasigacha yoki u mavjud bo‘lmaganda foydalanuvchi qurilmasigacha bo‘lgan qismi;

abonent raqami – telekommunikatsiyalar xizmatlari ko‘rsatilishi uchun shartnomaning amal qilish davrida abonentga operator va provayder tomonidan ajratiladigan raqam;

abonent raqamining ko‘chib o‘tishi – mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasi asosida donor tomonidan abonentga ajratilgan abonent raqamini boshqa mobil aloqa operatori (retsipiyent) bilan yangi shartnoma tuzishda saqlash va undan foydalanish uchun amalga oshiriladigan tashkiliy-texnik tadbirlar majmui;

abonent tarmog‘i – turar joy yoki jamoat binosi maydoni chegarasida xizmat ko‘rsatiladigan abonentning texnik vositalari, qurilmalari va kabel liniyalari majmui;

avtoinformator – chaqirayotgan abonentga oldindan yozib olingan nutqli xabar orqali axborot taqdim etuvchi mantiqiy qurilma;

avtomatik rouming – mobil aloqa tarmog‘ining abonentiga dastlabki arizasiz operatorlar o‘rtasida rouming to‘g‘risida shartnoma tuzilganligi sharti bilan boshqa mobil aloqa operatorining qamrov hududida kiruvchi va chiquvchi aloqaga ega bo‘lish imkonini beradigan rouming xizmati;

avtomatik telefon stansiyasi (bundan buyon matnda ATS deb yuritiladi) – telefon bog‘lanishlarning va uzilishlarning avtomatik ravishda o‘rnatilishini ta‘minlovchi telefon stansiya;

avtomatik xizmat ko‘rsatish tizimi – telefon aloqasi xizmatlaridan foydalanuvchi tomonidan chaqirilayotgan abonent raqamini mustaqil terish yo‘li bilan operator-telefonist yordamisiz o‘rnatiladigan telefon bog‘lanish usuli;

ATS ta‘sir hududi – telefon stansiyasi yoki podstansiyadan kabel (havo) liniyalari yoki radio foydalana olish vositalari orqali telefonlashtirilishi mumkin bo‘lgan hudud;

autentifikatsiya – ma‘lumotlar uzatish tarmog‘i xizmatlaridan foydalanuvchi tomonidan ko‘rsatilgan identifikatsiyalash ma‘lumotlarining haqiqiyligini aniqlash;

axborot-ma‘lumot xizmati – foydalanuvchilarga, ularning tashabbusiga ko‘ra, og‘zaki (tovushli), chat yoki vizual so‘rov shaklida ifodalangan axborotni (bir telefon bog‘lanish chegarasida) taqdim etuvchi xizmat;

barcha chaqiruvlar uchun so‘rov (All Call Query) (bundan buyon matnda All Call Query deb yuritiladi) – mobil telekommunikatsiya tarmog‘ining ko‘chirilgan abonent raqamlariga trafikni o‘tkazish uchun chaqiruvlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri marshrutlash metodi, bunda chaqiruv tashabbuskorining tarmog‘i ko‘chirilgan raqam to‘g‘risida axborot olish va chaqiruvni belgilangan joyiga keyinchalik marshrutlash uchun ko‘chirilgan raqamlarning operatsion ma‘lumotlar bazasiga so‘rovni amalga oshiradi;

birlamchi operator – birlamchi ravishda raqamlash resursi ajratilgan, bu resursdan abonentga abonent raqami birinchi marta ko‘chirilgan mobil aloqa operatori yoki provayder;

buyurtma xizmat ko‘rsatish tizimi – oldindan buyurtma bergan holda operator-telefonist yordamida aloqa o‘rnatilishi;

darhol xizmat ko'rsatish tizimi – abonentdan buyurtmani qabul qilgandan keyin operator-telefonist yordamida zudlik bilan telefon bog'lanishning o'rnatilishi;

dilerning xizmat ko'rsatish punkti – diler tomonidan tashkil qilinadigan va foydalaniladigan xizmat ko'rsatish punkti;

domen nomi – axborot resursiga yoki axborot tizimiga berilgan, ularni Internet jahon axborot tarmog'ida identifikatsiyalash uchun xizmat qiladigan **noyob nom**;

domen nomlari tizimi – Internet jahon axborot tarmog'ida domen nomlarini berish, ro'yxatdan o'tkazish va ulardan foydalanish **tartibi**;

efirga uzatish jadvali – dasturlar translyatsiyasining har kungi boshlanishi va tugash vaqtlari ko'rsatilgan, televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish uchun telekommunikatsiyalar vositalarini haftalik, oylik yuklamalari rejasi;

foydalanuvchi – telekommunikatsiyalar xizmatlarining iste'molchisi hisoblangan yuridik yoki jismoniy shaxs;

foydalanuvchi qurilmasi – telekommunikatsiyalar tarmoqlari bilan o'zaro bog'lanadigan va signallarni shakllantirish, uzatish, qabul qilish uchun mo'ljallangan foydalanuvchining texnik **vositasi**;

identifikatsiyalash – mavjud ma'lumotlar asosida telekommunikatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchining shaxsini aniqlash;

Internet jahon axborot tarmog'i (bundan buyon matnda Internet tarmog'i deb yuritiladi) – yagona adres va nomlar makonidan foydalaniladigan, shlyuzlar yordamida birlashtirilgan, yagona TCP/IP protokoliga muvofiq ishlaydigan ko'plab tarmoqlardan iborat global xalqaro tarmoq;

Internet xizmatlaridan foydalanuvchi – Internet xizmatlarining iste'molchisi hisoblangan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Internetdan jamoat bo'lib foydalanish punkti – kerakli texnik vositalar bilan jihozlangan, foydalanuvchilarning Internet tarmog'idan jamoa bo'lib foydalanish xizmatlari ko'rsatiladigan joy;

Internet-provayder – tijorat asosida Internet tarmog'idan foydalana olish xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

kabelli, efir, interaktiv, IPTV (IP-televideniye), OTT (Over the Top), onlayn televideniye va radioeshittirish (bundan buyon matnda eshittiruvchi deb yuritiladi) – erkin tomosha qilish mumkin bo'lmagan televideniye kanallaridan foydalangan holda teledasturlar va boshqa telekommunikatsiyalar xabarlarini muayyan hududda ishlab chiqarish, shakllantirish va tarqatishni ta'minlaydigan taqsimlash va tashkiliy-boshqaruv jarayoni bilan shug'ullanadigan subyekt;

konferens-aloha – uchta va undan ortiq abonentga bir vaqtda telefon orqali muloqot qilish imkonini beruvchi xizmat;

kontent xizmatlari – mobil aloqa tarmoqlari orqali taqdim etiladigan va ularning iste'mol qiymatini oshirishga qaratilgan, mobil aloqa abonentlariga ularning raqami balansi hisobidan pullik asosda ma'lumot, ko'ngilochar va boshqa ma'lumotlarni olish imkoniyatini beruvchi qo'shimcha xizmat turi;

kontent provayderi – mobil aloqa tarmoqlari orqali kontent xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik faoliyati subyekti;

ko‘chirilgan raqamlar markazlashtirilgan bazasi – (bundan buyon matnda KRMB deb yuritiladi) – mobil aloqa tarmoqlarida ko‘chirilgan abonent raqamlari to‘g‘risidagi axborotni o‘z ichiga olgan ma’lumotlar bazasini boshqaruvchi apparat-dasturiy kompleks;

KRMB operatori – KRMB shakllantirilishi, ishlashi, texnik kuzatilishi va rivojlanishini ta’minlaydigan, uning resurslaridan foydalanishni taqdim etadigan tashkilot;

ko‘chirilgan raqamlarning lokal bazasi – chaqiruv yoki boshqa xabarlarni ko‘chirilgan raqamga to‘g‘ri marshrutlash uchun mobil aloqa operatori tomonidan undan real vaqtda foydalaniladigan, bu operatorda bo‘lgan KRMBning nusxasi;

ko‘chirilgan raqamlarning lokal bazasini KRMB bilan sinxronlash – muayyan davriylik bilan amalga oshiriladigan, KRMBdagi axborotning ko‘chirilgan raqamlar lokal bazasiga nusxasini ko‘chirish jarayoni;

litsenziya – yuridik shaxsga beriladigan, litsenziya talablari va shartlariga majburiy ravishda rioya etilgan taqdirda faoliyatning litsenziyalanadigan turini yoki uning kichik turini amalga oshirish huquqini beruvchi hujjat;

litsenziyaning amal qilish hududi – litsenziya talablari va shartlarida ko‘rsatilgan operator va provayder telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan hudud;

mahalliy operator – O‘zbekiston Respublikasi hududida jismoniy va yuridik shaxslarga mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi aloqa operatori (provayderi);

mahalliy telefon aloqasi – bitta aholi punkti yoki ma’muriy hudud doirasida joylashgan foydalanuvchilar o‘rtasidagi telefon bog‘lanishi;

marshrut raqami (routing number, RN) – mobil telekommunikatsiyalar tarmog‘ining ko‘chirilgan abonent raqamiga chaqiruvlarni amalga oshirish uchun telekommunikatsiyalar tarmoqlarida foydalaniladigan manzilli axborot;

ma’lumot xizmati – foydalanuvchiga telekommunikatsiyalar xizmatlari operatori yoki provayderi tomonidan ko‘rsatiladigan telekommunikatsiyalar xizmatlari to‘g‘risidagi axborotni taqdim etuvchi xizmat;

ma’lumotlar uzatish – ma’lumotlarni keyingi qayta ishlash uchun telekommunikatsiyalar vositalari yordamida signallar ko‘rinishida bir punktdan boshqa punktga ko‘chirish;

ma’lumotlar uzatish tarmog‘i – ma’lumotlar uzatilishini ta’minlash maqsadida ma’lum nuqtalar o‘rtasida telekommunikatsiyalarni tashkil etish uchun tuzilgan telekommunikatsiyalar uzellari va kanallarining majmui;

ma’lumotlar uzatish tarmog‘i xizmatlari – operator va provayderning ma’lumotlar uzatish tarmog‘i orqali signallar va axborotning boshqa turlarini qabul qilish, uzatish va qayta ishlash bo‘yicha faoliyati mahsuli, IP-telefoniya bundan mustasno;

ma’lumotlar uzatish tarmog‘i xizmatlaridan foydalanuvchi – ma’lumotlar uzatish tarmog‘i xizmatlarining iste’molchisi hisoblangan yuridik yoki jismoniy shaxs;

“mexanik” rouming – rouming xizmatini ko‘rsatish, bunda roumer-abonent rouming davrida xizmat ko‘rsatuvchi operatordan boshqa abonent raqamini oladi va mahalliy operatorga

tegishli bo'lgan o'zining uyali raqami bo'yicha kiruvchi chaqiruvlarni qabul qilish imkoniga ega bo'lmaydi;

mobil aloqa operatorlari o'rtasida rouming to'g'risidagi shartnoma – rouming xizmatini ishlab chiqarish va undan potensial mobil aloqa abonent tomonidan foydalanish to'g'risida kelishayotgan tomonlarning majburiyatlari va huquqlari to'g'risida, tomonlarning o'zaro javobgarlik choralari to'g'risidagi yuridik hujjat;

mobil aloqa tarmog'i – abonentlarga mobil aloqa (ovoz, ma'lumotlar uzatish va boshqalar) xizmatlarini ko'rsatuvchi texnik vositalar (kommutatsion va radiouskuna, foydalanuvchi qurilmalari, ulovchi liniyalar, inshootlar va boshqalar) majmui. Mobil aloqa tarmoqlariga uyali, trunk, lokal-trunk, radial-hudud tarmoqlari kiradi;

mobil aloqa tarmog'i operatori (provayderi)ning dileri (bundan buyon matnda diler deb yuritiladi) – operator (provayder) nomidan abonentlarga xizmat ko'rsatish uchun operator (provayder) bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxs (bundan buyon matnda dilerlik shartnomasi deb yuritiladi), bunda diler bir yoki bir nechta operatorlarning (provayderlarning) manfaatlarini ifodalashi mumkin;

mualliflik shartnomasi – muallifning mulkiy huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risida muallif yoki uning vorisi tomonidan tuziladigan shartnoma;

operatorning (provayderning) ishlash hududi – operator (provayder) telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatadigan hudud;

operator (provayder)-donor (bundan buyon matnda donor deb yuritiladi) – telekommunikatsiyalar tarmog'idan abonent raqami ko'chiriladigan mobil aloqa operatori (provayderi);

operatorning (provayderning) xizmat ko'rsatish punkti – operator (provayder) tomonidan tashkil qilinadigan va foydalaniladigan xizmat ko'rsatish punkti;

operator (provayder)-retsipiyent (bundan buyon matnda retsipiyent deb yuritiladi) – telekommunikatsiyalar tarmog'iga abonent raqami ko'chiriladigan mobil aloqa operatori (provayderi);

“plastik” rouming – “mexanik” roumingning bir turi bo'lib, bunda abonent mahalliy operator bilan oldindan xizmat ko'rsatuvchi operator hududiga borishi to'g'risida kelishib oladi va u orqali xizmat ko'rsatuvchi operatorga tegishli bo'lgan boshqa abonent raqamini oladi hamda mahalliy operatorga tegishli bo'lgan o'zining uyali aloqa raqamiga kiradigan chaqiruvlarni yangi raqamga qayta yo'naltiradi (manzillaydi);

qisqa matnli xabar (SMS) (bundan buyon matnda SMS deb yuritiladi) – qisqa xabarlar markazi orqali mobil aloqa abonentlariga qisqa matnli xabarlarni uzatish va qabul qilish uchun mo'ljallangan xizmat;

raqamni ko'chirish mumkinligini oldindan tekshirish – abonent raqamini ko'chirishdan avval, onlayn shaklda mobil aloqa operatorlarining (provayderining) rasmiy veb-saytida yoki mobil ilovasi orqali abonent raqamini ko'chirish imkoniyatini tekshirish hamda rad etilganda asoslangan izohlarni taqdim etish;

roumer-abonent – xizmat ko'rsatuvchi operatorning (provayderning) mobil aloqa xizmatlaridan foydalanuvchi mahalliy mobil aloqa operatorining abonent;

roumer-tashrif buyuruvchi – mahalliy operator tarmog‘i xizmatlaridan foydalanuvchi operator-rouming-sherikning abonent;

rouming – bitta mobil aloqa operatori abonentining bitta davlat doirasida (milliy rouming) yoki boshqa mamlakatda (xalqaro rouming) bo‘lgan boshqa mobil aloqa operatorining xizmat ko‘rsatish hududida bo‘lganda boshqa mobil aloqa operatorining tarmog‘idan foydalana olishini ta‘minlovchi xizmat;

rouming xizmatini ko‘rsatuvchi operator – rouming to‘g‘risidagi shartnoma asosida o‘z tarmog‘ining imkoniyatlaridan foydalanib boshqa mobil aloqa operatorining (provayderining) abonentlariga mobil aloqa xizmatlarini taqdim etuvchi mobil aloqa operatori (provayderi) (rouming-sherik/xizmat ko‘rsatuvchi operator (provayder);

taksofon – telefon aloqani o‘rnatish, foydalanuvchilarga so‘zlashuvlar va qo‘shimcha xizmatlarni taqdim etish uchun mo‘ljallangan, foydalanuvchilar bilan naqd pul va naqd pulsiz to‘lov vositalari (maxsus jeton, to‘lov kartasi) yordamida darhol hisob-kitob qilish qurilmasidan iborat bo‘lgan, shu jumladan so‘zlashuv punktlarida o‘rnatiladigan oxirgi foydalanuvchi telefon qurilmasi;

tarif rejasi – operator (provayder) tomonidan telekommunikatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchilarga bir yoki bir nechta xizmatdan foydalanish uchun taqdim etiladigan narxlar va texnik shartlar [majmui](#);

tarifikatsiya birligi – operator (provayder) tomonidan belgilangan tarifikatsiya tizimiga bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatiladigan xizmatning to‘lanadigan birligi;

telefon aloqasi xizmatlari – operatorning (provayderning) so‘zlashuvlar va qo‘shimcha xizmatlarni, shu jumladan IP-telefoniya orqali taqdim etishga doir faoliyati mahsuli;

telefon aloqasi xizmatlaridan foydalanuvchi – telefon aloqasi xizmatlarining iste‘molchisi hisoblanadigan jismoniy yoki yuridik shaxs;

telefon bog‘lanish – ikkita telefon apparati yoki chetki qurilmalar o‘rtasida aloqaning o‘rnatilishi;

telefon tarmog‘i – aholi, muassasalar, tashkilotlar va korxonalarning telefon aloqasi xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlovchi ATS, kommutatsiya uzellari, liniyalari, kanallari, oxirgi (terminal) uskunalarining jami;

telekommunikatsiyalar inshootlari (passiv telekommunikatsiyalar infratuzilmasi) (bundan buyon matnda telekommunikatsiyalar inshootlari deb yuritiladi) – telekommunikatsiyalarning amalga oshirilishini ta‘minlovchi binolar, moslamalar, tayanchlar, machtalar, tarqatish qutilari, shkaflar va [boshqalar](#);

operator – mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida telekommunikatsiyalar infratuzilmasiga ega bo‘lgan, uning ishlashini, rivojlanishini ta‘minlovchi va telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxs;

telekommunikatsiyalar tarmog‘i – aloqa liniyalari yoki aloqa kanallari orqali o‘zaro bog‘langan, telekommunikatsiyalarni amalga oshiradigan uskunalar [majmui](#);

telekommunikatsiyalar vositalari (telekommunikatsiyalar infratuzilmasi) (bundan buyon matnda telekommunikatsiyalar vositalari deb yuritiladi) – telekommunikatsiyalar

uskunolari, telekommunikatsiyalar inshootlari, kabel liniyalari hamda ularni boshqarish imkonini beruvchi **tizimlar**;

telekommunikatsiyalar xizmatlari – foydalanuvchilarga operator va provayderi tomonidan telekommunikatsiyalar asosida taqdim etiladigan **xizmatlar**;

provayder – foydalanuvchilarga operatorlar tarmog‘i orqali tijorat asosida telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik **shaxs**;

televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlari buyurtmachisi – televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlaridan foydalanish uchun operator (provayder) bilan shartnomada belgilangan muddatga shartnomaviy munosabatlarga ega yuridik shaxs;

televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlari ijrochisi – televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish texnik vositalariga ega bo‘lgan hamda telekommunikatsiyalar vositalari orqali tashkil etilgan kanallarni taqdim etish yo‘li bilan televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlarini ko‘rsatish imkoniyatiga ega yuridik shaxs;

televideniye tarmoqlari – erkin tomosha qilish mumkin bo‘lmagan kabelli, efir, IPTV (IP-televideniye), OTT (Over the Top) va onlayn televideniye kanallari orqali har qanday axborotni tarqatish va yetkazib berishni ta‘minlaydigan telekommunikatsiyalar vositalarining majmui;

televideniye xizmatlari – eshittiruvchi (operator, provayder) bilan tuzilgan shartnoma asosida abonentlarga taqdim etiluvchi kabelli, efir, IPTV (IP-televideniye), OTT (Over the Top) va onlayn televideniye xizmatlari;

telematik xizmatlar – telekommunikatsiyalar tarmog‘i orqali axborot uzatilishini amalga oshiruvchi, ammo telefon aloqa, telegraf aloqa xizmati yoki ma‘lumotlar uzatish xizmati hisoblanmaydigan telexizmatlar (faksimil, komfaks, xabarlarini qayta ishlash, videotekst va boshqalar);

texnik qarshi harakat qilish kompleksi – O‘zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya tarmoqlarida xalqaro ovozli trafikni o‘tkazishda qonunchilik talablari buzilganligi holatlarini aniqlash va ular to‘g‘risida ma‘lumotlarni olish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda xalqaro ovozli trafikni o‘tkazish tartibining buzilishlariga qarshi harakat qilish tizimi;

tizim hosil qiluvchi rouming-sherik – o‘z ixtiyorida xalqaro avtomatik roumingni ta‘minlovchi moddiy-texnik va dasturiy ta‘minot kompleksi bo‘lgan, ma‘lumotlar uzatish kanallari va signalizatsiya kanallari tarmog‘i mavjud bo‘lgan yuridik shaxs;

televideniye (radioeshittirish) tarmog‘ida retranslyatsiya qilish – televideniye dasturlari, radiodasturlar signallari va telekommunikatsiyalarning boshqa xabarlarini qabul qilinishini, ularning qayta o‘zgartirilishi va dasturlar tarkibini o‘zgartirmasdan to‘liq hajmda abonentlarga uzatilishini ta‘minlaydigan kabelli, efir, interaktiv, IPTV (IP-televideniye), OTT (Over the Top), onlayn televideniye va radioeshittirish tarmog‘ining asosiy ishlash rejimi;

televideniye (radioeshittirish) tarmog‘ida translyatsiya qilish – televideniye dasturlari, radiodasturlar signallari va telekommunikatsiyalarning boshqa xabarlarini eshittirish tashkilotiga taalluqli studiya uskunasiidan bevosita qabul qilinishini, ularning keyinchalik qayta o‘zgartirilishi va dasturlar tarkibini o‘zgartirmasdan to‘liq hajmda abonentlarga tarqatilishini (uzatilishini) ta‘minlaydigan televideniye va radioeshittirish tarmog‘ining asosiy ishlash rejimi;

to'lov kartasi – kodlangan ma'lumotni saqlaydigan, tarmoq foydalanuvchisini identifikatsiya qilish va chaqiruvni initsiatsiya qilish imkoniyatini beruvchi to'lov vositasi;

telekommunikatsiyalarning universal xizmatlari (bundan buyon matnda universal xizmatlar deb yuritiladi) – umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmoqlari orqali barcha foydalanuvchilarga ko'rsatiladigan belgilangan sifatdagi majburiy xizmatlar **to'plami** (foydalanuvchilarning ushbu tarmoqdan foydalanishini ta'minlash, mahalliy, shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlari, telegrammalar jo'natish va boshqalar);

xalqaro telefon aloqasi – O'zbekiston Respublikasi hududidagi telefon aloqasi xizmatlaridan foydalanuvchi va boshqa davlat hududidagi telefon aloqasi xizmatlaridan foydalanuvchi o'rtasida telefon aloqasi orqali bog'lanish;

xato ko'chirish – abonent talabnomasiz mobil aloqa operatorlari (provayderlari) tomonidan abonent raqamining ko'chirilishi ("inson omili" keltirib chiqargan xato sababli, ya'ni texnik tizimlar bilan o'zaro ishlaganda xodimlarning noto'g'ri xatti-harakatlari sababli abonentning talabnomasida ko'rsatilgan raqamdan boshqa raqamning ko'chirilishi);

xizmat ko'rsatish hududi – operator (provayder) litsenziya asosida telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish huquqiga ega bo'ladigan va normativ-huquqiy hujjatlar bilan o'rnatilgan shartlarga javob beradigan xizmatlar sifatini ta'minlash uchun texnik imkoniyatlarga ega bo'lgan hudud;

xizmat ko'rsatish punkti – abonentlar axborot-ma'lumot xizmatlarini olishlari, mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomalarini tuzishlari va xizmatlarning boshqa turlarini olishlari mumkin bo'lgan statsionar savdo nuqtasi va (yoki) xizmat ko'rsatish nuqtasi;

xizmatlarga abonent to'lov tizimi – abonentning ma'lum (hisob-kitob qilinadigan) vaqt davri (oy, chorak, yil va b.) uchun to'lovlari summasi haqiqatda olingan xizmatlar hajmiga bog'liq bo'lmagan doimiy miqdor hisoblanadigan xizmatlarga haq to'lash tizimi;

xizmatlarga haq to'lashning vaqtbay tizimi – ma'lum (hisob-kitob qilinadigan) vaqt davri uchun abonent to'lovlari summasi axborotni uzatish va boshqa telefon aloqasi xizmatlarini olish uchun telefon tarmog'i liniyalari va inshootlaridan foydalanilgan vaqtga bog'liq bo'lgan xizmatlarga haq to'lash tizimi;

xosting xizmatlari – Internet tarmog'ida doimiy bo'ladigan serverda axborotni joylashtirish uchun texnik resurslarni taqdim etish xizmati;

yirik avariya – ma'lum bir administrativ hududda telekommunikatsiyalar xizmatlarini taqdim etishning to'xtalishiga olib keladigan avariya holati;

O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (bundan buyon matnda JSHSHIR deb yuritiladi) – JSHSHIRni aniqlash tartibiga muvofiq jismoniy shaxsning pasporti bo'yicha aniqlash mumkin bo'lgan va 14 raqamdan iborat shaxsiy identifikatsiya raqami;

o'zini-o'zi obro'sizlantirgan diler – ishi davomida qonunchilik hujjatlari, ushbu Qoidalar, dilerlik shartnomasi talablarining qo'pol ravishda buzilishiga yo'l qo'ygan va ular asosida dilerlik shartnomasi bekor qilingan va diler sertifikati chaqirib olingan diler;

eSIM – foydalanuvchi qurilmasining virtual identifikatsiya moduli, uning yordamida foydalanuvchi qurilmasini identifikatsiya qilish, uning mobil aloqa tarmog'idan foydalana olishi, shuningdek abonent raqamidan ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish ta'minlanadi;

GSM-shlyuz – mobil aloqa tarmoqlari va telekommunikatsiyalarning boshqa tarmoqlari o'rtasida trafikni o'tkazish uchun mo'ljallangan apparat-dasturiy vosita;

IMEI kodi (International Mobile Equipment Identifier) yoki xalqaro o'ziga xos identifikatsiya kodi (bundan buyon matnda IMEI-kod deb yuritiladi) – 15 raqamdan iborat bo'lgan va GSMA tomonidan ajratiladigan, shuningdek, tarmoqda GSM/UMTS/LTE standartlarida ishlovchi mobil aloqa foydalanuvchi qurilmasini identifikatsiyalovchi raqam;

IP-adres – TCP/IP texnologiyalari bilan boshqariladigan ma'lumotlar uzatish tarmog'ida kompyuterlar yoki uzellarni identifikatsiyalaydigan noyob adres;

IP-televideniye (IPTV) – televideniye, video, audio, matn, grafika va shu kabi boshqa ma'lumotlar, IP protokoli asosidagi tarmoqlar ta'minlanadigan, sifat, xavfsizlik, interaktivlik va ishonchlilikning talab qilinadigan darajasini ta'minlash maqsadida boshqariladigan multimedia xizmatlari;

IP-telefoniya – IP texnologiyasi asosida paketlar kommutatsiyalanadigan ma'lumotlar uzatish tarmoqlari orqali nutqli axborot, shu jumladan mahalliy va xalqaro aloqani ayirboshlash xizmati;

IP-shlyuz – IP tarmoqlar va telekommunikatsiyalarning boshqa tarmoqlari o'rtasida trafikni o'tkazish uchun mo'ljallangan apparat-dasturiy vosita;

MSISDN (Mobile Station Integrated Services Digital Network) – GSM/UMTS standartlarida aloqa uchun xizmatlari integratsiyalashgan raqamli tarmoq mobil abonentining raqami (masalan: +998 XX-XXX-XX-XX);

progressiv marshrutlash (Onward Routing) (bundan buyon matnda Onward Routing deb yuritiladi) – mobil telekommunikatsiyalar tarmog'ining ko'chirilgan abonent raqamlariga trafikni o'tkazish uchun chaqiruvlarni to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan marshrutlash metodi, bunda chaqiruv tashabbuskorining tarmog'i donor tarmog'iga so'rovni amalga oshiradi, donor esa, o'z navbatida, ko'chirilgan raqam to'g'risida axborot olish va chaqiruvni belgilangan joyiga keyinchalik marshrutlash uchun ko'chirilgan raqamlarning operatsion ma'lumotlar bazasiga so'rovni amalga oshiradi;

SIM/RUIM-karta (bundan buyon matnda SIM karta deb yuritiladi) – ichiga mikrosxema o'rnatilgan, olinuvchi identifikatsiya moduli, uning yordamida foydalanuvchi qurilmasini identifikatsiya qilish, uning mobil aloqa tarmog'idan foydalana olishi, shuningdek, abonent raqamidan ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish ta'minlanadi;

SMS-shlyuz – mobil telefondan foydalanmasdan SMS xabarlar jo'natish va olish imkonini beradigan apparat-dasturiy vosita;

Wi-Fi xizmati tashkilotchisi – ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlaridan foydalanish uchun Wi-Fi texnologiyasi bo'yicha o'zlarining chetki uskunalaridan, mijozlar yoki tashrif buyuruvchilar hisoblanadigan tor doiradagi foydalanuvchilarga uskunadan foydalanishni taqdim etadigan ma'lumotlar uzatish tarmog'i operatori yoki ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlari provayderi yoxud abonent – yuridik shaxs;

Wi-Fi xizmatlari – ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlaridan foydalanish uchun Wi-Fi texnologiyasi bo'yicha chetki uskunalariga foydalanuvchilarning cheklangan doirasiga uskunadan foydalanishni taqdim etish.

4. Telekommunikatsiyalar xizmatlari qonunchilik hujjatlari va ushbu Qoidalarga muvofiq operator yoki provayder hamda abonent o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri (yoxud jismoniy shaxslar uchun diler orqali) elektron yoki yozma shaklda tuziladigan ommaviy shartnoma asosida taqdim etiladi.

Operator (provayder) O'zbekiston Respublikasi hududida telekommunikatsiyalar xizmatlarini taqdim etish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni abonentlarga yoki iste'molchilarga davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda taqdim etilishini ta'minlaydi.

5. Tomonlarning shartnoma bo'yicha huquqlari va majburiyatlari qonunchilik hujjatlarida va ushbu Qoidalarda belgilangan hollardagina boshqa shaxslarga berilishi mumkin.

6. Operatorlar va provayderlarning telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish faoliyati belgilangan tartibda olingan litsenziyaga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda (zilzilalar, suv toshqinlari, yong'inlar, epidemiyalar va boshqalar) (bundan buyon matnda favqulodda vaziyatlar deb yuritiladi) yoki favqulodda holatda telekommunikatsiyalar sohasidagi tartibga soluvchi organ telekommunikatsiyalar infratuzilmalaridan ustuvor foydalanish hamda ularning faoliyatini tiklash va rivojlantirishga doir ishlarni markazlashtirilgan tarzda boshqarish, shuningdek ularning ishlashini belgilangan tartibda cheklash yoki [to'xtatib turish huquqiga ega](#).

8. Operator va provayderlar tomonidan favqulodda vaziyatlarda yoki favqulodda holatda telekommunikatsiyalar tarmoqlari va vositalaridan foydalanish paytida ularga yetkazilgan zararlarining o'rni davlat budjeti mablag'lari hisobidan [qoplanadi](#).

9. Telekommunikatsiyalar xizmatlari qonunchilik hujjatlarida ko'zda tutilgan imtiyozlar va afzalliklarni, tarif rejaları shartlarini hisobga olib barcha abonentlar uchun xizmat ko'rsatishning bir xil sharoitlarini ta'minlagan holda ko'rsatiladi.

10. Telekommunikatsiyalar tarmog'iga muvofiqlik sertifikatiga ega foydalanuvchi qurilmalari (telefon apparatlari, raqamni avtomatik aniqlash funksiyalariga ega telefon apparatlari, ma'lumotlar uzatish va telematik xizmatlar uskunalari (telefaks, teleteks, videoteks va boshqalar), radiotelefon aloqa vositalari, avtojavobbergichlar, signalizatsiya qurilmalari) ulanadi.

11. Foydalanuvchi qurilmasi foydalanuvchilar tomonidan o'z hisoblaridan sotib olinishi va ularning mulki hisoblanishi yoki operator (provayder, diler, eshittiruvchi) tomonidan shartnoma shartlariga muvofiq berilishi mumkin, bunda foydalanuvchi qurilmasi operatorning (provayderining) mulki hisoblanadi va shartnomada belgilangan tartibda abonent ushbu qurilma uchun moddiy javobgar bo'ladi.

12. Mobil aloqa tarmog'i foydalanuvchi qurilmasi IMEI-kodi ro'yxatdan o'tgan bo'lishi kerak.

13. Operator (provayder) abonentlarning umumiy foydalanish tarmog'idan uzluksiz foydalana olishini ta'minlashga majbur.

14. Foydalanuvchilar bilan bevosita o'zaro ishlaydigan operatorning tarkibiy bo'linmalari (operator, provayder, diler) tomonidan tashkil qilingan abonent bo'limlari va rivojlanish sexlari, telefon stansiyalarining abonent uchastkalari, so'zlashuv punktlari va jamoa bo'lib foydalanish punktlari, ta'mirlash byurosi, ma'lumot xizmatlari, servis xizmatlari,

telekommunikatsiyalar xizmatlariga haq to'lash punktlari)ning ish rejimlari operator (provayder, diler) tomonidan belgilanadi.

15. Operator, provayder, diler va eshittiruvchilari tomonidan ma'lumot xizmatlari tashkil qilinishi kerak, bunda foydalanuvchilarga quyidagilar to'g'risida bepul ma'lumot beriladi:

- a) telekommunikatsiyalar tarmog'idan foydalana olish tartibi;
- b) telekommunikatsiyalar tarmog'idan foydalana olishni taqdim etish narxi;
- d) telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzish;
- e) operator (provayder) tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar va ularning narxi;
- f) mobil aloqa xizmatlariga tariflar va ularni almashtirish imkoniyatlari (mobil aloqa xizmatlari uchun);
- g) bepul ko'rsatiladigan axborot-ma'lumot xizmatlari;
- h) operator (uning filiallari), provayder, diler joylashgan joyi va ish rejimi;
- i) abonent shaxsiy hisob raqamining holati (hisobdagi pul mablag'larining qoldig'i, imtiyozli daqiqalar qoldig'i, hisobot davridagi ma'lumotlar, to'lash uchun hisobni taqdim etish);
- j) operatorning mobil aloqa tarmog'ining xizmat ko'rsatish hududi to'g'risida axborot (mobil aloqa xizmatlari uchun);
- k) telekommunikatsiyalar sohasida foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilishga mas'ul organning ishonch telefon raqamlari;
- l) abonentdan texnik nosozliklar, SIM-karta yoki foydalanuvchi qurilmasi yo'qolganligi (SIM-kartadan foydalanish ko'zda tutilmagan mobil aloqa standartlari uchun), abonentning shaxsiy ma'lumotlari o'zgarganligi to'g'risidagi axborotni qabul qilish;
- m) mobil aloqa tarmoqlarida foydalanuvchi qurilmasidan foydalanish imkoniyati (mobil aloqa xizmatlari uchun);
- n) mobil aloqa tarmoqlarining operatorlari to'g'risida – rouming xizmatlarini taqdim etish bo'yicha sheriklar (mobil aloqa xizmatlari uchun);
- o) qonunchilik hujjatlariga asosan boshqa zarur ma'lumotlar.

Bepul axborot-ma'lumot xizmatlarining ro'yxati operator, provayder, diler va eshittiruvchilar tomonidan mustaqil ravishda kengaytirilishi mumkin.

16. Axborot-ma'lumot xabarlarini bevosita operator-telefonist orqali yoki avtoinformator yordamida, veb-sayt, mobil ilova, ijtimoiy tarmoqlar orqali berilishi mumkin.

17. Operator, provayder, diler va telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish jarayoniga aloqador boshqa subyektlar telekommunikatsiyalar tarmoqlari orqali uzatiladigan telefon so'zlashuvlari va boshqa xabarlar, shuningdek, ularga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarning sir tutilishini ta'minlashi shart.

18. Operator, provayder, diler va telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish jarayoniga aloqador boshqa subyektlar xizmat majburiyatlarini bajarishlari davomida ularga ma'lum bo'lgan abonentlar to'g'risidagi ma'lumotlarni abonentning rozilgisiz uchinchi shaxslarga berish yoki tarqatishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Abonent to'g'risidagi ma'lumotlarga quyidagilar kiradi:

a) abonent-jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, JSHSHIR, abonent raqami, abonent raqami balansi, tarif rejasi, yashash joyi, turgan joyi va abonent tomonidan taqdim etilgan boshqa ma'lumotlar;

b) abonent-yuridik shaxs xodimlarining shaxsiy ma'lumotlari, abonent manzili yoki oxirgi terminal uskuna o'rnatiladigan manzili, abonentni va uning oxirgi terminal uskunasi aynan identifikatsiyalash imkonini beradigan taxallusi, abonent raqamlari va boshqa ma'lumotlar.

19. Operator, provayder va telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish jarayoniga aloqador boshqa subyektlar tomonidan yaratilgan va abonentlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazalari konfidensial tusdagi hujjatlar sifatida himoyalaniishi kerak.

20. Abonentlar to'g'risidagi ma'lumotlardan bu abonentlarning roziligisiz axborot-ma'lumot xizmat ko'rsatilishi uchun foydalanish mumkin emas.

21. Foydalanuvchilar axborot resurslaridan foydalana olish uchun teng huquqlarga ega bo'lib, ular so'rayotgan axborotni olish uchun bu resurslarning egalari oldida asoslashga majbur emaslar, bundan qonunchilik hujjatlariga muvofiq foydalanish cheklangan axborot mustasno.

22. O'zbekiston Respublikasi hududida xabarlarni uzatish texnologik jarayonlarida yagona hisob-kitob va hisobot berish vaqti – mahalliy vaqt o'rnatiladi.

23. Axborotni uzatish xalqaro texnologik jarayonlarida hisob-kitob va hisobot berish vaqti davlatlararo kelishuvlar va shartnomalarga muvofiq belgilanadi.

24. Telegraf xizmatlarini ko'rsatayotganda iste'molchi va aloqa korxonasi o'rtasidagi munosabatlar kvitansiya yoki nazorat-kassa mashinasining cheki bilan yoki shartnoma bilan hujjatlashtiriladi.

25. Taksofonlar ko'chalarda, maydonlarda, bozorlarda, aloqa bo'limlarida, aeroportlarda, vokzallarda, metro bekatlarida, avtobus bekatlarida, do'konlarda, ta'lim tashkilotlarida, shahar jamoat transporti bekatlarida, tibbiyot va davolash muassasalarida, maxsus jihozlangan so'zlashuv punktlarida, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining bino va inshootlarida hamda boshqa joylarda kelishuv asosida o'rnatilishi mumkin. Taksofonlar alohida turuvchi hamda ixcham holatda joylashtirilgan bo'lishi mumkin.

26. O'rnatilgan taksofonlar texnik talablar, standartlar, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari va yong'in xavfsizligi talablariga mos kelishi kerak.

27. Taksofonlar o'rnatilgan joylarda quyidagilar bo'lishi shart:

a) taksofondan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma, taksofonlarni ekspluatatsiya qiluvchi operator yoki provayder to'g'risida axborot (nomi, manzili, telefon raqamlari);

b) taqdim etiladigan xizmatlar tarifi to'g'risida axborot;

d) ma'lumot ko'rinishidagi axborot (favqulodda tezkor xizmatlar hamda taksofonlarni ta'mirlash xizmatining telefon raqamlari, yaqin atrofda joylashgan taksofonning manzili va boshqalar);

e) maxsus jetonlar va to'lov kartalarini sotib olish joylari to'g'risidagi axborot.

28. Operator tomonidan taksofonlarga telefon raqamlari ajratilgan hollarda, shunday taksofonlardan kiruvchi chaqiruvlarni qabul qilib olish uchun foydalanish mumkin.

29. Internetdan jamoat bo'lib foydalanish punktining ish rejimi jamoat foydalanish joyining internet-provayderi tomonidan belgilanadi.

30. Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatishda operator, provayder, diler va eshittiruvchilarning o'zaro munosabatlar ular o'rtasida tuzilgan shartnomalar bilan tartibga solinadi.

31. Telekommunikatsiyalar tarmoqlarida foydalaniladigan va majburiy sertifikatlanishi kerak bo'lgan telekommunikatsiyalarning texnik vositalari muvofiqlik sertifikatlariga ega bo'lishi kerak.

32. Televideniye (radioeshittirish) xizmatlari operator va provayderlari televideniye (radioeshittirish) dasturlarining mazmunini tahrir qilish, o'zgartirish va to'ldirishga haqli emas.

33. Operator, provayder, diler va eshittiruvchilar telekommunikatsiyalar tarmoqlarida axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlashda:

axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasida qonunchilik hujjatlariga rioya qilishi; odamlarning dengizdagi, yerdagi, havodagi, kosmik fazodagi xavfsizligiga, mudofaa, xavfsizlik va huquq-tartibotni saqlash sohasidagi kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlarni o'tkazishga taalluqli barcha xabarlariga, shuningdek yirik avariya, falokatlar, epidemiya, yong'inlar va boshqa favqulodda vaziyatlar haqidagi xabarlariga mutlaq ustuvorlik berishi;

texnik vositalardan O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat qilish, urush va zo'ravonlikni, shafqatsizlikni, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib etish, davlat sirini yoki qonunchilik bilan qo'riqlanadigan o'zga sirni oshkor etish, jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladigan boshqa xatti-harakatlarni sodir qilish maqsadida foydalanilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan choralarni ko'rishi kerak.

34. Eshittiruvchilar, operatorlar va provayderlar televideniye (radioeshittirish) tarmoqlarida aholini favqulodda vaziyatlar xavfidan yoki favqulodda holat to'g'risida xabardor qilishni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan vositalar o'rnatilishini va ulardan foydalanishni ta'minlashlari shart.

35. Eshittiruvchilar, operatorlar va provayderlarning televideniye (radioeshittirish) tarmoqlari va texnik binolari qo'riqlash, himoyalash va xavfsiz faoliyatini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 14-apreldagi 92-son qarori bilan tasdiqlangan Teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar obyektlarini qo'riqlash, muhofaza qilish hamda ularning xavfsiz faoliyat ko'rsatishi qoidalariga talablariga javob berishi shart.

36. Internet-kafelarda voyaga yetmaganlarning ota-onasidan biri yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxs hamrohisiz tungi vaqt (soat 22:00 dan 6:00 gacha) Internet tarmog'idan foydalanish uchun jamoat foydalanish joylarida bo'lishiga yo'l qo'ymaslik hamda videokuzatuv kameralarini qo'llab (video yozuvni 90 kun saqlagan holda), tashrif buyuruvchilar xavfsizligi choralari ko'rilishi kerak.

37. Operator va provayderlar har bir abonentga, shu jumladan, abonentning shaxsiy hisob raqamida mablag'lar bo'lmagan holda, tegishli xizmatlar uchun O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan yagona raqamlarni abonent tomonidan terish yordamida favqulodda tezkor xizmatlarni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasining ishonch telefonlariga qo'ng'iroqlarni bepul va kecha-kunduz davomida chaqirish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Favqulodda tezkor xizmatlarga quyidagilar kiradi:

yagona dispetcherlik xizmati;
yong'in-qutqaruv bo'linmalari;
ichki ishlar organlari;
tez tibbiy yordam;
gaz tarmog'ining avariya xizmati;
O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining qutqaruv xizmati.

38. Abonent shartnomasi bekor qilinganidan so'ng, operator (provayder) ma'lumotlar bazasidan abonentlarning shaxsiy ma'lumotlari yo'q qilishlari shart.

II bo'lim. Telekommunikatsiyalar xizmatlarini taqdim etish

1-bob. Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish

1-§. Telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish

39. Operator (provayder) tomonidan ko'rsatiladigan telefon aloqasi xizmatlari universal va qo'shimcha xizmatlarga bo'linadi.

40. Universal telekommunikatsiyalar xizmatlari ro'yxati hamda ushbu xizmatlarga tariflar Universal telekommunikatsiya xizmatlari va telekommunikatsiya xizmatlarining ayrim turlari uchun tariflarni (narxlarini) shakllantirish va tartibga solish to'g'risidagi [nizomga](#) (ro'yxat raqami 3354, 2022-yil 18-mart) muvofiq belgilanadi.

41. Foydalanuvchilarga ko'rsatiladigan telefon aloqasi xizmatlari ro'yxati operatorga (provayderga) tegishli litsenziya hamda telekommunikatsiyalar tarmoqlari va vositalarining texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

42. Operator (provayder) tomonidan qo'shimcha va bepul telefon aloqasi xizmatlari ko'rsatilishi mumkin.

43. Quyidagilar qo'shimcha telefon aloqasi xizmatlari hisoblanadi:

a) telefon apparatlari va boshqa foydalanuvchi qurilmalarini qayta o'rnatish, qayta ulash (ulash sxemasini o'zgartirish);

b) parallel telefon apparatlarini o'rnatish;

d) telekommunikatsiyalar tarmog'ining aloqa kanallarini va fizik zanjirlarini ijaraga berish;

e) ma'lumot-axborot xizmatlari, bundan ushbu Qoidalarda ko'rsatilgan ma'lumotnomalarni berish qo'shimcha xizmatlari mustasno;

f) ma'lumotlar uzatish xizmatlari va telematik xizmatlardan (elektron pochta, faksimil xabarlarni uzatish xizmati, axborot resurslaridan foydalana olish xizmati va boshqalar) foydalanish imkoniyati;

g) telegrammalarni telefon orqali berish;

h) chaqirilayotgan abonentda raqamni avtomatik aniqlash funksiyalariga ega telefon apparati bo'lganda mahalliy telekommunikatsiyalar tarmog'ining chaqirayotgan abonent raqamini aniqlash, shuningdek, abonent talabiga ko'ra hisob tafsilotlarini berish;

i) abonent murojaatiga asosan abonent raqamini o'zgartirish;

j) chaqirilayotgan shaxsga xabar qilgan holda xalqaro telefon bog'lanish;

k) boshqa hududdan (aholi punktidan) chaqirilayotgan abonentning telefon raqami to'g'risidagi ma'lumot berish;

l) shartnomada belgilangan vaqtda telefon bog'lanishni taqdim etish;

m) chaqirilayotgan shaxs hisobidan shaharlararo telefon bog'lanish;

n) telefonogrammani uzatgan holda abonent o'rniga so'zlashish;

o) konferens-aloqa xizmati.

Telefon aloqa tarmog'idan foydalanishni taqdim etish xizmatining narxiga kommutatsiya stansiyasidan abonentning telefon rozetkasigacha abonent liniyalarining tashkil etilishi hisobga olingan stansiya va liniya uskunasi narxi kiradi.

Telefon tarmog'idan foydalanishning taqdim etilishi to'lovda oxirgi taqsimlash qurilmasidan telefon rozetkasigacha bo'lgan shahar telefon tarmog'ida uzunligi 20 m dan ko'p bo'lmagan va qishloq telefon tarmog'ida uzunligi 40 m dan ko'p bo'lmagan abonent liniyasining narxi hisobga olinadi.

Abonent liniyasini ekspluatatsiya qilish davomida abonent tarmog'ida operator yoki provayderga bog'liq bo'lmagan holda abonent kabeli yaroqsiz holga kelganda uni tiklash/ta'mirlash ishlari abonent hisobidan amalga oshiriladi.

Abonent tarmog'idan tashqarida abonent kabeli yaroqsiz holga kelganda uni tiklash/ta'mirlash ishlari operator va provayderlar hisobidan amalga oshiriladi.

Bepul qo'shimcha telefon aloqasi xizmatlariga quyidagilar kiradi:

a) telefon tarmog'ining ta'mirlash byurosini chaqirish;

b) chaqirilayotgan abonentning aholi punkti/operatori kodi to'g'risida ma'lumotnoma berish;

d) chaqirilayotgan mamlakat va chaqirilayotgan aholi punktining xalqaro kodi to'g'risida ma'lumot berish;

e) mahalliy va xalqaro telefon aloqasi xizmatlari uchun tariflar to'g'risida ma'lumot berish;

f) avtomatik telefon aloqasidan foydalanish tartibi to'g'risida ma'lumot berish;

g) xalqaro telefon bog'lanishni buyurtma qilish uchun buyurtma berish xizmatlarini chaqirish indeksleri to'g'risida ma'lumot berish.

Mazkur bandda ko'rsatilgan bepul xizmatlar ro'yxati kamaytirilishi mumkin emas.

44. Ushbu Qoidalarda ko'rsatilgan qo'shimcha telefon aloqasi xizmatlari ro'yxati (bepul yoki pullik) qonunchilik hujjatlari talablarini hisobga olgan holda operator va provayderga tegishli bo'lgan telekommunikatsiyalar tarmoqlari va vositalarining texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi mumkin.

45. Taksofon orqali quyidagi pullik xizmat turlari ko'rsatiladi:

a) mahalliy telefon so'zlashuvlari;

b) shaharlararo telefon so'zlashuvlari;

d) xalqaro telefon so'zlashuvlari;

e) axborot-ma'lumot xizmati operator-telefonistlari bilan telefon aloqasi.

2-§. Shaharlararo va xalqaro telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish

46. Shaharlararo va xalqaro telefon bog‘lanish avtomatik xizmat ko‘rsatish tizimi, buyurtma xizmat ko‘rsatish tizimi va darhol xizmat ko‘rsatish tizimi bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin.

47. Operator va provayder avtomatik aloqa yo‘nalishlarining borligi, shaharlar kodlari to‘g‘risida va avtomatik telefon aloqasidan foydalanish tartibi to‘g‘risida foydalanuvchilarni xabardor qilishga majbur (ommaviy axborot vositalar, ma‘lumot-axborot xizmatlari, Internet tarmog‘i orqali, so‘zlashuv punktlarida).

48. Buyurtma xizmat ko‘rsatish tizimida chaqirayotgan shaxsga buyurtmani qabul qilish vaqtida shaharlararo va xalqaro telefon bog‘lanishga berilgan buyurtmani bajarish muddati xabar qilinishi kerak.

Buyurtma chaqirayotgan shaxsning ixtiyoriga ko‘ra yoki buyurtmaning amal qilish muddati tugashi bilan bekor qilinishi mumkin.

49. Buyurtma bo‘yicha shaharlararo telefon bog‘lanish taqdim etilishi kerak bo‘lgan vaqt operator (provayder) tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi, ammo buyurtma qabul qilingan paytdan boshlab yoki chaqirayotgan shaxs tomonidan so‘zlashuv uchun belgilangan vaqtdan boshlab bir soatdan oshmasligi kerak. Ko‘rsatilgan vaqt tugashi bilan chaqirayotgan shaxsning roziligi bilan bajarilmagan buyurtma ushbu Qoidalarining 52-bandiga muvofiq boshqa vaqtga ko‘chiriladi yoki bekor qilinadi.

Buyurtma bo‘yicha xalqaro telefon bog‘lanish taqdim etilishi mumkin bo‘lgan vaqt operator (provayder) tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi va buyurtmani qabul qilish vaqtida foydalanuvchiga yetkaziladi.

Chaqirayotgan shaxsning talabi bo‘yicha buyurtma xizmat ko‘rsatish tizimida shaharlararo va xalqaro telefon bog‘lanishlar buyurtma qabul qilingan vaqtdan boshlab 30 daqiqa (shoshilinch buyurtma) ichida taqdim etilishi mumkin. Shoshilinch buyurtmalar qabul qilinadigan yo‘nalishlar ro‘yxati operator (provayder) tomonidan belgilanadi va foydalanuvchilar e‘tiboriga havola qilinadi.

50. Shaharlararo va xalqaro telefon bog‘lanishga buyurtma xizmat ko‘rsatish tizimida buyurtmaning amal qilish muddati chiquvchi stansiya uchun mahalliy vaqt bilan soat 08:00 da tugaydi hamda quyidagicha belgilanadi:

a) telefon apparatidan telefon apparatiga telefon bog‘lanishlar uchun – buyurtma berilgan kundan keyingi kunga;

b) shaxsiy telefon bog‘lanishlar va konferens-alloqa uchun – buyurtma berilgan kundan keyin ikkinchi kunga.

Xalqaro telefon bog‘lanish uchun buyurtmaning amal qilish muddati yana 8 soatga uzaytirilishi mumkin, agar bu tegishli stansiyalar yoki ekspluatatsiya qilish va trafikning o‘tish vaqtidagi farq sababli zarur deb tan olingan bo‘lsa.

51. Shaharlararo telefon aloqa texnologik jarayonlarida yagona hisobga olish-hisobot (texnologik) vaqt – mahalliy vaqt qo‘llaniladi.

Xalqaro telefon aloqasida hisobga olish hisobot vaqti milliy aloqa ma‘muriyatlarining xalqaro kelishuvlari bilan belgilanadi.

52. Foydalanuvchilarga shaharlararo va xalqaro telefon aloqasi xizmatlarini ko‘rsatishning texnik imkoniyati bo‘lmaganda operator (provayder) so‘zlashuvlar soni va

ularning davomiyligiga cheklovlarni kiritadi, buyurtma va darhol xizmat ko'rsatish tizimida aloqa to'liq bo'lmaganda buyurtmalarni qabul qilishni rad etadi.

Shaharlararo va xalqaro telefon aloqasi xizmatlariga cheklovlar kiritilganligi to'g'risida foydalanuvchi buyurtmani qabul qilish vaqtida yoki buyurtma va darhol xizmat ko'rsatish tizimlarida telefon bog'lanish taqdim etilayotgan vaqtda xabardor qilinishi kerak.

Telefon aloqasidan foydalanishda uzoq muddatli cheklovlar yuzaga kelgan holda operator (provayder) bu haqda ommaviy axborot vositalari, ma'lumot xizmatlari yoki telekommunikatsiyalar xizmatlaridan ommaviy foydalanish punktlarida e'lon berish orqali foydalanuvchilarni xabardor qilish choralarini ko'rishi kerak.

53. Buyurtma xizmat ko'rsatish tizimida telefon bog'lanishini taqdim etish navbati so'zlashuv toifasiga, buyurtmaning shoshilinch ekanligiga va kelib tushish vaqtiga bog'liq bo'ladi.

54. O'zbekiston Respublikasi hududida operator-telefonist yordamida taqdim etiladigan shaharlararo telefon so'zlashuvlarining quyidagi toifalari belgilangan:

har qanday navbatdan tashqari va alohida parollar bo'yicha;
hukumatga oid;
oddiy.

55. "Har qanday navbatdan tashqari" toifa bo'yicha so'zlashuvlar faqat qonunchilik hujjatlariga muvofiq, amaldagi oddiy tarif bo'yicha haq to'lagan holda abonent tomonidan ko'rsatilgan istalgan telefon bo'yicha bunday so'zlashuvlarni olib borish huquqidan foydalanadigan mansabdor shaxslarga taqdim etiladi. Abonentning talabiga ko'ra so'zlashuvlar aloqaning ishlash jadvalini buzgan va quyi toifadagi bo'lib o'tayotgan so'zlashuvni uzib qo'ygan holda taqdim etiladi.

56. "Har qanday navbatdan tashqari" toifasidagi buyurtmalar bilan bir qatorda "Falokat" paroli bo'yicha so'zlashuvlarga buyurtmalar bajariladi. Ushbu parol bo'yicha so'zlashuvlar amaldagi oddiy tarif bo'yicha haq to'lagan holda foydalanuvchi tomonidan ko'rsatilgan istalgan telefondan, shuningdek so'zlashuv punktidan taqdim etiladi. Halokatga uchragan dengiz, daryo va havo kemalaridan xabarlarni uzatish uchun shaharlararo telefon so'zlashuvlariga to'lov [undirilmaydi](#).

57. Operatorlarga shartnoma asosida to'langan vaqtincha amal qiluvchi parollarni kiritish huquqi beriladi. Parollar bo'yicha buyurtmalar oddiy toifadagi buyurtmalardan oldin beriladi.

58. "Hukumatga oid" toifasidagi shaharlararo telefon so'zlashuvlari "har qanday navbatdan tashqari" so'zlashuvlaridan keyin aloqaning ishini buzmasdan va bo'lib o'tayotgan so'zlashuvlarni uzib qo'ymasdan amaldagi oddiy tarif bo'yicha taqdim etiladi. So'zlashuvlar faqat bunday so'zlashuvlarni olib borish huquqi berilgan mansabdor shaxslarga va faqat ro'yxatga olingan telefonlardan taqdim etiladi.

59. Hech bir boshlangan so'zlashuv operator (provayder) tomonidan uzib qo'yilishi mumkin emas, "Har qanday navbatdan tashqari" toifasidagi va "Falokat" paroli bo'yicha so'zlashuvni taqdim etish zarur bo'lgan hollar bundan mustasno. So'zlashuv tugaganidan keyin foydalanuvchiga uzib qo'yilgan so'zlashuvni tugatish imkoni beriladi.

60. Buyurtma bo'yicha bildirishnomali telefon bog'lanishlar so'zlashuv uchun belgilangan vaqtni hisobga olgan holda tarifidan qat'i nazar ushbu (buyurtma) toifadagi buyurtmalar ichidan eng birinchi navbatda taqdim etiladi.

61. Shaharlararo va xalqaro telefon bog'lanishga buyurtmani qabul qilishda darhol xizmat ko'rsatish tizimida abonent telefon go'shagini qo'ymasdan, shu zahoti, amaldagi oddiy tarif bo'yicha chaqirilayotgan abonent bilan telefon orqali bog'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida darhol xizmat ko'rsatish tizimi texnik vositalarning tayyorlik darajasiga qarab kiritiladi.

3-§. Telekommunikatsiyalar tarmoqlarida axborot-ma'lumot xizmatlarini ko'rsatish

62. Telekommunikatsiyalar tarmoqlarida axborot-ma'lumot xizmatlarining quyidagi turlari ko'rsatiladi:

uchta yoki to'rtta sonli raqamdan foydalanib, axborot-ma'lumot xizmatlari;

foydalana olish uchun abonent raqamlari ajratiladigan axborot-ma'lumot xizmatlari.

63. Axborot-ma'lumot xizmatlaridan foydalana olish uchun raqamlar ajratilishi telekommunikatsiyalar sohasidagi tartibga soluvchi organ tomonidan tasdiqlanadigan raqamlash tizimi va rejasiga muvofiq [amalga oshiriladi](#).

64. Quyidagilar axborot-ma'lumot xizmatlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) foydalanuvchilarga ma'lumotlar berish:

telekommunikatsiyalar tarmoqlarining telefon raqamlari (tashkilotlar, muassasalar va korxonalar telefonlari) to'g'risida;

qo'shimcha telefon aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlarning telefon raqamlari to'g'risida;

mahalliy telefon tarmoqlarining telefon uzellari ta'mirlash byurosining telefon raqamlari to'g'risida;

b) manzilli, muassasaviy, qo'l va elektron kartotekalarini yaratish hamda ularga telekommunikatsiyalar tarmoqlarini rekonstruksiya qilish bilan bog'liq barcha o'zgarishlarni o'z vaqtida kiritish;

d) telefon ma'lumotnomalarini tayyorlash.

65. Operator (provayder) telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan axborotni abonentlarga taqdim etish maqsadida axborot-ma'lumot berish bo'yicha xizmat ko'rsatish tizimini yaratadi.

Quyidagi ma'lumotlar operator (provayder) tomonidan abonentning so'roviga muvofiq 24 soat mobaynida hech qanday cheklovlarsiz taqdim etilishi shart:

ma'lumotlar uzatish tarmog'i orqali ko'rsatiladigan xizmatlar to'g'risidagi;

ma'lumotlar uzatish tarmog'idan foydalanish xizmatlariga bo'lgan tariflar to'g'risidagi;

abonentga uning shaxsiy hisobvarag'ining holati va ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlaridan foydalanish haqini to'lash bo'yicha qarzdorlik to'g'risidagi, jumladan abonentga ulangan xizmatlar (ma'lumotlar uzatish vaqti, tezligi, olingan va (yoki) uzatilgan axborot hajmi, shuningdek limitlangan trafikli tariflardagi trafik qoldig'i) to'g'risidagi;

texnik nosozliklar to'g'risidagi.

66. Operatorlarning (provayderlarning) faoliyati yo'nalishlari va vazifalariga muvofiq axborot-ma'lumot xizmatlari tomonidan operatorlarning (provayderlarning) texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib boshqa axborot ham berilishi mumkin.

67. Operatorlar (provayderlar) axborot-ma'lumot xizmatlari ko'rsatishda quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

berilayotgan axborot sifatining ishlab chiqarish nazorati;

belgilangan shakllar bo'yicha birlamchi hisob va hisobotni yuritish;

ko'p smenali ish jadvalini hisobga olib kadrlarni joy-joyiga qo'yish;

kadrlarni o'qitish va malakasini oshirish;

ma'lumotnoma kartotekalarini ekspluatatsiya qilish va yuritish;

ma'lumotnoma kartotekalariga tuzatishlar kiritish uchun axborot olish maqsadida mahalliy telekommunikatsiyalar tarmoqlarining telefon uzellari bilan o'zaro ishlash;

texnik vositalardan ekspluatatsiya qilish qoidalarini va yo'riqnomalariga muvofiq foydalanish;

mehnatni ilmiy tashkil qilish, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasiga doir chora-tadbirlarni o'tkazish.

68. Telekommunikatsiyalar tarmoqlarining axborot-ma'lumot xizmati ma'lumot xizmatining maxsus apparaturasi bazasida tashkil qilinadi, uning tarkibiga kommutatsiya uskunasi, operator-telefonistlar stollari, kartoteka uskunasi, dispetcher va ishlab chiqarish nazorati pultrlari kiradi.

69. Axborot-ma'lumot xizmatlari shaharlar, tumanlar, tashkilotlar joylashgan ko'chalar nomlaridagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritib, o'z ma'lumotlar bazasini o'z vaqtida yangilab borishlari kerak.

70. Chaqiruv kelib tushganda operator-telefonist darhol va aniq o'zining shaxsiy raqamini aytishi kerak (masalan, "beshinchi", "o'ttiz sakkizinchi"). Agar foydalanuvchi javob bermasa, "Ma'lumotnoma xizmati javob beradi" deb takrorlaydi. Ikkinchi marta ham javobni olmagandan keyin, operator-telefonist aloqani uzishga haqli. "Ha", "Eshitaman", "Allo" va b. so'zlarni aytishga ruxsat berilmaydi.

71. Operator-telefonist yonida ishlayotgan telefonchi operatorga xalaqit qilmaslik uchun ovoyni balandlamasdan talab qilnayotgan axborotni aniq va ravshan berishi kerak.

72. Operator-telefonist faqat foydalanuvchi unga berilgan axborotni to'g'ri takrorlagandan keyingina aloqani uzishga haqlidir. Agar foydalanuvchi axborotni noto'g'ri takrorlagan bo'lsa, operator-telefonist uni takrorlashga majbur.

73. Operator-telefonist birinchi talab bo'yicha foydalanuvchiga o'zining shaxsiy raqamini takrorlashi kerak.

74. Operator-telefonist foydalanuvchilar bilan xushmuomalali bo'lishi, hech qanday tanbehlar bildirmasligi va u bilan bahs-munozaralarga kirishmasligi kerak.

75. Foydalanuvchilar shikoyat qilganda operator-telefonist ularni darhol katta operator-telefonist bilan ulashi kerak.

76. Operator-telefonist ma'lumot berilayotgan materialni, kartotekaning tuzilishi va ma'lumot materiallarining unda joylashish prinsiplarini yaxshi bilishi kerak. Operator-telefonist barcha favqulodda tezkor xizmatlar raqamlarini yoddan bilishi kerak.

77. Agar operator-telefonist ma'lumotni berishga qiynalsa, u foydalanuvchiga: "Iltimos, bir oz kutib turing" deb katta operator-telefonistga murojaat qilishi shart. Katta operator-telefonistning tushuntirishlarini olib, kutib turgan foydalanuvchiga xizmat ko'rsatadi. Ma'lumot olish uchun yonida ishlayotgan operator-telefonistga murojaat qilish qat'iyan man qilinadi.

78. Operator-telefonist foydalanuvchi so'rovini e'tibor bilan eshitishi va zarur bo'lganda berilgan savolni takrorlashini so'rashi kerak: "Iltimos, ma'lumotni qaytaring" yoki "Iltimos, aniqroq qaytaring". Agar ikkinchi bor so'rovdan keyin operator-telefonist foydalanuvchini deyarli eshitmasa yoki umuman eshitmasa, u: "Sizni eshitmayapman, iltimos qayta qo'ng'iroq qiling" deb javob berishi kerak.

79. Agar foydalanuvchi savolni noto'g'ri ifodalagan bo'lsa, operator-telefonist foydalanuvchidan unga aynan qanday axborot kerakligini aniqlashtirishni xushmuomalalik bilan so'rashi va shundan keyin yana ma'lumot xizmatini ko'rsatishi kerak.

80. Agar foydalanuvchi ushbu xizmatga tegishli bo'lmagan axborot berishni so'rasa, u holda unga tegishli axborot-ma'lumot xizmatlarining telefon raqamlarini berilishi kerak.

81. Telefon raqamlari to'g'risidagi axborotni taqdim etishda operator-telefonist raqamlarni belgilangan tartibda og'zaki bayon etishi shart. Bunda, to'rt xonali telefon raqamlari ikki xonadan iborat juftliklarga bo'linib aytiladi (masalan, 44-32 – "qirq to'rt", "o'ttiz ikki"). To'qqiz xonali telefon raqamlari esa ketma-ket ravishda ikki xonali, uch xonali hamda ikki xonadan iborat juftliklarga bo'linib aytiladi (masalan, 71 278-34-23 – "yetmish bir", "ikki yuz yetmish sakkiz", "o'ttiz to'rt", "yigirma uch").

82. Agar foydalanuvchi telefon shikastlanganligi to'g'risida xabar qilmoqchi bo'lsa, operator-telefonist qaysi telefon raqami shikastlanganligini so'rashi shart va foydalanuvchiga telefon aloqa uzelinig tegishli avtomatlashtirilgan ta'mirlash byurosining raqamini xabar qilishi kerak.

83. Operator-telefonist quyidagi hollarda foydalanuvchini katta operator-telefonist bilan ulashga majbur:

operator-telefonist foydalanuvchi savolini tushunmaganda;

operator-telefonist ma'lumot materialida foydalanuvchiga kerak bo'lgan axborotni topa olmaganda;

foydalanuvchi shikoyat bilan murojaat qilganda;

foydalanuvchi tomonidan berilgan savol ma'lumot xizmatining vakolatiga kirmaganda.

84. Axborot-ma'lumot xizmatining operator-telefonist quyidagi hollarda ma'lumot berishni rad etishga haqli:

korxona, muassasa, tashkilotning to'liq, qisqartirilgan yoki shartli nomi ko'rsatilmagan bo'lsa;

yakka tartibda foydalaniladigan xonadon telefoni abonentining familiyasi, ismi, otasining ismi yoki to'liq manzili aytilmagan bo'lsa, ma'lumot materialida esa, shu familiyadagi shaxslar ko'p bo'lsa;

jamoat bo'lib foydalaniladigan xonadon telefoni o'rnatilgan aniq manzil ko'rsatilmagan bo'lsa;

ma'lumot materialida so'ralayotgan axborot bo'lmasa;

foydalanuvchi unga ma'lumot xizmati bo'yicha ikkitadan ortiq ma'lumotlar berishni so'rasa, bunda operator-telefonist foydalanuvchiga u ma'lumot xizmatini ikkinchi bor chaqirganligini aytishi kerak.

4-§. Telefon tarmoqlarida qo'riqlash qurilmasini o'rnatish va xizmat ko'rsatish

85. Telefon tarmoqlarida signalizatsiya uskunalari o'rnatish va ularga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organlar (bundan buyon matnda qo'riqlash xizmati deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

86. Yuridik va jismoniy shaxslarga qarashli korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, xonadonlar himoya qilish obyektlari hisoblanadi.

87. Telefon stansiyalarini loyihalash va rekonstruksiya qilishda qo'riqlash signalizatsiyasi apparatini joylashtirish uchun kross va kross yaqinida, mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda, texnologik loyihalashning normativlariga muvofiq maydonli apparatura xonasini jihozlash ko'zda tutilishi lozim.

Optik tolali aloqa liniyalari orqali tashkil etilgan kichik sig'imli telefon stansiyalarida qo'riqlash signalizatsiya apparaturalari alohida shkaflarda o'rnatiladi.

88. Xavfsizlik signalizatsiya tizimining tarkibiga xabarlarni uzatish tizimlari ramkalariga abonent liniyalarini krossirovka qilish ishlari 5 kun muddat ichida telefon tarmoqlari hisobidan amalga oshiriladi.

Himoya bo'laklari va krossning stansion ramkalaridan qo'riqlash signalizatsiyasi ramkalarigacha bo'lgan krossirovkasi telefon tarmoqlari xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

89. Qo'riqlanadigan obyektlardagi abonent liniyalarining telefon rozetkasiga xabarlarni uzatish tizimlarining yakunlovchi (terminal) qurilmalarini ulash qo'riqlash xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

90. Xabarlarni uzatish tizimlari uskunalari texnik xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi qo'riqlash xizmatining mutaxassislariga xabarlarni uzatish tizimlari uskunalari o'rnatilgan telefon stansiyalari binolariga kirish uchun telefon tarmoqlari ma'muriyati tomonidan maxsus guvohnomalar yoki ruxsatnomalar beriladi.

91. Kechki va tungi payt, ta'til va dam olish kunlari qo'riqlash xizmati xodimlarining ko'rsatilgan binolarga kirishlari telefon tarmoqlari dispetcherining ruxsati asosida bo'ladi.

Qo'riqlash xizmati xodimlari bajaradigan ishlar telefon tarmoqlari xodimlari tomonidan nazorat qilinadi. Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo'riqlash departamenti xodimlari tomonidan bajarilgan barcha ishlar maxsus jurnalda qayd etilishi lozim.

92. Telefon liniyalaridan qo'riqlash maqsadida foydalanilayotgan abonentlarning abonent kartalarida qo'riqlash pulti belgisi bo'lishi, ramka raqami va signalizatsiya shtifti ko'rsatilishi lozim.

93. Obyektlarni qo'riqlash davri mobaynida abonent liniyalarini krossdan tekshirish faqatgina qo'riqlash xizmatining buyurtmasiga binoan amalga oshiriladi. Tekshiruv uchun buyurtmalar boshqa shaxslardan qabul qilinganda, ko'rsatilgan liniyalar tekshiruv qo'riqlash

signalizatsiyasi o‘chirilganidan keyin, faqatgina qo‘riqlash xizmatining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

94. Qo‘riqlash signalizatsiyalari uchun ishlatiladigan taqsimlash javonlari, quti, boks va grompolosa shtiftlari telefon tarmoqlari xodimlari tomonidan bo‘yoq bilan markirlanishi (belgilanishi) lozim.

95. Telefon stansiyasi krosslari va liniyalarda ta‘mirlash hamda profilaktika ishlari o‘tkazilganda, qayta payka qilinganda va kabellarni almashtirib qayta ulanganda (stansiya va liniya inshootlarida) telefon tarmoqlari xodimlari uchun telefon liniyalarining markirlangan simlari juftligi joyma-joy almashtirilishiga, shuningdek ulardan xizmat aloqasi uchun foydalanilishiga ruxsat berilmaydi.

96. Qo‘riqlash signalizatsiyasi uchun ishlatiladigan liniyalarda profilaktik reja asosida ish olib borishlari to‘g‘risida telefon tarmoqlari xodimlari qo‘riqlash xizmati ish boshlanishidan uch kun, ishlar shoshilinch (rejadan tashqari) bajarilishi kerak bo‘lganda bevosita mazkur ishlar bajarilishidan oldin ogohlantiradi.

97. Qo‘riqlash xizmati buyurtmasiga binoan, aloqa liniyalar parametrlari o‘lchovini telefon tarmoqlari 15 kun ichida amalga oshiradi. Zarur bo‘lganda, qo‘riqlash xizmatining mutaxassislari o‘lchovlarda qatnashadilar. Telefon tarmoqlari liniyalari parametrlarini belgilangan normalarga muvofiqlashtirishni ta‘minlaydi yoki texnik imkoniyat mavjud bo‘lganda liniyalarni almashtiradi.

98. Qo‘riqlash signalizatsiyasi yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan sabab tufayli telefon aloqasi buzilgan bo‘lsa, telefon tarmoqlari xodimlari bu haqda qo‘riqlash xizmatiga xabar beradi va qo‘riqlash xizmati xodimlari bilan birgalikda nosozlik sababini ikki soat ichida aniqlab, uni bartarf etish choralari ko‘radi.

Qo‘riqlash signalizatsiyasining uch soatdan ortiq vaqt orqalig‘idagi nosozlik, telefon aloqasining sifatli ishlashiga ta‘sir ko‘rsatgan holda, telefon tarmoqlari xodimlari qo‘riqlash signalizatsiyasini telefon liniyasidan uzib qo‘yadi.

99. Markaziy kuzatuv pultlari va telefon stansiyasini bog‘laydigan to‘g‘ri simlari bo‘lgan kabellar shikastlanishi yoki ta‘mirlanishi vaqtida telefon tarmoqlari tomonidan texnik imkoniyat mavjud bo‘lsa uch soat ichida zaxira aloqasi taqdim etiladi. Bunday imkoniyat mavjud bo‘lmagan holda shikastlanishlar belgilangan muddatlarga muvofiq, qo‘riqlash xizmatini xabardor qilgan holda bartaraf etiladi.

Qo‘riqlash signalizatsiyasi uchun foydalaniladigan abonent telefon liniyalaridagi shikastlanishlar, telefon tarmoqlari xodimlari tomonidan birinchi navbatda bartaraf etiladi.

100. Abonent liniyalarini qayta ulash, juftlik sxema bo‘yicha telefonlarni yoqish hamda qo‘riqlash signalizatsiyasi faoliyatini to‘xtatib, telefonlar joyini almashtirish qo‘riqlash xizmati rahbariyatini oldindan yozma ravishda ogohlantirgan holda telefon tarmoqlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, qo‘riqlash signalizatsiyasi apparaturasini ulash uchun to‘lov undirilmaydi.

101. Qo‘riqlash signalizatsiyasi uchun telefon liniyalaridan foydalanganda ro‘yxatdan o‘tkazish va abonent to‘lovlari amaldagi tariflarga muvofiq qo‘riqlash xizmatidan undiriladi.

102. Qo‘riqlash xizmatiga ulangan obyektlar telefonlari o‘chirilganida yoki abonent mazkur Qoidalarni buzganligi sababli aloqa xizmati ko‘rsatilishidan to‘xtatilganda, bu haqda kross xodimlari qo‘riqlash xizmatini ogohlantiradi.

5-§. Telegraf aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish

103. Operatorlar quyidagi telegraf xizmatlarini ko‘rsatadi:

telegrammalar qabul qilish, yuborish;

abonent telegraf tarmog‘i bo‘yicha so‘zlashuvlar olib borish;

“teleks” tarmog‘i bo‘yicha so‘zlashuvlar olib borish;

telegraf kanallarini ijaraga berish;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa xizmatlar.

104. Telegraf aloqasidan foydalanilganda telegrammalarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

“topshirilganligi to‘g‘risidagi xabarnoma bilan”;

“pochta orqali buyurtmali” yetkazib berish bilan”;

“jo‘natuvchi tomonidan ko‘rsatilgan muddatda yetkazib berish bilan”;

“badiiy blankda yetkazib berish bilan”;

“tasdiqlangan”;

“javobi to‘langan”;

“sxemali”;

“kriptogramma”;

“perfotasmadagi kriptogramma”;

“banklardan o‘tkazma”.

105. Telegrammalar ishlov berilishiga qarab quyidagi toifalarga bo‘linadi:

oddiy;

shoshilinch;

toifadan tashqari;

navbatdan tashqari;

oliy hukumatga oid;

hukumatga oid.

Telegrammalarga ishlov berish ularning toifalariga muvofiq amalga oshiriladi.

106. Ishlov berishdagi mutlaq ustunlik odamlarning dengizdagi, yerdagi, havodagi, kosmik fazodagi xavfsizligiga, mudofaa, xavfsizlik va huquq-tartibotni saqlash sohasidagi kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarni o‘tkazishga taalluqli barcha xabarlariga, shuningdek yirik avariylar, falokatlar, epidemiyalar, yong‘inlar va boshqa favqulodda vaziyatlar haqidagi xabarlar bo‘lgan telegrammalarga **beriladi**.

107. “Oddiy” telegrammalarga toifasi to‘g‘risida belgi bo‘lmagan telegrammalar kiradi.

108. “Shoshilinch” toifasiga shoshilinch tariflar bo‘yicha to‘lanadigan telegrammalar kiradi.

109. “Toifadan tashqari” telegrammalariga “Havo” (“Vozdux”), “Raketa”, “Mobilizatsion”, “Samolyot” belgilari bo‘lgan telegrammalar kiradi.

110. “Navbatdan tashqari” telegrammalarga “Avariya”, “Shtorm”, “Avia” belgilari bo‘lgan telegrammalar kiradi.

“Avariya” belgili telegrammaga – havo va daryo flotlarida, temir yo‘llarda va avtotransportda, sanoat korxonalaridagi hodisalar va aloqa vositalarining holati, halokatlar, avariyaalar to‘g‘risidagi telegrammalar kiradi.

“Shtorm” belgili telegrammaga – havo va daryo flotlari, temir yo‘l va avtomobil transporti uchun noqulay ob-havo hodisalari (bo‘ron, to‘fon, tuman va boshqalar), shuningdek tabiiy ofatlar (zilzila, toshqin, o‘rmon yong‘inlari va boshqalar) to‘g‘risidagi ogohlantirish telegrammalari kiradi.

“Avia” belgili telegrammaga – samolyotlarning uchishi, kelishi va majburiy qo‘nishi to‘g‘risidagi xabarlar, shuningdek, ob-havo to‘g‘risida ma’lumotli telegrammalar kiradi.

“Hukumatga oid” va “Oliy hukumatga oid” telegrammalarini berish huquqidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxatga muvofiq mansabdor shaxslar foydalanadi.

111. “Topshirilganligi to‘g‘risidagi xabarnoma bilan” telegrammani yuborayotganda jo‘natuvchi belgilangan joyda telegrammani 24 soat ichida, telegraf ishi jadval bo‘yicha seanslar bilan amalga oshiriladigan punktlarga manzillangan telegrammalar uchun telegrammani qabul qilgan paytdan boshlab 48 soat ichida topshirilishi to‘g‘risida xabarnomani oladi.

112. “Javobi to‘langan” telegrammalar adresatning jo‘natuvchiga u tomonidan to‘langan axborot hajmidagi to‘langan javobini ta’minlaydi.

“Topshirilganligi to‘g‘risidagi xabarnoma bilan”, “javobi to‘langan”, “banklardan o‘tkazma” turdagi telegrammalar faqat O‘zbekiston Respublikasi hududida qabul qilinadi.

113. “Pochta orqali buyurtmali yetkazib beriladigan” telegrammalar aloqa korxonalari bo‘lmagan aholi punktlariga manzillanadi. Bunday telegrammalar adresatga shaxsan qo‘liga topshirib yetkaziladi, bu telegrammaning o‘tish vaqtini uzaytiradi.

114. “Jo‘natuvchi tomonidan ko‘rsatilgan muddatda yetkazib berish bilan” telegrammalari adresatga jo‘natuvchi tomonidan ko‘rsatilgan muddatda telegrammani yetkazib berishni ta’minlaydi va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlariga, respublikaning viloyat va tuman markazlariga yuborish uchun yetkazib berish sanasidan kamida bir sutka oldin aloqa korxonalari tomonidan qabul qilinadi.

115. “Badiiy blanklarda yetkazib berish bilan” telegrammalari jo‘natuvchining xohishiga ko‘ra telegrammalar adresatlariga badiiy blanklarda yetkazib berish bilan qabul qilinadi. Bunday telegrammalar faqat telegraf aloqasi bo‘lgan punktlarga manzillanishi mumkin.

116. “Tasdiqlangan” telegrammalarida aloqa korxonasi telegrammada xabar qilinayotgan qandaydir faktni, jo‘natuvchining imzosini yoki telegrammada yuborilayotgan ishonchnomani tasdiqlashi mumkin.

Iste’molchi telegrammada xabar qilinayotgan faktni tasdiqlovchi rasmiy ma’lumotnomani, guvohnomani yoki boshqa hujjatni taqdim etishi kerak.

Tasdiqlangan telegrammalar belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

117. “Sxemali” telegrammalar aynan bir xil matnni aloqa korxonasi tomonidan oldindan tuzilgan, ro‘yxatdan o‘tkazilgan va kiritilgan sxema bo‘yicha turli telegraf punktlariga uzatilishini ta‘minlaydi. Sxemali telegrammalar yuridik shaxslar tomonidan berilishi mumkin.

118. Telegraf jo‘natmalarini manzillash O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi [Qonuniga](#) muvofiq amalga oshiriladi.

Davlatlararo axborot va jo‘natmalar ikki tomonlama bitimlar, shuningdek xalqaro bitimlar va shartnomalar bilan belgilangan tillarda ishlov beriladi.

Telegrammaning manzili:

xat-xabarlar O‘zbekiston Respublikasi hududida yuborilganda – davlat tilida, bundan tashqari, Qoraqalpog‘iston Respublikasiga qoraqalpoq tilida;

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlariga yuborilganda – rus tilida yoki belgilangan mamlakat tilida;

uzoq xorij mamlakatlariga yuborilganda – belgilangan mamlakat tilida, lotin alifbosi harflari bilan yozilgan bo‘lishi kerak.

119. Telegrammalar ochiq (umumqabul qilingan) yoki shartli (kodlangan) tilda yozilishi mumkin. Agar yozuv davlat tilida yoki boshqa tilida tuzilgan bo‘lsa, harflar va raqamlar bilan ko‘rsatilgan zavod, savdo belgilari va markalari yoki faqat raqamlardan iborat bo‘lgan statistik va boshqa ma‘lumotlarni o‘z ichiga olsa, telegramma ochiq (umumqabul qilingan) tilda yozilgan deb hisoblanadi. Jismoniy shaxslardan telegrammalar faqat ochiq tilda (umumqabul qilingan) qabul qilinadi.

Agar yozuv shartli belgilar yoki shartli qiymatga ega bo‘lgan oddiy so‘zlar yordamida tuzilgan bo‘lsa, telegramma shartli (kodlangan) tilda yoziladi deb hisoblanadi. Bunday telegrammalar faqat yuridik shaxslardan qabul qilinadi.

120. Tarkibida axloqsiz, haqoratli va inson qadr-qimmatini kamsituvchi so‘zlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xavfsizligi va davlat manfaatlariga qarshi qaratilgan matn bo‘lgan hamda faqat manzildan iborat (matnsiz) telegrammalar qabul qilinmaydi.

121. Respublika hududida iste‘molchilarga telegraf xizmatlarini ko‘rsatish mahalliy vaqtni ko‘rsatgan holda amalga oshiriladi.

122. Aloqa korxonalarida telegrammani qabul qilish belgilangan ish rejimiga muvofiq amalga oshiriladi.

123. Aloqa korxonalari iste‘molchilarga xizmat ko‘rsatish madaniyatini, telegraf xabarlarining sir saqlanishini ta‘minlashlari shart.

124. Telegraf tarmog‘idagi telegraf stansiyalari va teleks tarmoqlari iste‘molchilarga tarmog‘iga va teleks tarmog‘iga ulangan korxonalar va tashkilotlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘zlashuvlarni olib borish va axborotni uzatish imkonini yaratib beradi. Iste‘molchilarning foydalanuvchi qurilmalarini telegraf stansiyasiga va teleks xalqaro tarmog‘iga ulash iste‘molchilar va aloqa korxonalari o‘rtasida tuzilgan shartnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

125. Telegraf kanallari aloqa korxonasi va iste‘molchi o‘rtasidagi shartnoma asosida ijaraga beriladi. Telegraf kanallarini ijaraga berish tartibi qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi.

126. Iste‘molchining xohishiga ko‘ra aloqa korxonasi tomonidan quyidagi qo‘shimcha telegraf aloqa xizmatlari ko‘rsatilishi mumkin:

a) iste'molchining og'zaki arizalari bo'yicha:

berilgan telegrammani bekor qilish yoki telegrammani yuborishdan avval uning manzilini o'zgartirish;

telegrammani adresatga yetkazilgan (O'zbekiston Respublikasi hududida) kundan keyin 2 oy ichida uning topshirilganligining tasdig'ini olish;

"talab qilingunga qadar" belgisi bilan manzillangan telegrammalarni belgilangan bir oy muddatdan tashqari, keyingi bir oy mobaynida saqlab turish;

telegramma berilgan kundan boshlab ikki oy mobaynida telegrammaning tasdiqlangan nusxasini olish;

b) iste'molchining yozma arizasi bo'yicha:

telegrammani boshqa manzilga qayta jo'natish yoki yetkazib berish;

telegrammalarni pochta qutilarida va abonent shkaflarida qoldirish;

o'zlarining telegrammalari, shu jumladan telegramma jo'natuvchilarining manzillari to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni jo'natuvchilarga va adresatlarga berish.

127. Aloqa korxonalari mazkur Qoidalarga zid bo'lmagan va amalda bajarilishi mumkin boshqa xizmatlarni ham ko'rsatishi mumkin.

6-§. Ma'lumotlarni uzatish tarmog'i, shu jumladan internet xizmatlarini ko'rsatish

128. Ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlari ro'yxati operator yoki provayder hamda abonent o'rtasida tuziladigan ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlarini ko'rsatish shartnomasida belgilangan bo'lishi kerak.

129. Ma'lumotlar uzatish tarmog'i orqali xizmatlarning quyidagi turlari taqdim etilishi mumkin:

ma'lumotlar uzatish tarmog'idan foydalanish (turli standartlar bo'yicha), trafik tranziti, shuningdek ma'lumotlar uzatishning xalqaro tarmoqlaridan, jumladan Internetdan foydalanish;

real vaqtda axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish;

elektron xabarlar qabul qilish va uzatish (shu jumladan, elektron pochta);

konfidensial axborotni kriptografik va boshqacha muhofaza qilish;

kichik (quyi) tarmoq ajratish;

domen va domen nomlari tizimini ro'yxatga olish va olib borish;

IP-adres ajratish va tutib turish;

IP-telefoniya va IP-televideniye (IPTV);

xosting xizmatlari.

Operator yoki provayder qonunchilik hujjatlariga muvofiq ma'lumotlar uzatish tarmog'ining boshqa xizmatlarini ham ko'rsatishi mumkin.

130. Wi-Fi xizmati tashkilotchisi bo'lgan abonent-yuridik shaxs tomonidan cheklangan doiradagi foydalanuvchilarga bepul yoki pullik asosda Wi-Fi xizmatlari ko'rsatishi mumkin. Foydalanuvchilarning cheklangan doirasini aniqlash shartlari Wi-Fi xizmati tashkilotchisi tomonidan belgilanadi. Wi-Fi xizmatini ko'rsatishda sessiyaning amal qilish davomiyligi 24 soatdan oshmasligi kerak.

131. Wi-Fi xizmati tashkilotchisi o'z hududida bepul Wi-Fi xizmatini tashkil etish operator yoki provayder bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq operator yoki provayderning apparat-dasturiy vositalari asosida amalga oshirilishi mumkin.

132. Wi-Fi xizmati tashkilotchisi:

operator yoki provayder bilan birgalikda, foydalanuvchilarning shaxsini identifikatsiyalash hamda foydalanilgan veb-resurslar (log-fayllar) hisobini yuritish bo'yicha apparat-texnik chora-tadbirlar ko'rishi va ularni 3 oy ichida saqlanishini tashkillashtirish;

operator yoki provayder bilan birgalikda, axborot resurslari himoya qilinishini ta'minlashga, O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat etishga, urush, zo'ravonlik va terrorizmni, shuningdek diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g'oyalarini targ'ib qilishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atuvchi axborotni, shuningdek, pornografiyani targ'ib qilishga qaratilgan axborotning va tarqatilishi qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlangan boshqa axborotning tarqatilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan choralarni ko'rishi kerak.

133. Wi-Fi xizmati abonent – yuridik shaxs tomonidan ko'rsatilgan taqdirda, abonent – yuridik shaxs va operator (provayder) o'rtasida tuziladigan shartnomada foydalanuvchilarga Wi-Fi xizmati taqdim etishi to'g'risida ma'lumot ko'rsatilishi, shuningdek foydalanuvchilar shaxsini identifikatsiyalash bo'yicha ko'riladigan choralar belgilanishi zarur.

134. Foydalanuvchilar shaxsini identifikatsiyalash mobil telefon raqami bo'yicha yoki shaxsni tasdiqlovchi hujjatdagi ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan boshqa ro'yxatdan o'tish ma'lumotlari (aviachiptalar, temir yo'l chiptalari, mehmonxonada ro'yxatdan o'tish ma'lumotlari va shu kabi boshqa ma'lumotlar), shuningdek Push-xabarlar (foydalanuvchi qurilmasi ekranida aks etuvchi qisqa xabar) orqali amalga oshirilishi mumkin.

Foydalanuvchini mobil telefon raqami bo'yicha identifikatsiyalashda, foydalanuvchining mobil telefon raqamiga SMS-xabar vositasida bir martalik parol (One Time Password – OTP) yuboriladi va foydalanuvchi autentifikatsiya qilinadi. Bunda, bir martalik parolning (One Time Password – OTP) aktivlik muddati cheklangan bo'lishi (10 daqiqadan ko'p bo'lmasligi) kerak.

135. Operator (provayder) O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi [Qonuniga](#) muvofiq abonentlarga o'zi tomonidan ko'rsatiladigan ma'lumotlar uzatish xizmatlari to'g'risida o'z vaqtida zarur, to'g'ri va tushunarli ma'lumot berishi shart.

Operator (provayder) tomonidan abonentga quyidagi ma'lumotlar taqdim etilishi zarur: operatorning (provayderning) nomi, pochta manzili, foydalanuvchilar va abonentlar bilan hamkorlik qiladigan filiallarining nomi, ular joylashgan joy, ish tartibi va aloqa telefonlari;

operatorga (provayderga) berilgan litsenziya raqami va amal qilish muddati;
ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlarini ko'rsatish tartibi va shartlari;
foydalaniladigan abonent interfeyslari va ma'lumotlar uzatish protokollari;
ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlarini ko'rsatishdagi cheklavlar;
tarif rejalari;

muayyan tarif rejasi, marketing kampaniyalari doirasida yoki tadbirlar o'tkazish davrida ma'lumotlar uzatish tarmog'idan foydalanish xizmatlarini taqdim etishda imtiyozlar yoki chegirmalar;

ma'lumotlar uzatish tarmog'idan foydalanishning bepul va pullik xizmatlari ro'yxati;

ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlariga haq to'lash muddatlari va shakllari;

abonentlarning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibi;

axborot-ma'lumot xizmatining va texnik ta'minlash xizmatining telefon raqamlari (mavjud bo'lganda);

axborot-ma'lumot berish bo'yicha xizmat ko'rsatish tizimi to'g'risidagi ma'lumotlar;

ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlarini ko'rsatish hududlarida texnik imkoniyatlari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

136. Operator (provayder) bilan abonent o'rtasida tuziladigan shartnomada quyidagi ma'lumotlar majburiy ravishda ko'rsatilishi shart:

shartnoma tuzilgan joy va sana;

operatorning (provayderning) nomi;

operatorning (provayderning) hisobvarag'i rekvizitlari;

operatorga (provayderga) berilgan litsenziya rekvizitlari;

shartnomaning amal qilish muddati;

abonent to'g'risidagi ma'lumotlar;

xizmat ko'rsatish manzili;

hisob-kitob shakli va tartibi;

tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi;

tarif rejasi, xizmatlarning narxlar;

xizmatning qaysi texnologiya bo'yicha taqdim etilishi;

shikastlanishlarni bartaraf etish muddatlari;

sifat ko'rsatkichlari (ma'lumotlar uzatishning maksimal tezligi, ma'lumotlar uzatishning minimal kafolatlangan tezligi, ma'lumotlar uzatish kechikishining maksimal vaqti);

fors-major holati;

ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati (zarur bo'lganda).

Shartnomada tomonlar o'rtasidagi kelishuvga asosan qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin.

137. Abonent operator (provayder) bilan shartnoma tuzganidan keyin operator (provayder) ulanish usuliga bog'liq holda, abonentga ulanish uchun zarur parametrlarni yetkazadi (IP-adres va boshqa adres rekvizitlari), ma'lumotlar uzatish tarmog'ida ishlash va foydalanish tartibi to'g'risida yo'l-yo'riq ko'rsatadi, foydalanuvchining zarur uskunasi (kompyuter, modem, faks) va zarur dasturiy ta'minotni tavsiya qiladi.

138. Operator (provayder) ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan axborotni abonentlarga taqdim etish maqsadida axborot-ma'lumot berish bo'yicha xizmat ko'rsatish tizimini yaratadi.

Quyidagi ma'lumotlar operator (provayder) tomonidan abonentning so'roviga muvofiq 24 soat mobaynida hech qanday cheklovlarisiz taqdim etilishi shart:

ma'lumotlar uzatish tarmog'ining ko'rsatiladigan xizmatlari to'g'risidagi;
ma'lumotlar uzatish tarmog'idan foydalanish xizmatlariga bo'lgan tariflar to'g'risidagi;
abonentga uning shaxsiy hisobvarag'ining holati va ma'lumotlar uzatish tarmog'i xizmatlaridan foydalanish haqini to'lash bo'yicha qarzdorlik to'g'risidagi, jumladan abonentga ulangan xizmatlar: ma'lumotlar uzatish vaqti, tezligi, olingan va (yoki) uzatilgan axborot hajmi, shuningdek limitlangan trafikli tariflardagi trafik qoldig'i to'g'risidagi;
texnik nosozliklar to'g'risidagi.

7-§. Jamoat foydalanish joylarida internet xizmatlarini taqdim etish

139. Jamoat foydalanish joyining internet-provayderi quyidagi xizmatlarni taqdim etishi mumkin:

- a) Internet tarmog'idan foydalana olish;
- b) Internet tarmog'iga ulanish va tarmoq resurslaridan foydalanish masalalari bo'yicha maslahatlar;
- d) jamoat foydalanish joyi internet-provayderining kompyuteridan fayllarni foydalanuvchi kompyuteriga uzatish.

Jamoat foydalanish joyining internet-provayderi tomonidan qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xizmatlar ham ko'rsatilishi mumkin.

140. Taqdim etilayotgan xizmatlar uchun tariflar jamoat foydalanish joyining internet-provayderi tomonidan mustaqil ravishda o'rnatiladi.

8-§. Mobil aloqa xizmatlarini taqdim etish

141. Abonentlarga operator (provayder) tomonidan ko'rsatiladigan mobil aloqa xizmatlarining ro'yxati operatorga tegishli bo'lgan mobil aloqa tarmog'ining texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda operator (provayder) tomonidan belgilanadi.

142. Abonentlarga ko'rsatiladigan mobil aloqa xizmatlari shartnoma shartlariga, shuningdek operatorning (provayderning) xizmatlar to'g'risidagi axborotiga muvofiq bo'lishi kerak.

143. Operator (provayder) abonentga xizmat ko'rsatish hududida mobil aloqa xizmatlaridan kechayu-kunduz foydalanish imkonini ta'minlashga majbur.

144. Operator (provayder) axborot-ma'lumot xizmati tizimiga ega bo'lishi va pullik hamda bepul axborot-ma'lumot xizmatlarini ko'rsatishga majbur.

Operator yoki provayder tarmoq ichida uning axborot-ma'lumot xizmatiga bepul qo'ng'iroqlar qilish imkonini ta'minlashi kerak.

145. Operator (provayder) pullik axborot-ma'lumot xizmatlarining ro'yxatini mustaqil ravishda belgilaydi.

146. Operator (provayder) taqdim etiladigan xizmatlar, ularni taqdim etish va mobil aloqa xizmatlaridan foydalanish tartibi, ushbu xizmatlarga tariflar, mobil aloqadan foydalanishda cheklanishlar to'g'risida abonentlarni, shuningdek mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun shartnomani tuzish istagi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarni xabardor qilishga majbur.

Xizmatlarning pullik ekanligi to'g'risida abonentlarni oldindan xabardor qilmasdan ayrim pullik xizmatlar uchun to'lov undirilgan holda ushbu xatti-harakat ko'rsatilmagan xizmatlar uchun undirilgan to'lovga tenglashtiriladi.

Abonent – jismoniy shaxsdan tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovi va resurslardan foydalanganlik uchun mablag' yechishda hisobni salbiy holatga keltirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tariflar, xizmatlarni ko'rsatish tartibi, hisob-kitoblar shakli va tartibi o'zgargan holda, operator (provayder) bu haqda ommaviy axborot vositalari orqali va operator (provayder) tomonidan tanlangan istalgan boshqa usulda abonentni xabardor qilishi lozim.

Operator tarmog'ida mobil aloqa xizmatlari ko'rsatilishining to'xtalishiga olib keladigan yirik avariya yuz berganda hamda uchinchi shaxs talabi bo'yicha ijara asosida o'rnatilgan telekommunikatsiyalar inshootlarini ko'chirish zarurati yuzaga kelganda operator (provayder) abonentlarni bu haqda, shuningdek xizmatlarni ko'rsatish tiklanishining taxminiy muddatlari to'g'risida ommaviy axborot vositalari orqali yoki operator (provayder) tomonidan tanlangan istalgan boshqa usulda xabardor qilishga majbur.

9-§. Rouming xizmatini tashkil qilish va taqdim etish

147. Mobil aloqaning milliy rouming xizmati yuridik va jismoniy shaxslar – mahalliy operatorlarning (provayderlarning) abonentlariga ular O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lganda xizmat ko'rsatuvchi operatorlarning (provayderlarning) xizmat ko'rsatish hududida mahalliy operatorning (provayderning) xizmat ko'rsatish hududining tashqarisida ular foydalanishlari uchun taqdim etiladi.

148. Mobil aloqaning xalqaro rouming xizmati yuridik va jismoniy shaxslar – mahalliy operatorlarning (provayderlarning) abonentlariga ular O'zbekiston Respublikasining hududidan tashqarida bo'lganda xorijiy operatorlar-rouming-sheriklarning xizmat ko'rsatish hududida hamda yuridik va jismoniy shaxslar – xorijiy operatorlar-rouming-sheriklarning abonentlariga ular O'zbekiston Respublikasi hududida mahalliy operatorlarning (provayderlarning) xizmat ko'rsatish hududida bo'lganda foydalanish uchun taqdim etiladi.

149. Milliy va xalqaro rouming xizmatlari, odatda avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Avtomatik roumingni tashkil qilishning imkoni bo'lmaganda "mexanik" yoki "plastik" roumingni tashkil qilishga yo'l qo'yiladi.

Aynan bitta operator tarmog'i ichida amalga oshiriladigan texnologik rouming (mobil operator tomonidan bir davlatning bir hududida qayd qilingan abonentga o'sha davlatni boshqa hududida ham telekommunikatsiyalar xizmatlari taqdim qilinishi) rouming xizmati hisoblanmaydi.

150. Avtomatik roumingni tashkil qilishda O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiyalar tarmoqlarida qabul qilingan signalizatsiya tizimlarining tegishli protokollari va spetsifikatsiyalaridan foydalanish kerak.

151. Rouming xizmatini taqdim etish mobil aloqa operatorlari (provayderlari) o'rtasida rouming to'g'risidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

152. Xalqaro roumingni tashkil qilish va taqdim etish shartnomasi O'zbekiston Respublikasi mobil aloqa operatorlari (provayderlari) va xorijiy operatorlar o'rtasida, milliy

roumingni esa O'zbekiston Respublikasi mobil aloqa operatorlari (provayderlari) o'rtasida tuziladi.

153. Mobil aloqa operatorlari (provayderlari) o'rtasida rouming to'g'risidagi shartnoma qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi va ro'yxatga olinadi.

154. Rouming taqdim etish uchun rouming to'g'risidagi shartnomaning amal qilish muddati operator (provayder) litsenziyasining amal qilish muddatidan oshmasligi kerak.

155. Mahalliy operator (provayder) va xorijiy operator o'rtasidagi rouming to'g'risidagi shartnoma xalqaro huquq normalariga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuziladi.

156. Mahalliy operator (provayder) mobil aloqa xizmatlarini taqdim etish uchun abonent bilan shartnoma tuzayotganda roumingni taqdim etish shartlari to'g'risida uni xabardor qilishi kerak.

157. Xizmat ko'rsatuvchi operator abonentga uning mahalliy operator (provayder) bilan shartnoma munosabatlarida belgilangan xizmatlar ro'yxatini taqdim etishga majbur.

158. Mahalliy operator (provayder) roumer haqiqiylikini identifikatsiyalamasdan xizmat ko'rsatuvchi operator tomonidan rouming taqdim etilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

159. Rouming xizmati uchun abonent tomonidan mahalliy operatorga (provayderga) haq to'lash ular o'rtasida tuzilgan mobil aloqa xizmatlarini taqdim etish shartnomasining shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

160. Milliy rouming xizmatlarini taqdim etishda mahalliy operatorlar (provayderlar) o'rtasida yuzaga kelgan nizolar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq sud tomonidan hal qilinadi.

161. Xalqaro rouming xizmatini taqdim etishda mahalliy operator (provayder) va xorijiy operator (yoki tizim hosil qiluvchi rouming-sherik) o'rtasida yuzaga kelgan nizolar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari va xalqaro huquq normalariga muvofiq hal qilinadi.

162. Mahalliy va xizmat ko'rsatuvchi operatorlar (provayderlar) roumingni tashkil qilishda axborot xavfsizligini ta'minlash talablariga rioya qilishlari shart.

163. Roumer-tashrif buyuruvchilarning foydalanuvchi qurilmalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

10-§. Mobil aloqa tarmoqlarida abonent raqamlarini ko'chirish xizmatini taqdim etish

164. Abonent uchun abonent raqamini ko'chirish xizmati mobil aloqa operatorlari (provayderlari) tomonidan taqdim etiladi.

165. Abonent raqamini ko'chirish abonentga 30 kun mobaynida ko'pi bilan bir marta taqdim etiladi.

166. Ko'chiriladigan raqamlar sifatida faqat mobil aloqa operatorlari (provayderlari) uchun ajratilgan raqamlar qo'llanilishi mumkin.

Raqamni ko'chirish oqibatida raqamni terish formatining o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

167. Qo'zg'almas telefon aloqasi tarmoqlarida ishlatilayotgan abonent raqamlarini, shu jumladan mobil aloqa tarmoqlariga va aksincha ko'chirilishi taqiqlanadi, shuningdek yuridik shaxslarning abonent raqamlari donordan retsipiyentga faqat barchasi ko'chirilayotganda yo'l qo'yiladi.

168. KRMB operatori abonent raqami ko'chirilishini ta'minlash uchun mobil aloqa operatorlari (provayderlari) tomonidan taqdim etiladigan axborotni yig'ish, uni qayta ishlash, saqlash va uzatish jarayonlarini avtomatlashtiradi va muvofiqlashtiradi.

169. Abonent raqamlarini ko'chirish, ko'chirilgan abonent raqamlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zgartirish, abonent raqamini ko'chirish xizmatini to'xtatib turish va ko'chirilgan abonent raqamini birlamchi operatorga qaytarish jarayoniga tegishli axborot bilan almashish KRMB operatori orqali amalga oshiriladi.

170. KRMBni shakllantirish, yuritish, ishlashi va texnik kuzatuv, shu jumladan undagi axborot va ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, uzatish, shuningdek KRMBdan foydalana olish imkoniyatini taqdim etish O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi [Qonuni](#) talablariga rioya qilgan holda KRMB operatori tomonidan ta'minlanadi.

171. Abonent raqamini ko'chirish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar mobil aloqa operatorlari (provayderlari) tomonidan KRMB operatoriga va aksincha O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi [Qonuni](#) talablariga rioya qilgan holda taqdim etiladi.

172. Mobil aloqa tarmoqlari operatorlarining (provayderlarining) KRMBdan foydalanishi KRMB operatori va mobil aloqa tarmoqlari operatorlari (provayderlari) o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

173. KRMBda quyidagi axborotlar saqlanadi va (yoki) qayta ishlanadi:

mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha boshqa mobil aloqa operatorlari (provayderlari) bilan yangi shartnomalarni tuzish vaqtida abonentlarda saqlanadigan ko'chirilgan abonent raqamlari to'g'risida;

abonent raqamini ko'chirish sanasi va vaqti to'g'risida;

raqamlash resursining mobil aloqa operatoriga (provayderiga) tegishliligini ko'rsatib, belgilangan tartibda mobil aloqa operatorlariga (provayderlariga) ajratilgan raqamlash to'g'risida.

174. KRMB ishlashini va texnik kuzatuvini ta'minlash maqsadida KRMB operatori quyidagi tadbirlarni amalga oshiradi:

a) KRMB kechayu-kunduz ishlashini ta'minlash;

b) mobil aloqa operatorlari (provayderlari)dan kelib tushadigan ko'chirilgan abonent raqamlari to'g'risidagi va raqamni to'g'ri ko'chirishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni yig'ish, saqlash va qayta ishlash;

d) KRMBdagi axborot muhofazasini ta'minlash;

e) abonent raqamini ko'chirish va to'g'ri marshrutlashni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, KRMBda mavjud bo'lgan axborotdan aloqa operatorlarining foydalana olish imkoniyatlarini taqdim etish.

175. KRMBdagi axborotni muhofaza qilish, shuningdek undan foydalana olish qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilgan holda ta'minlanadi.

176. Mobil aloqa tarmoqlarida abonent raqamini ko'chirish uchun talabnoma (bundan buyon matnda talabnoma deb yuritiladi) abonentdan quyidagi tartibda qabul qilinadi:

a) abonent retsipiyentning ofisida mijozlarga xizmat ko'rsatish punktida shaxsini tasdiqlovchi hujjatini taqdim etgan holda;

b) abonent shaxsini tasdiqlovchi hujjatdagi ma'lumotlari kiritgan holda retsipiyentning rasmiy veb-saytida elektron ko'rinishda;

d) abonent shaxsini tasdiqlovchi hujjatdagi ma'lumotlarni mobil ilova orqali elektron ko'rinishda.

e) Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali.

Donor bilan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma tuzilgan paytdan boshlab abonentda uning shaxsiy ma'lumotlarida o'zgarishlar (donor bilan shartnoma tuzish vaqtida foydalanilgan shaxsni tasdiqlovchi hujjatlari almashganda) yuz bergan holda, talabnomani berishdan oldin donor bilan tuzilgan shartnomaga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi kerak.

177. Retsipiyentning ofisida mijozlarga xizmat ko'rsatish punktida mobil aloqa tarmoqlarida abonent raqamlarini ko'chirish abonentdan olingan talabnoma asosida 20 daqiqadan ko'p bo'lmagan vaqt davomida mobil aloqa operatori (provayderi) tomonidan ta'minlanadi.

178. Retsipiyent:

abonentdan talabnoma qabul qiladi;

talabnoma to'g'ri to'ldirilganligini tekshiradi, uni ro'yxatga oladi va KRMBga so'rov yuboradi yoki KRMB tomonidan talabnomani mobil ilova orqali olinganligini tasdiqlaydi;

abonent bilan yangi shartnoma tuzadi va retsipiyentga biriktirilgan hamda abonent tomonidan talabnomada ko'rsatilgan tarif rejasiga ulangan ushbu abonent nomiga rasmiylashtirilgan yangi SIM kartani beradi.

Elektron ro'yxatdan o'tgandan keyin abonent SIM-kartani olish va shartnomani imzolash uchun operator (provayder) ofisiga kelishi kerakligi to'g'risida xabardor qilinadi. Agar retsipiyent abonentga eSIMni qo'llab-quvvatlaydigan qurilmalar uchun xizmatlarni taqdim etsa, operator (provayder) shartnomani masofadan tuzish imkoniyati bilan aktiv eSIMga raqam ko'chirilishini taklif qilishi mumkin.

179. Abonent raqamini ko'chirish rad etilganda abonent unga berilgan SIM-karta orqali retsipiyentning aloqa xizmatlaridan foydalanishni davom ettirishi mumkin.

Bunda, aynan shu retsipiyentga abonent raqamini ko'chirish uchun talabnoma takroran berilganda aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida yangi shartnomani tuzish talab etilmaydi.

180. Retsipiyentdan abonent raqamini ko'chirish to'g'risida KRMBga berilgan so'rovda quyidagi ma'lumotlar bo'ladi:

a) jismoniy shaxslar uchun:

abonentning ma'lumotlari (shaxsni tasdiqlovchi hujjat seriyasi, raqami, sanasi, JSHSHIR va berilgan organi);

abonent raqami;

b) yuridik shaxslar uchun:

tashkilotning STIR;

abonent raqamlarining ro'yxati;

Bunda, agar abonent raqamlaridan bittasini bo'lsa ham ko'chirish rad etilgan bo'lsa, u holda so'rov ro'yxatda aks ettirilgan barcha abonent raqamlari bo'yicha to'liq rad etilgan hisoblanadi.

181. KRMB operatori retsipiyentdan abonent raqamini ko'chirish so'rovini olganda quyidagi shartlarga rioya qilinganlik holatini tekshiradi:

KRMBda retsipiyent tomonidan mobil aloqa tarmoqlarida abonent raqamini ko'chirish uchun so'rovning to'g'ri to'ldirilganligini.

Bunda, so'rovning to'g'ri to'ldirilganligi uning talabnoma talablariga muvofiq ravishda to'liq, aniq va xatosiz rasmiylashtirilganligi bilan belgilanadi. Mazkur shart bajarilmagan taqdirda, KRMB operatori retsipiyentni xabardor qilgan holda talabnomani rad etadi. Retseptiyent aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etgach, KRMB operatoriga yangi so'rovni yuboradi;

abonent raqamini ko'chirish imkoniyatini tasdiqlash – oxirgi ko'chirilgan paytdan boshlab kamida 30 kalendar kuni o'tganligi, bundan xato ko'chirilgan holatlar mustasno;

abonent raqamini ko'chirish uchun aktiv talabnomalar yo'qligi.

Ushbu bandning uchinchi va to'rtinchi xatboshilaridagi shartlar bajarilmagan holda KRMB operatori retseptiyentga abonent raqamini ko'chirish rad etilganligi to'g'risida xabar qiladi, bu haqda retseptiyentga SMS xabarni yuborish orqali, rad etish sababini ko'rsatgan holda abonentni xabardor qiladi.

182. Retseptiyentdan abonent raqamini ko'chirish to'g'risidagi so'rov qabul qilinganda KRMB operatori donorga abonent raqamini ko'chirish to'g'risidagi so'rovni yuborib, retseptiyentga keyin ko'rib chiqish uchun talabnoma qabul qilinganligi to'g'risida xabar qiladi.

183. Donor KRMB operatoridan abonent raqamini ko'chirish so'rovini olganda quyidagi shartlarga rioya qilinganligini tekshiradi:

abonent shaxsiy ma'lumotlarining ishonchliligini.

Bunda, ishonchlilik KRMBdan so'rovda kelib tushgan shaxsiy ma'lumotlarning donor va abonent o'rtasidagi mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan mosligi bilan aniqlanadi;

donor bilan tuzilgan aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha donor tomonidan tekshirish paytida abonent qarzlarining yo'qligi, rouming xizmatlaridan tashqari;

abonentda donor oldidagi shartnoma bo'yicha majburiyatlarining yo'qligi.

Bunda, mazkur bandning uchinchi va to'rtinchi xatboshilaridagi shartlar bajarilmagan holda KRMB operatori retseptiyentga abonent raqamini ko'chirish rad etilganligi to'g'risida xabar qiladi, bu haqda retseptiyentga SMS xabarni yuborish orqali, rad etish sababini ko'rsatgan holda abonentni xabardor qiladi.

184. Donor tomonidan talabnomani ko'rib chiqish muddati KRMB operatoridan so'rovni olgan paytdan boshlab hisoblanadi va 10 daqiqadan ko'p bo'lmagan vaqtni tashkil qiladi.

Bunda, ko'rib chiqish ajratilgan muddatdan oshib ketganda KRMB avtomatik ravishda retsipiyent va donorga abonent raqami ko'chirilishi to'g'risida xabar qiladi, KRMB talabnomani o'z vaqtida tasdiqlamagan donor tomonidan buzilishga yo'l qo'yilganligini qayd qiladi.

Retsipiyent donor tomonidan abonent raqamini ko'chirilishiga ruxsat berilganidan so'ng, abonentga mobil aloqa xizmatlarini aktivatsiya qiladi.

185. Donor tomonidan KRMB operatoriga abonent raqamini ko'chirish mumkinligini tasdiqlash mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomani bekor qilish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

186. Donordan abonent raqamini ko'chirish imkoniyati to'g'risida bildirishnomani olgandan keyin KRMB operatori retsipiyent va donorga abonent raqamini texnik ko'chirish boshlanishi to'g'risida xabar qiladi, retsipiyent esa, o'z navbatida, bu haqda SMS-xabarni yuborib abonentni xabardor qiladi.

187. KRMB operatoridan abonent raqamini texnik ko'chirishni boshlash to'g'risidagi xabarni olgandan keyin:

retsipiyent abonent raqamini o'z ma'lumotlar bazasiga kiritish, shu jumladan billing tizimlari va abonentlarni identifikatsiyalash ma'lumotlar bazasiga kiritish zarur xatti-harakatlarni bajaradi, shuningdek SIM-kartadagi vaqtincha raqamni talabnomada abonent tomonidan ko'chiriladigan sifatida ko'rsatilgan raqamga almashtiradi va KRMB operatoriga abonent raqamini o'z tarmog'ida ro'yxatga olish ishlari tugallanganligi to'g'risida xabar qiladi;

donor abonent raqamini o'z billing tizimidan chiqarish bo'yicha kerakli ishlarni bajaradi va abonent deaktivatsiya qilinganligi to'g'risida KRMB operatoriga xabar qiladi.

188. KRMB operatori donordan raqam deaktivatsiya qilinganligi to'g'risida va retsipiyentdan abonent raqami ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi xabarlarni olgandan keyin abonent raqami ko'chirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni KRMBga kiritadi hamda barcha operatorlarni (provayderlarni) ko'chirilgan abonent raqami bo'yicha marshrutlashni o'zgartirish zarurligi to'g'risida xabardor qiladi.

Ajratilgan muddatdan oshib ketgan holda KRMB marshrutlash o'zgarganligini o'z vaqtida tasdiqlamagan operator (provayder) tomonidan buzilishga yo'l qo'yilganligini qayd qiladi. Buzilish to'g'risidagi bunday axborot keyinchalik nazorat qiluvchi vakolatli organi xabardor qilish uchun KRMB bazasida ro'yxatga olinadi.

189. Operatorlar (provayderlar) KRMBdan operatoridan xabarni olgandan keyin ko'chirilgan abonent raqami bo'yicha marshrutlashga o'zgartirishlar kiritadilar va o'z tarmoqlarida ishlar tugatilganligi to'g'risida KRMB operatoriga tasdiq yuboradilar.

190. KRMB operatori ko'chirilgan abonent raqami bo'yicha marshrutlash o'zgarganligi to'g'risida operatorlardan (provayderlardan) tasdiqni olganlaridan keyin yoki bu operatsiya uchun ajratilgan muddat oshib ketgan holda barcha operatorlarga (provayderlarga) abonent raqamini ko'chirish muvaffaqiyatli tugallanganligi to'g'risida xabar yuboradi. Ajratilgan muddat oshib ketgan holda KRMB marshrutlash o'zgarganligini o'z vaqtida tasdiqlamagan operator (provayder) tomonidan buzilishga yo'l qo'yilganligini qayd qiladi. Buzilish to'g'risidagi bunday axborot keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar

vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha inspeksiyasini xabardor qilish uchun KRMBda ro'yxatga olinadi.

191. Retsipiyent KRMB operatoridan abonent raqamini ko'chirish muvaffaqiyatli tugallanganligi to'g'risidagi xabarni olgandan keyin bu haqda ko'chirilgan raqamli SIM kartaga SMS-xabarni yuborish orqali abonentni xabardor qiladi.

192. Donor tomonidan abonent raqamining ko'chirilishi to'g'risida so'rov tasdiqlanguncha abonent abonent raqamini ko'chirish xizmatlarini rad etishi mumkin.

193. Avval bir operatoridan (provayderdan) boshqa operatorga (provayderga) ko'chirilgan abonent raqamini ko'chirish jarayoni abonentning talabnomasi bo'yicha mazkur Qoidalarining 182– 194-bandlarida ko'rsatilgan ketma-ketlikda bajariladi.

194. KRMB operatori orqali abonent raqamini ko'chirish protseduralari bilan bog'liq barcha xatti-harakatlar so'rov olinganligini majburiy sinxron tasdiqlagan holda bajariladi.

195. Aloqa tarmoqlarida ko'chirilgan abonent raqamlari uchun ulanishlarning marshrutlanishini ta'minlash uchun quyidagi texnologiyalar qo'llaniladi:

a) mobil aloqa tarmoqlaridan chaqiruvni boshlab berishda ko'chirilgan raqamlarning lokal bazasidan foydalangan holda "All Call Query";

b) qayd qilingan aloqa tarmoqlaridan chaqiruvni boshlab berishda "All Call Query" yoki "Onward Routing".

196. Operator (provayder) quyidagilarni ta'minlaydi:

ko'chirilgan abonent raqamlariga o'z tarmog'idan ulanishlarni to'g'ri marshrutlashni ta'minlash uchun zarur bo'lgan ko'chirilgan raqamlarning lokal bazasini shakllantirish, uning ishlashi va texnik kuzatish;

KRMB operatoriga talabnomada abonent tomonidan ko'rsatilgan abonent raqamlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish;

ko'chirilgan abonent raqamlarini o'zining raqamlash resursiga kiritish va mazkur Qoidalarida belgilangan tartibda tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatida mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish;

o'zining axborot tizimlarida abonentlarga berilgan abonent raqamlari hamda ko'chirilgan va qabul qilingan abonent raqamlari to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligini va aktualligini;

donor tomonidan boshqa operatorning tarmog'iga ko'chirilishi kerak bo'lgan raqamning berilishi;

abonent raqamini ko'chirish va ko'chirilgan abonent raqami bo'yicha o'z tarmoqlarida xizmatlarni lozim darajada ko'rsatish uchun o'z tarmoqlarini texnik jihatdan tayyorlash;

foydalanilayotgan texnologiya, taqdim etilayotgan mobil aloqa xizmatining turi, abonent tomonidan aloqa xizmatlariga haq to'lash usulidan qat'i nazar mobil aloqa tarmoqlarida abonent raqamlarini ko'chirish;

aholiga mobil aloqa tarmoqlarida abonent raqamlarini ko'chirish shartlari to'g'risidagi axborotni taqdim etish;

raqamni ko'chirish mumkinligini oldindan tekshirish xizmatini ko'rsatish uchun shart-sharoit yaratish va abonentga tekshiruv natijalari hamda rad etilganda sabablari ko'rsatilgan holda asoslangan rad javobini berish;

belgilangan muddatlarda retsipiyent va abonent o'rtasida shartnoma bekor qilinganda ko'chirilgan abonent raqamini birlamchi operatorga qaytarish, bundan abonent raqamini ko'chirish bilan bog'liq shartnomani bekor qilish holatlari bundan mustasno.

197. KRMB operatori quyidagilarni ta'minlaydi:

KRMBni shakllantirish va texnik kuzatish hamda operatorlar (provayderlar) tomonidan abonent raqamlarini ko'chirish uchun uning resurslaridan foydalana olish imkonini yaratish;

abonent raqamlarini ko'chirish jarayonida yuzaga keladigan masalalar bo'yicha operatorlar (provayderlar) o'rtasida o'zaro ishlashni tashkil etish;

KRMBning ko'chirilgan abonent raqamlari to'g'risidagi axborotni aktuallashtirish (ma'lumotlarni sinxronlash) uchun KRMBga ulangan operatorlarning (provayderlarning) ko'chirilgan raqamlarning lokal bazasi bilan o'zaro ishlashi;

ko'chirilgan abonent raqamlari to'g'risidagi axborotni KRMBga kiritish (abonent raqamlarini ko'chirish jarayonida axborotni yangilash);

KRMBda saqlanayotgan ma'lumotlarni ruxsatsiz foydalana olishdan himoyalash; operatorlarni (provayderlarni) ko'chirilgan abonent raqamiga xizmat ko'rsatuvchi mobil aloqa operatorining (provayderining) almashganligi to'g'risida xabardor qilish.

198. Abonent raqamlarini ko'chirish jarayonida yuzaga keladigan retsipiyent va donorning o'zaro ishlashlari faqat KRMB operatori orqali amalga oshiriladi.

199. KRMBda abonent raqamlarini ko'chirish jarayoni, shu jumladan axborot almashish jarayoni avtomatlashtirilgan rejimda amalga oshiriladi.

200. Mobil aloqa operatorlari (provayderlari) o'z tarmoqlarida abonent raqamining ko'chirilishini ta'minlash bo'yicha barcha xarajatlarini, shu jumladan KRMBga ulanish va abonentlarga ko'chirish jarayonlarida ko'zda tutilgan SMSlarni jo'natish uchun aloqa kanallarini ijaraga olish xarajatlarini o'z hisoblaridan amalga oshiradilar.

201. Mobil aloqa operatorlari (provayderlari) tomonidan abonent raqamlaridan, shu jumladan ko'chirilgan abonent raqamlaridan foydalanganlik uchun to'lov abonentga mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi operator (provayder) tomonidan amalga oshiriladi.

Abonent raqamini ko'chirish xizmati uchun abonent tomonidan to'lanadigan haq miqdori retsipiyent tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

202. Abonent tomonidan abonent raqamini ko'chirish xizmati uchun to'lanadigan haq bir martalik hisoblanadi va mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomani tuzishda retsipiyentga to'lanadi.

203. Operator (provayder) va KRMB operatorining o'zaro ishlashi va o'zaro hisob-kitoblari jarayoni operator (provayder) va KRMB operatori o'rtasida tuzilgan shartnoma bilan belgilanadi.

204. Mobil aloqa tarmoqlarida abonent raqami ko'chirilganda abonentning shaxsiy hisob raqamida sarflanmagan pul mablag'lari mavjud bo'lganda, ushbu mablag'larni qaytarish mazkur Qoidalarga va donor bilan tuzilgan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasiga muvofiq donor tomonidan amalga oshiriladi.

Telefon aloqa tarmoqlaridan chaqiruv boshlanganida "Onward Routing" xizmatlari taqdim etilganligi uchun telefon va mobil aloqa tarmoqlarining operatorlari (provayderlari)

o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar ushbu operatorlar (provayderlar) o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlari bilan belgilanadi.

205. Abonentning donor oldida ko'chirilgan raqam bo'yicha ko'rsatilgan rouming xizmatlari uchun qarzдорligi mavjud bo'lganda donor abonent raqami retsipiyent tarmog'iga ko'chirilgan sanadan boshlab 30 kun davomida ko'rsatilgan rouming xizmatlariga haq to'lash uchun hisobni taqdim etish huquqiga ega.

Bunda, donor KRMB operatori orqali abonent raqamini, qarzдорlik summasini va qarzдорlikni to'lash muddatini ko'rsatgan holda retsipiyentga so'rov yuboradi. Qarzдорlikni bartaraf etish (to'lash) muddati 7 ish kunidan oshmasligi kerak.

KRMB operatori donorning ko'chirilgan abonent raqamining qarzдорligi to'g'risida retsipiyent yuborilgan so'rovini olganda, so'rovning 30 kun davomida taqdim etilganligi tekshiriladi, agar so'rov ushbu muddatga rioya qilingan holda yuborilganda KRMB operatori donorning so'rovini tasdiqlab va retsipiyentga abonent tomonidan qarzдорlikni to'lash zarurligi to'g'risida xabar yuboradi, agar so'rov ushbu muddatda taqdim etilmaganligi aniqlanganda, KRMB operatori donorga so'rovning rad etilishi haqida xabar yuboradi.

Retsipiyent KRMB operatoridan ko'chirilgan abonent raqami bo'yicha abonent tomonidan qarzдорlikni to'lash to'g'risidagi xabarnomani olgan paytdan boshlab 15 daqiqa ichida quyidagilar haqida xabardor qiladi:

abonentning donor oldidagi qarzдорligini to'lash zarurligi to'g'risida SMS-xabarnomani jo'natish yo'li bilan;

abonentni xabardor qilish vaqti to'g'risida KRMB operatorini.

KRMB operatori retsipiyent tomonidan abonent xabardor qilingan paytdan boshlab abonentning qarzдорligini to'lash uchun belgilangan vaqtni hisoblash boshlanganligini KRMBda qayd qiladi va bu haqda donorni xabardor qiladi.

Abonent tomonidan qarzдорlikni bartaraf etish to'g'risida retsipiyentdan xabarnoma olingan vaqtdan boshlab 7 ish kuni davomida qarzдорlik bartaraf etilmagan (to'lanmagan) taqdirda, donor KRMB operatoriga retsipiyent tomonidan abonent uchun aloqa xizmatlarini blokirovka qilish so'rovini yuboradi.

Retsipiyent abonent donor oldidagi qarzдорligini to'liq to'laguniga qadar KRMB operatoridan xabarnomani olgan paytdan boshlab abonentga xizmatlar ko'rsatishni to'xtatadi. Bunda, retsipiyent abonentga qarzдорlikni to'lash zarurligi to'g'risida SMS xabarni yuboradi.

Abonent qarzдорligini bartaraf etganda (to'laganda), donor 15 daqiqa ichida KRMB operatoriga qarzдорlik to'langanligi va abonent raqami blokirovkadan chiqarilganligi to'g'risida xabar yuboradi, bu haqda KRMB operatori retsipiyentga xabar qiladi.

206. Retsipiyent bilan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi bekor qilinganda, ko'chirilgan abonent raqami bir ish kuni ichida birlamchi operatorga qaytarilishi kerak.

Bunda, retsipiyent tomonidan KRMB operatoriga abonent raqamini birlamchi operatorga qaytarish to'g'risidagi so'rov (bundan buyon matnda so'rov deb yuritiladi) yuboriladi.

207. KRMB operatori quyidagi hollarda abonent raqamini qaytaradi:

raqam retsipiyentga tegishli bo'lganda;

raqamni ko'chirish aktiv jarayoni bo'lganda yoki bo'lmaganda;

raqamni qaytarish so'rovining formati to'g'ri to'ldirilganda.

208. So'rov tasdiqlaganda KRMB operatori retsipiyentga va birlamchi operatorga raqamni qaytarish to'g'risida xabarnoma yuboradi, bunda parallel ravishda operatorlarni (provayderlarni) tarmoqda konfiguratsiyaning o'zgarishi va marshrutlashni o'zgartirish zarurligi to'g'risida xabardor qiladi.

209. Birlamchi operator KRMB operatori orqali retsipiyentni qaytarilgan abonent raqami olinganligi to'g'risida xabardor qiladi.

210. Abonent raqami xato ko'chirilganda retsipiyent KRMB operatoriga aniqlangan xato va abonent raqamining qaytarilishi to'g'risida xabar yuboradi.

211. KRMB operatori abonent raqamini qaytarish mumkinligini, abonent raqamining donorga tegishliligini, aktiv ko'chirish jarayoni borligini tekshiradi. Tekshiruv muvaffaqiyatli o'tganda, KRMB operatori retsipiyentga abonent raqamini qaytarish va donorga xato raqamni qaytarish to'g'risida xabar yuboradi.

Abonent raqamini xato ko'chirishni qaytarish so'rovida xatoliklar aniqlanganda KRMB operatori retsipiyentga abonent raqami xato ko'chirilganligini qaytarishni rad etish to'g'risida xabar yuboradi.

Retsipiyent xatolarni bartaraf etadi va KRMB operatoriga qayta so'rovni yuboradi.

212. Donor KRMB operatoridan xato ko'chirilgan abonent raqami qaytarilganligi to'g'risidagi xabarni olib, so'rovni tekshiradi.

213. Abonent raqami xato ko'chirilganligi aniqlangan holda, bunday abonent raqamini qaytarish jarayoni abonentning yozma arizasi yoki donorning axborot-ma'lumot xizmatiga murojaati asosida donor tomonidan boshlab beriladi. Bunda, abonentning aybi bilan bo'lmagan xato ko'chirilgan abonent raqamini qaytarish uchun to'lov undirilmaydi.

214. Donor KRMB operatoriga xato ko'chirilgan abonent raqamini qaytarish to'g'risidagi so'rovni yuboradi.

215. KRMB operatori xato ko'chirilgan abonent raqamini qaytarish so'rovini olganda uni abonent raqamini ko'chirish mumkinligi yuzasidan tekshiradi, bu jarayon quyidagilardan iborat:

abonent ma'lumotlarini to'ldirish;

ushbu abonent raqamini ko'chirish uchun aktiv talabnomalarning borligi.

216. Tekshiruv muvaffaqiyatli bo'lgan holda KRMB operatori donorga so'rovni olganligini tasdiqlaydi va uni xato ko'chirilgan abonent raqami bo'lgan mobil aloqa operatoriga (provayderiga) yuboradi.

217. Xato ko'chirilgan abonent raqamini qaytarish so'rovida xatoliklar aniqlanganda KRMB operatori donorga sababini ko'rsatgan holda xato ko'chirilgan abonent raqamining qaytarilishi rad etilganligi to'g'risida xabar yuboradi.

218. Mobil aloqa operatori (provayderi) KRMB operatoridan xato ko'chirilgan abonent raqami qaytarilganligi to'g'risidagi xabarni olib, so'rovni tekshiradi. Tekshiruv natijalari bo'yicha xato ko'chirilgan abonent raqami bo'lgan mobil aloqa operatori (provayderi) KRMB operatoriga xato ko'chirilgan abonent raqamini qaytarish boshlanganligini yoki u rad etilganligini tasdiqlaydi.

Bunda, mobil aloqa xizmatlari uchun yuzaga kelgan abonentning qarzдорligi retsipiyent tomonidan qoplanadi.

219. Agar xato ko'chirilgan abonent raqami bo'lgan mobil aloqa operatori (provayderi) 1 daqiqa ichida xato ko'chirilgan abonent raqamini qaytarish yoki rad etish tasdiqlanganligi to'g'risida KRMB operatorini xabardor qilmasa, KRMB operatori donorga xato ko'chirilgan abonent raqami qaytarilganligini tasdiqlash to'g'risida avtomatik ravishda xabar qiladi.

220. Donor KRMB operatoridan xato ko'chirilgan abonent raqami qaytarilganligi to'g'risida xabar olgan paytdan boshlab 1 daqiqa ichida abonentga xizmatni aktivatsiya qiladi. Xizmatlar muvaffaqiyatli aktivatsiya qilingandan keyin donor KRMB operatoriga abonent raqami aktivatsiya qilinganligini tasdiqlaydi.

221. KRMB operatori xato ko'chirilgan abonent raqami bo'lgan mobil aloqa operatoriga (provayderiga) abonent raqami muvaffaqiyatli aktivatsiya qilinganligi to'g'risida va operatorlarga – tarmoqdagi marshrut raqami (routing number, RN) o'zgarganligi to'g'risida xabar yuboradi.

Bunda, xato ko'chirilgan abonent raqami bo'lgan mobil aloqa operatori (provayderi) 1 daqiqa ichida abonent raqamini deaktivatsiya qiladi.

222. Operator (provayder) KRMB operatoridan xabar olgan paytdan boshlab 1 daqiqadan kechiktirmay ko'chirilgan abonent raqami bo'yicha marshrutlashga o'zgartirishlar kiritadi va KRMB operatoridan xabarni olgan paytdan boshlab 10 daqiqadan kechiktirmay KRMB operatoriga o'z tarmog'ida marshrutlash o'zgarganligini tasdiqlaydi.

223. Xizmatlar, tarif rejasi, xato ko'chirilgan abonent raqami balansi xato ko'chirish paytidagi holatgacha donor tomonidan tiklanadi.

11-§. Televideniye xizmatlarini tashkil qilish va taqdim etish

224. Eshittiruvchi, operator, provayder televideniye xizmatlari faoliyatini litsenziya asosida amalga oshiradi.

225. Eshittiruvchi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishi shart, bundan teleradio dasturlariga va signallariga ishlov bermasdan, retranslyatsiya qiluvchilar mustasno.

226. Eshittiruvchi dasturlarini tarqatish (translyatsiya, retranslyatsiya qilish) va sotish, shuningdek olingan dasturlarni tarqatish (translyatsiya, retranslyatsiya qilish) va sotish faoliyatini xususiy yoki alohida mualliflik shartnomalari asosida amalga oshiradi.

227. Televideniye tarmoqlari orqali qonunchilik bilan taqiqlangan ma'lumotlarni tarqatishga yo'l qo'yilmaydi. Reklama va e'lonlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tarqatiladi.

228. Eshittiruvchi, operator, provayder tomonidan ko'rsatiladigan televideniye xizmatlarining turlari va ro'yxati televideniye tarmog'ining texnik imkoniyatlari, yer usti va yo'ldosh efir eshittirish dasturlari signallarini qabul qilish shartlari va abonentlar ehtiyojlariga asosan belgilanadi.

229. Quyidagilar televideniye yordamchi xizmatlari hisoblanadi:

foydalanuvchi qurilmasini ulash sxemasini o'zgartirish, yangi elementlarni montaj qilish va ulash;

abonent tarmog'i yoki qurilmasini abonentning talabnomasiga ko'ra vaqtinchalik o'chirish va qaytadan ulash;

abonent liniyalari (abonent tarmog'i), abonent rozetkalari, abonent antenasi va abonent kabellarini almashtirish, montaj qilish, ulash (o'chirish);

abonent liniyasi (abonent tarmog'i), abonent rozetkalari, kabellari va uskunasi ta'mirlash, sozlash va unga texnik xizmat ko'rsatish;

foydalanuvchi qurilmasini sozlash ishlari xizmat ko'rsatuvchi tomonidan tarqatilayotgan signal parametrlariga o'zgartirishlar kiritilishi natijasida sodir bo'lishi bundan mustasno.

230. Yordamchi xizmatlar televideniye xizmatlarini ko'rsatish uchun tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ham ko'rsatilishi mumkin. Ushbu xizmatlarning narxi televideniye xizmatlariga tariflarni aniqlashda hisobga olinadi.

231. Televideniye xizmatlari televideniye tarmoqlari eshittiruvchilari (operatorlari, provayderlari) abonentlar bilan yozma yoki elektron shaklda tuziladigan shartnomalar asosida ko'rsatiladi.

232. Televideniye xizmatlarini ko'rsatish quyidagi hollarda to'xtatib turiladi:

televideniye dasturlari, radiodasturlar yoki telekommunikatsiyalarning boshqa xabarlarini signallarini operatorga (provayderga) bog'liq bo'lmagan sababga ko'ra televideniye tarmog'ining kirishiga berish, jumladan dasturlarni efir orqali translyatsiya qilish to'xtatilganda;

televideniye tarmog'ida rejali profilaktika yoki ta'mirlash ishlarini bajarish vaqtida yoki foydalanuvchi qurilmasiga elektr energiyasining berilishi to'xtatilganda;

televideniye tarmog'i orqali odamlarning dengizdagi, yerdagi, havodagi, kosmik fazodagi xavfsizligiga, mudofaa, xavfsizlik va huquq-tartibotni saqlash sohasidagi kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlarni o'tkazishga taalluqli barcha xabarlarga, shuningdek yirik avariya, falokatlar, epidemiyalar, yong'inlar va boshqa favqulodda vaziyatlar haqidagi xabarlar [tarqatilayotganda](#).

233. Televideniye xizmatlari abonent xonalaridagi parametrlar soz holatda ishlaydigan abonent tarmog'i va foydalanuvchi qurilmasi mavjud bo'lganda ko'rsatiladi.

234. Televideniye xizmatlarining ko'rsatilishi odamlarning sog'lig'i yoki xavfsizligiga tahdid solsa, xizmatlar ko'rsatish rad etilishi mumkin. Abonentga televideniye xizmatlari ko'rsatishning rad etish sabablari operator (provayder) tomonidan asoslab berilishi kerak.

12-§. Televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish hamda tarqatish xizmatlarini ko'rsatish

235. Televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish texnik vositalaridan foydalanuvchi yuridik shaxs (bundan buyon matnda ijrochi deb yuritiladi) boshqa yuridik shaxslarga (bundan buyon matnda buyurtmachilar deb yuritiladi) mazkur texnik vositalarda tashkil etilgan kanallarni taqdim etish orqali televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlarini ko'rsatishi mumkin.

236. Buyurtmachi ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma hamda mazkur faoliyat turiga litsenziya olguniga qadar ijrochiga u bilan televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlarini ko'rsatish

uchun shartnoma tuzishning boshlang'ich shartlarini bilish maqsadida murojaat qilishi mumkin.

237. Ijrochi buyurtmachining murojaatini olgandan so'ng 30 kun ichida unga shartnoma tuzishga roziligini yoki shartnomani boshqacha shartlarda tuzishni, buyurtmachi litsenziya olishi uchun zarur bo'lgan unga ajratilayotgan telekommunikatsiyalar vositalarining texnik ko'rsatkichlarini keltirgan holda javobni yoki asoslangan rad javobini yuboradi.

238. Buyurtmachi qonunchilik hujjatlari asosida faqat ikki tomonlama shartnomani rasmiylashtirganidan so'ng televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlarini olishi mumkin.

239. Shartnoma tomonlarning biri shartnoma tuzishga taklif yuborishi va ikkinchi tomon taklifni qabul qilishi orqali tuziladi. Buyurtmachida belgilangan tartibda olingan ommaviy axborot vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma hamda mazkur faoliyat turiga litsenziya mavjud bo'lgandagina televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlarini ko'rsatishga shartnoma tuziladi.

Bunda, buyurtmachi ijrochining, ijrochi esa buyurtmachining litsenziyasi nusxasiga ega bo'lishlari kerak.

240. Televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlarini ko'rsatishga shartnoma tuzish uchun buyurtmachi ijrochiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

litsenziya nusxasi;

belgilangan shakldagi buyurtmachining ommaviy axborot vositasi sifatida ruyxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;

televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish texnik vositalariga kirish huquqiga ega shaxslarning, shuningdek ularning pasporti, identifikatsiyalovchi ID-kartasi yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjati ma'lumotlari ilova qilingan ro'yxati;

buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish kanallarining oylik yuklamasi rejasi;

ijrochining texnik vositalari kirishiga televideniye va radioeshittirish signallarini beruvchi qurilmalarning, shuningdek ularning texnik parametrlari ko'rsatilgan ro'yxati.

241. Shartnoma buyurtmachi va ijrochi tomonidan imzolangan sanadan boshlab tuzilgan hisoblanadi va tomonlar uchun majburiy bo'ladi. Tomonlar o'zlari tuzgan shartnomaning shartlari ular o'rtasida shartnoma tuzgunga qadar yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham qo'llanilishini belgilab qo'yishga haqlidirlar.

242. Shartnoma buyurtmachi va ijrochi litsenziyalarining amal qilish muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga tuziladi.

243. Litsenziyaning amal qilish muddati uzaytirilganda shartnoma tomonlarning kelishuviga binoan litsenziyaning yangi amal qilish muddatigacha bo'lgan muddatga uzaytirilishi mumkin.

244. Shartnomada ajratiladigan qurilmalar turi, kanallar raqami va masofasi, ulanish nuqtalari va tomonlarning javobgarlik taqsimoti chegaralari, o'rtacha kunlik yuklama, ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi tarifi (preyskurant), yillik va choraklar bo'yicha narxi, avvaldan to'lov foizi va televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlarini ko'rsatishga taalluqli boshqa ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim.

245. Shartnomaga muvofiq televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish uchun ajratilgan telekommunikatsiyalar vositalarining ishlashida ijrochining aybi bilan yuzaga kelgan texnik to'xtashlilar hamda ijrochi tomonidan qurilmalarni rejadan tashqari (avariya holatlari) texnik ta'mirlash va ko'rikdan o'tkazish vaqtlari uchun buyurtmachi to'lovlarni amalga oshirmaydi.

246. Televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlari buyurtmachisi ijrochiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra belgilangan muddatga televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlarini qabul qilib ololmasa, buyurtmachi xizmatlar haqini shartnomada ko'rsatilgan muddatdan boshlab to'laydi.

247. Shartnomada, shuningdek quyidagi holatlarda buyurtmachi tarif bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishi ko'rsatilishi lozim:

buyurtmachi bilan bog'liq bo'lgan sabablarga ko'ra to'xtab turish vaqti;

buyurtmachining aybi bilan ro'y bergan televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish kanallari, sun'iy yo'ldosh televideniye stansiyasi, kam quvvatli retranslyatorlar va yuqori quvvatli radiotelevideniye uzatish stansiyalari ishidagi 30 daqiqadan kam davomiylidagi to'xtalishlar vaqti;

rejadan tashqari uzatishlar, shu jumladan texnik sinovning ma'lum qilingan vaqti;

efirga uzatish davrida buyurtmachi va/yoki ijrochi tomonidan teleradiostansiya va antennani qayta sozlashning 30 daqiqagacha bo'lgan vaqti;

efirga uzatish yoki dasturlarni uzatish (peregong) oldidan buyurtmachi va/yoki ijrochi tomonidan telekommunikatsiyalar vositalarini tayyorlash vaqti – 10 daqiqa;

telekommunikatsiyalar vositalaridan amalda ishlagan, lekin kafolatlangan yuklamadan kam bo'lmagan vaqt foydalanilishi.

248. Xorijiy televideniye va radioeshittirish dasturlarini O'zbekiston Respublikasi hududida retranslyatsiya qilish tegishli qonunchilik hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

249. Ijrochi va buyurtmachi o'rtasida televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlarini ko'rsatish shartnomasining shartlaridan kelib chiquvchi tushunmovchiliklar va nizolar muzokaralar asosida hal etiladi yoki manfaatdor tomonning murojaati bo'yicha sudda ko'rib chiqiladi.

250. Ijrochi televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur bo'lgan, shartnomada ko'rsatilgan texnik vositalarni kafolatlangan yuklamaga muvofiq ajratishga majbur:

televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish uchun shaharlararo kanallar va ulanish liniyalarini, ularning ajratilishini hisobga olgan holda;

yuqori quvvatli va kam quvvatli televideniye va radioeshittirish uzatkichlarini antenna-fider qurilmalari bilan;

sun'iy yo'ldosh televideniye va/yoki radioeshittirish qabul qilish va uzatish stansiyalarini.

251. Ijrochi boshqa buyurtmachilarga televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlarini quyidagi holatlarda ko'rsatadi:

amaldagi shartnomaga ega buyurtmachining yuklamasidan ozod bo'lgan vaqt davrida;

amaldagi shartnomaga ega buyurtmachiga xizmat ko'rsatishda qo'llanilmayotgan qo'shimcha televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish texnik vositalaridan va/yoki kanallaridan foydalanganda.

252. Xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq buyurtmachi televideniye va radioeshittirish dasturlari translyatsiyasini ijrochining televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish qurilmalariga qadar tegishli kanal mavjud bo'lganda o'z studiyasidan yoki ijrochining studiyasidan amalga oshiradi.

253. Zaruratga ko'ra buyurtmachi o'z studiyasidan ijrochining qurilmalariga qadar uzatish kanalini tashkil etadi hamda ijrochi ham buyurtmachi studiyasidan ijrochining qurilmalariga qadar uzatish kanalini tashkil etishni taklif etishi mumkin.

254. Televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlari ijrochisi ko'rsatilayotgan televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish xizmatlari uchun har oyda shartnomada belgilangan miqdorda bo'nak to'lovini oladi.

255. Shartnomaning amal qilish muddati tugaganida ijrochi va buyurtmachi bo'nak to'lovini va xizmatning amalda ko'rsatilgan vaqtini hisobga olgan holda yakuniy o'zaro hisob-kitobni amalga oshirishadi.

256. Taqdim etilgan televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish kanallari orqali, tarqatish manbasidan tarkibi o'zgarmasdan tarqatilayotgan televideniye va radioeshittirish dasturlarining mazmuni uchun buyurtmachi javobgardir.

257. Ijrochining televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish kanallari kirishiga berilayotgan televideniye va radiosignallar parametrlari belgilangan talablarga mos bo'lishi lozim va bular buyurtmachi tomonidan ta'minlanadi.

258. Ijrochining televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish texnik vositalarining sifat ko'rsatkichlari belgilangan talablarga mos bo'lishi lozim.

259. Televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish texnik vositalarining parametrlari, shuningdek ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining [nazorati](#) O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

260. Ijrochi odamlarning dengizdagi, yerdagi, havodagi, kosmik fazodagi xavfsizligiga, mudofaa, xavfsizlik va huquq-tartibotni saqlash sohasidagi kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlarni o'tkazishga taalluqli barcha xabarlariga, shuningdek yirik avariya, falokatlar, epidemiyalar, yong'inlar va boshqa favqulodda vaziyatlar haqidagi xabarlarini tarqatish uchun buyurtmachining televideniye va radioeshittirish dasturlarini translyatsiyadan chiqarish (yoki to'xtatish) [huquqiga ega](#).

Bunda, favqulodda vaziyatlarda yoki favqulodda holatda tomonlarga yetkazilgan zararlar davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi.

261. Ijrochi avariya holatlarida shartnomaga muvofiq ajratilgan texnik vositalarni o'chirib qo'yish huquqiga ega. Texnik imkoniyat mavjud bo'lganda ijrochi buyurtmachini avariya va eshittirishni ta'minlash bo'yicha ko'rilayotgan choralar to'g'risida ogohlantirgan holda televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatishning aylanma (zaxira) traktini taqdim etadi.

13-§. Mobil aloqa abonentlariga kontent xizmatlarini taqdim etish

262. Kontent xizmatlari kontent provayderlari tomonidan litsenziya asosida taqdim etiladi.

263. Kontent provayderlarining mobil aloqa operatorlari orqali abonentlarga ularning raqami balansi hisobidan taqdim etiladigan barcha pullik xizmatlari, shuningdek kontent xizmatlari dastlab nafaol holatda bo'ladi.

Kontent xizmatlarini abonent tomonidan aktivatsiya qilish mobil aloqa operatorining mobil ilovasi yoki USSD kod orqali amalga oshiriladi.

Kontent xizmatlarini abonent tomonidan deaktivatsiya qilish soddalashtirilgan usulda mobil aloqa operatorining mobil ilovasi yoki USSD kod orqali amalga oshiriladi.

Bunda, pullik xizmatlarni abonentlarga avtomatik ulashga hamda dastlab bepul bo'lgan xizmatlarni abonentning rozilik tasdig'ini olmasdan pullik xizmatga o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

264. Abonentlarni pullik xizmatlarga, shu jumladan kontent xizmatlariga ulash ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Bunda:

birinchi bosqichda – tanlangan xizmat (xizmat turi, mazmuni, muallifi, narxi, davomiyligi, xizmatni bekor qilish tartibi, bog'lanish uchun telefon raqamlari) haqida abonentga batafsil ma'lumot beriladi;

ikkinchi bosqichda – tanlangan xizmatni ulash uchun abonentning rozilik tasdig'i olinadi.

Abonentning rozilik tasdig'i faqat quyidagi usullar orqali olinganda haqiqiy deb e'tirof etiladi:

bepul SMS-xabar orqali maxsus kodni yuborish orqali;

mobil aloqa operatorining mobil ilovasida to'g'ridan-to'g'ri tasdiqlash (tasdiqlash yoki rozilik berish tugmasini bosish) orqali.

265. Abonentning rozilik tasdig'isiz ulanish aniqlangan taqdirda, mobil aloqa operatori ushbu xizmatni 24 soat ichida bekor qilishi va yechilgan mablag'ni abonentga to'liq qaytarishi shart.

2-bob. Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatishga shartnomalar tuzish va bekor qilish

1-§. Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzish va bekor qilish

266. Telekommunikatsiyalar xizmatlari operator (provayder, eshittiruvchi) va abonent o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida taqdim etiladi.

Bunda:

abonent–jismoniy shaxsning shaxsan ishtirokida shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim etish orqali;

abonent–jismoniy shaxs vakilining shaxsan ishtirokida va u tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjat va ishonchnoma taqdim etish orqali;

abonent–jismoniy shaxsning yuzini biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) yordamida tasdiqlash orqali amalga oshiriladi.

Bunda, texnik sabablarga ko‘ra, biometrik identifikatsiyalash imkoni bo‘lmaganida, abonent–jismoniy shaxs mobil aloqa operatorlarining ofislariga murojaat qiladi.

267. Operator (provayder) shartnomani bevosita yoki o‘zining tijorat vakili – diler orqali tuzishlari mumkin.

268. Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasi jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan tuziladi.

269. Jismoniy va yuridik shaxslar telekommunikatsiyalar xizmatlariga ulanish uchun arizani operatorning (provayderning, eshittiruvchining) rasmiy veb-sayti, ularning maxsus axborot tizimlari va operatorga ulanish uchun ariza qoldirish imkoniyati yaratilgan davlat tomonidan taqdim etiladigan onlayn xizmat portallari orqali interaktiv usulda yuborishlari mumkin.

Bunda, elektron arizalar yozma arizalarga tenglashtiriladi va ko‘rib chiqiladi.

270. Telekommunikatsiyalar xizmatlariga ulanish uchun ariza:

muomala layoqatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs tomonidan;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan yuridik shaxs, shuningdek uning filiali yoki vakolatxonasi tomonidan berilishi mumkin.

Telefon xizmati uchun – yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan yoki ushbu turar joyning egasi yoki ijaraga oluvchisi hisoblanadigan jismoniy shaxs tomonidan berilishi mumkin.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar o‘z ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining yozma roziligi bilan telekommunikatsiyalar xizmatlariga ulanish uchun ariza berishi mumkin.

271. Ariza ushbu hududda telekommunikatsiyalar tarmoqlari xizmatlarini ko‘rsatish litsenziyasiga ega istalgan operatoriga (provayderiga, eshittiruvchiga) berilishi mumkin.

Arizalar operator (provayder, eshittiruvchi) tomonidan belgilangan tartibda ro‘yxatga olinadi. Operator (provayder, eshittiruvchi) arizani qabul qilishdan bosh tortishga haqli emas.

272. Bevosita murojaat qilinganda operatorga (provayderga, eshittiruvchiga) yoki dilerga quyidagi ma’lumotlar taqdim qilinishi kerak:

familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat rekvizitlari (seriyasi, raqami va JSHSHIR) – jismoniy shaxslar uchun;

jismoniy shaxsning shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlardan biri:

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiga – biometrik pasport, identifikatsiya ID-kartasi, yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi;

O‘zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha yashayotgan chet el fuqarosiga – xorijiy davlat fuqarosining pasporti;

O‘zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha yashayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga – harakatlanish hujjati;

O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxsga – yashash guvohnomasi, identifikatsiya ID-kartasi.

nomi (firma nomi), bank rekvizitlari, joylashgan manzili, STIR – yuridik shaxslar uchun);

bog'lanish uchun ma'lumotlar (telefon raqami, elektron pochta manzili – agar mavjud bo'lsa);

telekommunikatsiyalar xizmatlaridan foydalanish ko'zlanayotgan manzil.

Elektron tarzda murojaat qilinganda ushbu badda ko'rsatilgan ma'lumotlar elektron shaklda taqdim qilinadi.

Elektron tarzda murojaat qilinganda operator (provayder, eshittiruvchi) tomonidan murojaatchiga bir ish kuni ichida shartnoma tuzish imkoniyati mavjud bo'lganda shartnoma tuzish uchun aniq manzil va vaqt ko'rsatilgan javob yoki shartnoma tuzish imkoniyati mavjud bo'lmaganda buning sabablari ko'rsatilgan javob yuboriladi.

273. Shartnomani tuzish quyidagi hollarda rad etiladi:

murojaatchi voyaga yetmagan jismoniy shaxs bo'lganda, bundan o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning o'z ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining yozma roziligi bo'lgan hollar mustasno;

telekommunikatsiyalar xizmatlaridan foydalanish ko'zlanilayotgan manzil operator (provayder, eshittiruvchi) xizmat ko'rsatish hududiga kirmaganda;

texnik imkoniyat bo'lmaganda;

murojaatchi tomonidan ma'lumotlar to'liq taqdim etilmaganda;

taqdim qilingan ma'lumotlarning soxtaligi yoki noto'g'riligi aniqlanganda.

274. Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi va uni tuzish texnik imkoniyati bo'lganda arizalarni berish navbati tartibida tuziladi.

Shartnoma ikki nusxada tuziladi va tomonlar tarafidan imzolanadi.

Shartnoma tomoni sifatida namoyon bo'ladigan ariza beruvchi abonent maqomiga ega bo'ladi.

275. Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzishda ajratilgan abonent raqami operator (provayder) ma'lumot xizmatining ma'lumotlar bazasiga kiritiladi. Abonentning arizasiga ko'ra, raqam operator (provayder) ma'lumot xizmatining ma'lumotlar bazasidan chiqarilishi mumkin.

276. Tuzilgan shartnoma ikki tomonlama shartnoma bo'lib, u tuzilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi, shartnoma muddatsiz hisoblanadi, agar unda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa.

277. Jismoniy shaxs bilan shartnoma tuzish uchun texnik imkoniyatning yo'qligi ko'rsatilgan shartnomani tuzish uchun texnik imkoniyat bo'lgan, arizani kechroq bergan boshqa jismoniy shaxs bilan shartnoma tuzish uchun to'siq bo'la olmaydi.

278. Shartnomada quyidagilar aks etgan bo'lishi lozim:

shartnoma predmeti;

shartnoma tuzilgan sana va joyi;

operator (provayder, eshittiruvchi) nomi (firma nomi);

operatorning (provayderning, eshittiruvchining) bank rekvizitlari;

abonent to'g'risidagi ma'lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat rekvizitlari (seriyasi, raqami va JSHSHIR) – jismoniy shaxs uchun, nomi (firma nomi), bank rekvizitlari, joylashgan manzili, STIR – yuridik shaxs uchun), abonent bilan bog'lanish ma'lumotlari (telefon raqami, elektron pochta manzili – agar mavjud bo'lsa);

abonentga taqdim etilgan abonent raqami (telefon va mobil aloqasi xizmatlari uchun), abonentni identifikatsiya raqami (ma'lumotlar uzatish va Internet, televideniye xizmatlari uchun);

shartnomani tuzishda abonent tomonidan tanlangan tarif rejasi va xizmatlar ro'yxati;

shartnoma diler orqali tuzilgan holda – dilerning rekvizitlari (firma nomi, shaxsiy raqami, imzosi va muhri);

mobil aloqa xizmatlari uchun abonent oladigan raqamdan (SIM-kartadan) foydalanish istagi bo'lgan mobil aloqa foydalanuvchi qurilmasining asosiy turlari, shu jumladan mobil telefon, USB-modem, elektr energiyasi/suv/gaz hisoblagichlari, onlayn to'lovlar terminallari yoki uskunaning boshqa turlari;

taqdim etiladigan televideniye va radioeshittirish dasturlari (televideniye xizmatlari uchun);

ko'rsatiladigan ishlar (xizmatlar ko'rsatish) nomi va ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) shartlari va muddatlari;

shartnoma bahosi va ishlar bajarishning (xizmatlar ko'rsatishning) kafolati;

ishlarga (xizmatlarga) haq to'lash va hisob-kitoblar tartibi, muddatlari va shakli;

hisobni yetkazib berish usuli;

shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi;

tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi;

ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga doir buyurtmalarni qabul qilish telefon raqamlari (yoki qisqa raqamlar) va korxonaning "Ishonch telefoni" raqamlari;

shartnomaning amal qilinishini to'xtatib turish yoki bekor qilish va abonentning shaxsiy hisob raqamida qolgan pul mablag'larini qaytarish shartlari.

Mazkur badda keltirilgan ma'lumotlar operatorning (provayderning, eshittiruvchining) abonentlar bazasiga kiritilgan bo'lishi kerak.

Shartnomadagi abonent to'g'risidagi ma'lumotlar o'zgarishi bilan bog'liq o'zgarishlar qo'shimcha to'lov undirilmasdan kiritilishi kerak.

Shartnomada qonunchilik hujjatlariga va mazkur Qoidalariga zid kelmaydigan boshqa ma'lumotlar va/yoki shartlar bo'lishi mumkin.

279. Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish uchun shartnoma operator (provayder, eshittiruvchi) litsenziyasining amal qilish muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga rasmiylashtiriladi. Operator (provayder) litsenziyasining amal qilish muddati uzaytirilganda shartnoma litsenziyaning yangidan belgilangan amal qilish muddatigacha uzaytirilgan deb hisoblanadi.

280. Operator (provayder, eshittiruvchi) va abonent o'rtasidagi o'zaro hisob-kitob davri, agar shartnomada boshqa muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, qoida tariqasida, bir kalendar oyga teng deb belgilanadi.

281. Operator (provayder, eshittiruvchi) abonentni alohida haq evaziga ko'rsatiladigan qo'shimcha telekommunikatsiyalar xizmatlaridan foydalanishga majburlashga haqli emas.

282. Operator (provayder, eshittiruvchi) bitta xizmatni ko'rsatish texnologik jihatdan boshqa xizmat bilan shart qilib qo'yilgan holatdan tashqari, telekommunikatsiyalarning bitta xizmatini ko'rsatish uchun telekommunikatsiyalarning boshqa xizmatlarini ko'rsatishni shart qilib qo'yishga haqli emas.

Xizmatlar to'plamini o'zgartirish, yangi xizmatlarni ulash (masalan, rouming xizmatini ulash), xizmatlar uchun foydalanilayotgan tarifni o'zgartirish va shu kabilarni avtomatik (abonent tomonidan tanlanganligini tasdiqlamasdan) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Avval abonentning so'rovi bilan ulangan telekommunikatsiyalar xizmatlarini abonentga xabar qilgan holda, uning o'zi o'chirmaguncha, avtomatik uzaytirishga yo'l qo'yiladi.

283. Shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

abonentning tashabbusi bilan istalgan vaqtda;

operatorning (provayderning, eshittiruvchining) tashabbusi bo'yicha, ushbu Qoidalar va/yoki shartnoma shartlarida belgilangan talablar abonent tomonidan buzilganda;

abonent-jismoniy shaxs vafot etganda yoki abonent-yuridik shaxs tugatilgan holda, tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgan taqdirda;

abonentning shaxsiy hisobidagi mablag' xizmat ko'rsatishni davom ettirish uchun yetarli bo'lmagan kundan boshlab 365 kundan ko'p vaqt o'tgandan keyin, bunda 90 kundan o'tgan davr uchun operator (provayder) abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov undirilmaydi;

abonentning mobil raqami boshqa operator (provayder) tarmog'iga ko'chirilganida; shartnomada yoki qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

284. Shartnoma bekor qilinganda tomonlar o'zlarining barcha majburiyatlari bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishlari kerak.

285. Abonent operatorning (provayderning) xizmat ko'rsatish punktlarida shartnomani boshqa shaxsning nomiga uning ishtirokida va roziligi bilan qayta rasmiylashtirishi mumkin.

Bunda, operator (provayder) va amaldagi abonent o'rtasida tuzilgan shartnoma bekor qilinadi va raqam nomiga qayta rasmiylashtirilayotgan shaxs bilan belgilangan tartibda yangi shartnoma tuziladi.

286. Operator (provayder, eshittiruvchi) abonent bilan tuzilgan shartnoma bekor qilingach abonentning shaxsga doir ma'lumotlarini qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'zining ma'lumotlar bazasidan yo'q qilishlari shart.

Diler abonent to'g'risidagi ma'lumotlarni operatorga (provayderga) taqdim etganidan so'ng o'ziga ma'lum bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlarni qonunchilik hujjatlariga muvofiq yo'q qilishi shart.

2-§. Telefon aloqasi va ma'lumotlar uzatish xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzish va bekor qilishning alohida shartlari

287. Jismoniy va yuridik shaxslarning shartnomani tuzish uchun murojaati shartnomani tuzish uchun texnik imkoniyat bo'lganda, quyidagilar belgilangan tartibda operator tomonidan qanoatlantiriladi:

jismoniy shaxs uchun ariza beruvchining shaxsini hamda ko'rsatilgan yashash joyi bo'yicha yoki turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olinganligini tasdiqlovchi hujjat yoki turar joyga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat;

yuridik shaxs uchun yuridik shaxsning egalik huquqi yoki ijaraga olish huquqini tasdiqlovchi hujjat hamda davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomasi.

288. Shartnomani yangi shaxs nomiga tuzish to'g'risidagi arizani qayta rasmiylashtirish ariza beruvchining roziligi bilan amalga oshiriladi, bundan ariza beruvchining ko'chib ketishi yoki ushbu turar joyga egalik huquqi yangi shaxs nomiga o'tkazilganligi bilan bog'liq holatlar mustasno.

289. Xizmatlarni taqdim etish uchun zarur telekommunikatsiyalar tarmoqlari mavjud bo'lmaganda, yangi tarmoqlarni o'tkazish bo'yicha qurilish ishlari ariza beruvchining mablag'lari hisobidan (u rozi bo'lganda), shu jumladan operator tomonidan berilgan texnik shartlar asosida pudrat shartnomasini tuzish yo'li orqali o'tkazilishi mumkin. Ariza beruvchi mazkur ishlar uning hisobidan bajarilishiga rozi bo'lganda operatorga texnik shartlarni olish uchun ariza beradi. Texnik shartlarni berish muddati 3 ish kunidan oshmasligi kerak.

290. Tomonlarning kelishuviga ko'ra telekommunikatsiyalar tarmog'idan foydalanish imkonini berish bo'yicha ishlarning bir qismi yoki barchasini bajarishga texnik shartlar berilishi mumkin. Bunda, shartnomada qurilishdan tashqari to'lovlar nazarda tutiladi. Qurilishdan tashqari ishlar uchun to'lov materiallarning xarajati telefon tarmog'idan foydalanish imkonini berish uchun to'lovda nazarda tutilgan normadan oshib ketsa, telefon tarmog'idan foydalanish imkonini berish uchun to'lovga qo'shimcha ravishda undiriladi. Mazkur ishlar uchun haq arizachi tomonidan materiallar va bajarilgan ishlarning qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

291. To'liq yoki qisman ariza beruvchining hisobidan qurilgan telekommunikatsiyalar vositalari va inshootlari texnik xizmat ko'rsatish, beg'araz foydalanish yoki mulk sifatida operatorga berilishi mumkin. Telekommunikatsiyalar vositalari va inshootlarini berish tartibi va ekspluatatsiya qilish shartlari ariza beruvchi va operator o'rtasidagi shartnoma bilan belgilanadi.

Agar qurilgan telekommunikatsiyalar vositalari va inshootlari texnik xizmat ko'rsatish, foydalanishga yoki mulkiga berilmagan bo'lsa, u holda ularni ekspluatatsiya qilish O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining normativ hujjatlariga muvofiq abonent tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

Texnik shartlarni so'ralayotgan parametrlarda berish imkoniyati bo'lmagan hollarda operator 3 ish kuni ichida asoslangan rad javobi va rad etishning aniq sabablari hamda qonunchilik hujjatlarining normalari ko'rsatilgan yozma javobni tayyorlaydi.

Ariza beruvchi operator dan yoki telekommunikatsiyalar vositalari va inshootlarini loyihalashtirish litsenziyasiga ega bo'lgan boshqa tashkilotdan olingan texnik shartlar asosida loyiha-smeta hujjatlariga buyurtma berish huquqiga ega. Ariza beruvchi loyiha-smeta hujjatlarining mustaqil ekspertizasini o'tkazish huquqiga ega.

292. Telefon va ma'lumotlar uzatish tarmog'idan foydalanish imkonini berish bo'yicha ishlari bajarilganidan keyin operator ariza beruvchi bilan shartnoma tuzadi.

293. Telefon va ma'lumotlar uzatish tarmog'idan foydalanish imkonini berish bo'yicha ishlarini bajarish muddatlari:

texnik imkoniyatni o'rganish va texnik imkoniyat bo'lmagan taqdirda ariza beruvchiga asoslangan rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan javobini berish 7 kundan oshmasligi kerak;

texnik imkoniyat bo'lganda shartnoma tuzilgan kundan boshlab 10 ish kunida ulanishni amalga oshirish;

texnik imkoniyat bo'lmaganda, yangi tarmoqlarni ariza beruvchining hisobidan o'tkazilishini hisobga olgan holda pudrat shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab 180 kungacha bo'lishi kerak.

294. Jismoniy shaxslar, mansabdor shaxslar, tashkilotlarning ayrim toifalari uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq telekommunikatsiyalar tarmog'idan foydalanishni ta'minlash navbati va xizmatlardan foydalanish tartibi qismida ustunliklar belgilanishi mumkin.

295. Abonent xuddi ATSning xizmat ko'rsatish hududidagi yangi turar joyga ko'chib o'tganda uning arizasiga ko'ra va shartnomani tuzish uchun texnik imkoniyat mavjud bo'lganda abonent ko'chib o'tgan uy bo'yicha qanoatlantirilmagan arizalar, shu jumladan, bunday shartnomani navbatdan tashqari tuzish imtiyozlariga ega shaxslardan olingan qanoatlantirilmagan arizalar bo'lishidan qat'i nazar avval ajratilgan abonent raqamidan foydalanib shartnoma qayta rasmiylashtiriladi.

Abonent ATS ta'sir hududidan tashqarida bo'lgan xuddi o'sha operatorning ishlash hududidagi yangi yashash joyiga ko'chganda uning arizasi bo'yicha va shartnomani tuzish uchun texnik imkoniyat mavjud bo'lganda shartnoma yangi abonent raqamini ajratgan holda qayta rasmiylashtiriladi.

296. Yangi ATS ishga tushirilishi va mahalliy telefon tarmoqlarining rekonstruksiya qilinishi, yangi texnologiya joriy etilishi munosabati bilan abonent raqamlarini almashtirish abonentlarga avtomatik qo'ng'iroq qilish yoki yozma xabarnoma bilan ularni kamida 20 kun oldin hamda axborotni 30 kun oldin operatorning rasmiy veb-saytida oldindan joylashtirish yo'li bilan bepul bajariladi.

Abonent raqamini almashtirish shartnomaga tegishli o'zgartirishlarni kiritish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

3-§. Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun shartnoma tuzishning alohida shartlari

297. Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi faqat abonent-jismoniy shaxs shaxsan bo'lganda va u tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi taqdim etilganda yoki uning vakili shaxsan ishtirok etganda va u tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma taqdim etilganda tuziladi.

298. Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzishdan oldin operator (provayder, diler) ushbu abonent bilan ilgari tuzilgan amaldagi shartnomalarning mavjudligini ma'lumotlar bazasi bilan solishtiradi.

Bunda, texnik qarshi harakat qilish kompleksi (xalqaro ovozli trafikni o'tkazish) tartibini buzgan abonent bilan shartnoma imzolash qonunchilikda belgilangan asosda amalga oshiriladi.

299. Ilgari tuzilgan amaldagi shartnomalar bo'yicha ushbu operatorning (provayderning) beshta va undan ortiq raqamlariga ega bo'lgan abonent-jismoniy shaxs bilan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzish uchun mazkur Qoidalarda ko'rsatilgan shartlar ta'minlanganda faqat operatorning (provayderning) xizmat ko'rsatish punktlarida amalga oshiriladi.

Ushbu operatorning (provayderning) beshta va undan ortiq raqamlarini olish uchun abonent-yuridik shaxs bilan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzish ushbu miqdordagi raqamlarga ehtiyoj yozma ravishda asoslab berilganda va ushbu Qoidalarda ko'rsatilgan shartlar ta'minlanganda operatorning (provayderning) xizmat ko'rsatish punktlarida amalga oshiriladi.

300. Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi operator (provayder) yoki dilerning mulkida, xo'jalik yurituvida, tezkor boshqaruvida bo'lgan yoki ijarasiga olingan binoda, binoning bir qismida joylashgan xizmat ko'rsatish punktlarida, shuningdek savdo faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan va bir yoki bir nechta ish joylariga mo'ljallangan savdo zallariga ega statsionar savdo obyektlari va hududlaridagi jihozlangan savdo joylarida tuziladi.

Xizmat ko'rsatish punktiga kelish imkoniyatiga ega bo'lmagan jismoniy shaxslarning yakka tartibdagi talabnomalari bo'yicha yashash joyiga borish, sayyor sotuv nuqtalarini tashkil etish orqali qishloq, uzoqda joylashgan, yetib borish qiyin bo'lgan aholi punktlarida abonentlarga xizmat ko'rsatish uchun maxsus jihozlangan transport vositalarida operator (provayder) tomonidan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzishga yo'l qo'yiladi.

Statsionar bo'lmagan savdo obyektlarida mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomalarini tuzish taqiqlanadi, qishloq, uzoqda joylashgan, yetib borish qiyin bo'lgan aholi punktlarida abonentlarga xizmat ko'rsatish uchun maxsus jihozlangan transport vositalarida aloqa operatori (provayderi) tomonidan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomalarini tuzish hollari bundan mustasno.

301. O'zbekiston Respublikasidagi aeroportlar, vokzallar hamda turist-axborot markazlari hududlarida chet el fuqarolari – sayyohlar (turistlar) bilan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzish soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Chet el fuqarolari – sayyohlar (turistlar)dan turar joyi (shu jumladan, yashash joyi) ko'rsatilishi talab etilmaydi.

Shartnomaga faqatgina chet el fuqarolari – sayyohlar (turistlar) uchun, ularni qaysi mamlakatdan va qancha muddatga tashrif buyurganliklari haqidagi ma'lumotlar kiritiladi.

Chet el fuqarolari – sayyohlar (turistlar)ga xizmat ko'rsatish davri ularning O'zbekiston Respublikasida bo'lishi muddati bilan cheklanadi.

Bitta chet el fuqarosi shaxsini tasdiqlovchi hujjatiga uchtdan ko'p abonent raqami rasmiylashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Mazkur band qoidalari O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga berilgan yashash guvohnomasi, identifikatsiya ID-kartasining amal qilish davrida tatbiq etilmaydi.

III bo'lim. Operatorlar va provayderlarning huquq va majburiyatlari

1-bob. Operatorlar va provayderlarning xizmatlarni ko'rsatishdagi huquqlari

1-§. Operatorlar va provayderlarining umumiy huquqlari

302. Operator (provayder) telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatishda quyidagi huquqlarga ega:

abonent va/yoki foydalanuvchilarga xizmatlar ko'rsatish;

foydalanuvchilarning aybi bilan telekommunikatsiyalar tarmoqlarida yuz bergan hodisalar natijasida unga yetkazilgan zarar o'rnini qoplash;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish;

abonent yoki foydalanuvchi ushbu Qoidalarni buzganligi yoki ularga ko'rsatilgan telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun belgilangan muddatda haq to'lamaganligi sababli uning xatti-harakatlari bo'yicha da'vo qilish;

abonent shartnoma shartlarini buzganda telekommunikatsiyalar xizmatidan foydalanishni to'xtatib qo'yish;

telekommunikatsiyalar tarmoqlarida xabarlarni uzatishda xavfsizlikni ta'minlash va tarmoq abonent yoki foydalanuvchilariga ko'rsatiladigan xizmatlarning tegishli sifatini ta'minlash maqsadida telekommunikatsiyalar xizmatlari ko'rsatishning to'xtatilishini nazarda tutadigan texnik tadbirlarni o'tkazish.

Operator (provayder) qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

2-§. Telefon aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi operator va provayderlarning huquqlari

303. Operator (provayder) foydalanuvchi qurilmasini telefon aloqa tarmog'idan vaqtincha uzib qo'yish yo'li bilan abonentning telefon aloqa tarmog'idan foydalana olishini quyidagi hollarda to'xtatib turish huquqiga ega:

a) belgilangan muddatlarda mahalliy va xalqaro telefon aloqasi xizmatlariga haq to'lanmaganda, bu haqda abonentni uzib qo'yishdan kamida 10 kun oldin telefon, yozma yoki elektron xabar bilan elektron pochta manzilga yoki qisqa matnli xabar orqali xabardor qilgan holda;

b) abonent tomonidan operatorga (provayderga) tegishli telekommunikatsiyalar uskunasi normal ishlashining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan foydalanuvchi qurilmasini ekspluatatsiya qilish qoidalari buzilganda.

Abonentning telefon tarmog'idan foydalanishining vaqtincha to'xtatib qo'yilishiga olib kelgan buzilishlar bartaraf etilgandan va ko'rsatilgan xizmatlar uchun abonent tomonidan to'lov kiritilgandan, shuningdek abonentning aybi bilan foydalanuvchi qurilmasi ishlamay turgan vaqt uchun abonent to'lovi kiritilgandan keyin sutka davomida foydalanishni tiklash amalga oshiriladi.

Bunda, telefon aloqa tarmog'idan foydalanish tiklanganligi uchun to'lov undirilmaydi.

Agar abonent telefon aloqasidan foydalanish to'xtatib qo'yilgandan keyin 60 kundan ortiq muddat ichida telefon aloqasi xizmatlariga haq to'lash bo'yicha qarzdorligini bartaraf etmasa, operator (provayder) O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq bir tomonlama tartibda shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bu haqda operator (provayder) abonentga mazkur bandning "a" kichik bandida belgilangan usullardan biri orqali kamida 10 kun oldin xabar berishi kerak.

3-§. Operator va provayderlarning mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishdagi huquqlari

304. Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishda operatorlar (provayderlar) quyidagi huquqlarga ega:

o'zini o'zi obro'sizlantirmaganlar ichidan dilerlarni mustaqil ravishda tanlash va diler bilan tuziladigan shartnoma shartlariga muvofiq ularning faoliyati uchun mukofotlar belgilash;

operator (provayder) nomidan abonentlarga xizmat ko'rsatish uchun dilerlar bilan shartnomalar tuzish.

Bunda, diler bilan shartnoma ma'lum muddatga tuziladi va shartnomani tuzishda operator (provayder) dilerga tuzilgan shartnomaning rekvizitlari, uning amal qilish va uzaytirish muddati ko'rsatilgan diler sertifikatini beradi. Sertifikat dilerning xizmat ko'rsatish punktlari soniga to'g'ri keladigan miqdordagi asl nusxalarda beriladi;

abonent tomonidan mobil aloqaning ayrim xizmatlari yoki mobil aloqa xizmatlari to'plamlari uchun maxsus tariflardan (tarif rejalaridan) operatorning (provayderning) belgilangan talablariga muvofiq maqsadli foydalanilishini nazorat qilish. Xizmatlardan maqsadsiz foydalanish aniqlanganda, abonentga xabar qilgan holda boshqa tarif rejasiga o'tkazish;

abonent tomonidan operator tarmog'ida ovozli trafikni o'tkazish tartibi buzilishlari qayd etilgan hollarda ushbu abonentga telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatishni to'xtatish;

abonent tomonidan ketma-ket 90 kun mobaynida mobil aloqa xizmatlarini olish huquqini beradigan tranzaksiyalar amalga oshirilmaganda, mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishni to'xtatish.

305. Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishda diler quyidagi huquqlarga ega:

operator (provayder) nomidan abonentlarga xizmat ko'rsatish uchun operatorlar (provayderlar) bilan shartnomalar tuzish;

operator (provayder) nomidan abonentlarga xizmat ko'rsatish shartnomasining shartlariga, qonunchilik hujjatlari va ushbu Qoidalar talablariga muvofiq operator (provayder) nomidan abonentlar bilan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomalarini tuzish;

abonentlarga operator (provayder) nomidan xizmat ko'rsatish uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq operatoridan (provayderdan) mukofotlar olish;

operator (provayder) tomonidan abonentlarni ulash va ularga xizmat ko'rsatish shartlari to'g'risidagi ishonchli axborotni operatoridan (provayderdan) olish;

abonentlarga sotilgan foydalanuvchi qurilmalariga kafolatli va kafolat muddatidan keyin xizmat ko'rsatilishini ta'minlash;

diler tomonidan operatoridan (provayderdan) sotib olingan yoki olingan foydalanuvchi qurilmalari uchun muvofiqlik sertifikatlarining tasdiqlangan nusxalarini operatoridan (provayderdan) olish;

operatoridan (provayderdan) dilerning o'z majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bo'lgan SIM-kartalar, hujjatlar, shartnomalar, blankali mahsulotlar, axborot-so'rovnoma ma'lumotlari, reklama va boshqa materiallarni olish;

operator (provayder) tomonidan ko'rsatiladigan mobil aloqa xizmatlari uchun abonentlardan to'lovni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qabul qilish;

abonentlarga xizmat ko'rsatishni amalga oshirish.

4-§. Operatorlar va provayderlarning ma'lumot uzatish xizmatlarini ko'rsatishdagi huquqlari

306. Ma'lumot uzatish xizmatlarini ko'rsatishda operator va provayderlar quyidagi huquqlarga ega:

abonent tomonidan ma'lumotlar uzatish tarmog'ining foydalanilgan veb-resurslarining hisobga olinishini (log-fayllarining yuritilishini) qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil qilish;

operatorni (provayderni) ogohlantirmasdan ma'lumotlar uzatish tarmog'iga GSM, IP yoki SMS-shlyuzlar ulanganda, shu jumladan ma'lumotlar uzatish tarmog'ida maxsus apparat-dasturiy vositalarini o'rnatish yo'li bilan noqonuniy foydalanish holatlari aniqlanganda xizmatlar ko'rsatishni bir tomonlama to'xtatish.

5-§. Eshittiruvchilar, operatorlar va provayderlarning televideniye xizmatlarini ko'rsatishdagi huquqlari

307. Televideniye xizmatlarini ko'rsatishda eshittiruvchi quyidagi huquqlarga ega:

o'z dasturlarini televideniye tarmog'i orqali shartnoma asosida tarqatish;

dasturlarini bosh muharrir tomonidan eshittirish setkasi tasdiqlangandan keyin uzatish; xususiy yoki alohida mualliflik shartnomalari bo'yicha olingan dasturlarni tarqatish (translyatsiya, retranslyatsiya qilish) va sotish, shuningdek olingan dasturlarni tarqatish (translyatsiya, retranslyatsiya qilish) va sotish huquqini uchinchi shaxslarga berish;

o'z televideniye dasturlari translyatsiyasini shartnoma asosida yozish va uning tarqatilishini ta'minlash;

televideniye tarmoqlarini loyihalash, qurish va modernizatsiyalashda zarur texnik vositalarni mustaqil tanlash.

308. Televideniye xizmatlarini ko'rsatishda operator eshittiruvchi (eshittiruvchilar) bilan tuzilgan shartnoma asosida ularning televideniye dasturlari tarqatilishini amalga oshiradi.

309. Televideniye xizmatlarini ko'rsatishda operator eshittiruvchi (eshittiruvchilar) quyidagi huquqlarga ega:

eshittiruvchilarning televideniye dasturlarini shartnoma asosida translyatsiya va retranslyatsiya qilish;

provayderlar va abonentlar bilan televideniye tarmog'i xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnomalar tuzish hamda ularni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilish;

provayder va abonentlarga litsenziyada nazarda tutilgan hajmda va belgilangan standartlarga muvofiq keladigan televideniye xizmatlarini ko'rsatish;

provayderlar va abonentlar tomonidan xizmatlar uchun to'lov bo'yicha shartnoma majburiyatlari hamda televideniye tarmog'i yoki foydalanuvchi qurilmasini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari buzilganda televideniye xizmatlaridan foydalanishni to'xtatib turish yoki tugatish;

televideniye tarmog'ini tashkil qilish va rivojlantirishda texnik vositalarni mustaqil tanlash.

310. Televideniye provayderi televideniye dasturlarining signallarini operator (operatorlar) bilan tuzilgan shartnoma asosida qabul qiladi va ularning tarqatilishini amalga oshiradi.

311. Televideniye provayderi quyidagi huquqlarga ega:

televideniye dasturlarining signallari berilishini qonunchilik hujjatlariga muvofiq ta'minlash;

abonentlar bilan televideniye tarmog'i xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnomalar tuzish va ularni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilish;

televideniye tizimlarini tashkil qilish va rivojlantirishda texnik yechimlar va vositalarni tanlash.

6-§. Provayderlarning taksofon xizmatini ko'rsatishdagi huquqlari

312. Taksofon xizmatini ko'rsatishda provayder quyidagi huquqlarga ega:

operator tomonidan shartnoma shartlari buzilgan taqdirda operator xizmatlarini rad etish;

operatoridan uzilishlarda yoki telekommunikatsiyalar tarmog'idan lozim darajada foydalanilmaganda to'lovlarning qayta hisoblanishini talab qilish;

foydalanuvchilarga taksofon orqali telefon aloqa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha texnik siyosatni mustaqil ravishda belgilash va tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish;

operator yoki foydalanuvchining aybi bilan yetkazilgan moddiy zarar qoplanishini talab qilish;

o'z huquqlari buzilgan taqdirda vakolatli davlat organlariga yoki sudga murojaat qilish.

2-bob. Operatorlar va provayderlarning xizmatlarni ko'rsatishdagi majburiyatlari

1-§. Operator va provayderlarning umumiy majburiyatlari

313. Operator va provayderlar telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatishda quyidagilarga majbur:

o'z faoliyatini litsenziya shartlari va ushbu Qoidalarga muvofiq amalga oshirish;

ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini amaldagi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, texnik hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlash;

amaldagi shakllarga muvofiq statistika hisobotlarini belgilangan tartibda va muddatlarda vakolatli organlarga taqdim etish;

telekommunikatsiyalar tarmoqlari bo'ylab uzatiladigan telefon so'zlashuvlari va barcha turdagi ma'lumotlarni sir saqlash;

foydalanuvchilarga telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish shartlari va tartibi, shu jumladan, xizmatlar uchun tariflar o'zgarganligi to'g'risidagi batafsil axborotni taqdim etish;

telekommunikatsiyalar tarmoqlaridan ruxsatsiz foydalana olish holatlariga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish;

abonentlarga shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki tegishli darajada bajarilmaganligi, shuningdek ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normative hujjatlar, texnik hujjatlar va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlanmaganligi hamda abonentning roziligisiz ko'rsatilgan xizmatlar uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq zarar o'rnini qoplash;

shartnomada belgilangan muddatlarda telekommunikatsiyalar aloqasi xizmatlarini ko'rsatish;

xizmatlar, kechayu-kunduz ko'rsatilishini ta'minlash;

ko'rsatilgan xizmatlarning kamchiliklarini shartnomada, qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda bartaraf etish;

telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish hududiga litsenziyaning amal qilish hududida joylashgan barcha aholi punktlarini, magistral avtomobil yo'llarini va temir yo'llarini, strategik muhim obyektlarni kiritish maqsadida taqsimotga hamda O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan kelishilgan rejaga muvofiq mobil aloqa tarmog'ini rivojlantirish va modernizatsiyalash bo'yicha ishlarni izchillik bilan bosqichma-bosqich olib borish;

operator va provayder tarmog'idagi IP protokoli asosida ishlovchi qurilmalarni IPv6 protokoli versiyasini qo'llab-quvvatlashini ta'minlash;

abonentlarni tarmoqlarda bo'ladigan yirik avariyaalar, ularni rekonstruksiya qilish to'g'risida hamda ishlarni tugatishning taxmin qilingan muddatlari to'g'risida ommaviy axborot vositalarida, o'zining rasmiy veb-saytida yoki SMS orqali xabardor qilish;

foydalanuvchi bilan muomala qilish etikasiga rioya qilish, telefon orqali so'zlashuvda o'z lavozimini, familiyasi yoki shaxsiy raqamini aytish;

abonent murojaat qilganda uning talabiga ko'ra shaxsiy hisob raqamining holati va qarzdorligi mavjudligi to'g'risida xabardor qilish;

o'z veb-saytlari orqali taqdim etiladigan tariflar o'zgarganligi to'g'risidagi batafsil axborotni o'z vaqtida taqdim etishga va ma'lumotlarni yangilash;

axborot resurslari himoya qilinishini ta'minlashga, O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat etishga, urush, zo'ravonlik va terrorizmni, shuningdek, diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g'oyalarini targ'ib qilishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atuvchi axborotni, shuningdek, pornografiyani targ'ib qilishga qaratilgan va tarqatilishi qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlangan boshqa axborotning tarqatilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan choralarni ko'rish;

operatorlar va provayderlar tomonidan abonentlarga telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatishda ovozini o'zgartirish va abonent raqamini soxtalashtirish, o'zgartirish texnologiyalariga asoslangan xizmatlar ko'rsatish;

abonent/foydalanuvchilarning murojaatlarini (yozma yoki axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali) kelib tushgan kundan boshlab 15 kun ichida, materiallarni qo'shimcha o'rganish zarur bo'lganda abonentni yozma ogohlantirgan holda bir oygacha bo'lgan muddat ichida ko'rib chiqish;

abonentlar operatorning (provayderning) axborot-ma'lumot xizmatiga qo'ng'iroq qilib bog'lanishida teng huquqliligini ta'minlash.

Bunda, abonentlar operatorning (provayderning) axborot-ma'lumot xizmatiga qo'ng'iroq qilib bog'lanishlarida ma'lum bir abonentlarga boshqa abonentlarga nisbatan ustuvorlik (bog'lanish vaqti, xizmat ko'rsatish vaqti va boshqalar) taqdim etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

314. Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun tekshiruv o'tkazilishi, qo'shimcha materiallarni talab qilish yoki boshqa choralarni ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari murojaat qiluvchiga xabar qilgan holda operatorning (provayderning) rahbari tomonidan istisno tariqasida bir oydan ko'p bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Taklif operatorga (provayderga) kelib tushgan kundan boshlab bir oy muddatgacha ko'rib chiqiladi, qo'shimcha ko'rib chiqishni talab qiladigan takliflardan tashqari, bu haqda yozma shaklda taklifni kiritgan jismoniy yoki yuridik shaxsga besh kun ichida xabar qilinadi.

315. Ushbu Qoidalarni foydalanuvchilar e'tiboriga yetkazish, shuningdek ularni o'z rasmiy veb-saytida joylashtirishga majbur.

316. Telekommunikatsiyalar tarmog'idagi shikastlanishlar abonent murojaat qilgan kundan boshlab belgilangan muddat ichida operator (provayder) tomonidan bartaraf etilishi kerak. Telekommunikatsiyalar tarmog'ida shikastlanishlarni bartaraf etish shartnomada qisqa muddatlar ichida bartaraf etish belgilanmagan bo'lsa, normativ hujjatlarda belgilangan muddatlardan ortiq bo'lmasligi kerak.

317. Operator va provayderlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

2-§. Telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatuvchi operator va provayderlarning majburiyatlari

318. Operator va provayderlar telefon aloqa xizmatlarini ko'rsatishda quyidagilarga majbur:

a) telefon aloqasi abonentning aybi bilan buzilmagan hollarda abonent tomonidan ta'mirlash byurosiga talabnoma berilgan vaqtdan boshlab talabnoma yopilgan paytgacha foydalanuvchi qurilmasining butun ishlamagan vaqti uchun har oylik to'lov hisoblanadigan barcha telefon aloqasi xizmatlari uchun qayta hisob-kitob qilishga;

b) buyurtma bo'yicha xalqaro telefon aloqasidan foydalanganda hamda so'zlashuvlar uchun vaqtbay to'lov tizimi joriy qilinganda so'zlashuvning minimal haq to'lanadigan davomiyligini abonentlar e'tiboriga yetkazishga;

v) texnik sabablarga ko'ra abonent raqamini almashtirish to'g'risida kamida 10 kun oldin abonentni tegishli tarzda xabardor qilishga;

g) mahalliy telefon aloqasi xizmatlarining narxini hisobga olish tizimining o'zgarganligi to'g'risida ommaviy axborot vositalarida va o'zining rasmiy veb-saytida kamida uch oy oldin e'lon qilish;

d) ommaviy axborot vositalarida va o'zining rasmiy veb-saytida yangi tariflar kuchga kirishidan kamida 15 kun oldin universal telefon aloqasi xizmatlariga tariflarni o'zgartirish to'g'risidagi qarorni nashr qilishga;

e) foydalanuvchi qurilmasining uzilishiga olib kelgan buzilishlar bartaraf etilgandan, telefon aloqasi xizmatlariga haq to'lash qarzdorligi tugatilganda va abonent aybi bilan foydalanuvchi qurilmasi ishlamagan vaqti uchun abonent to'lovi kiritilgandan keyin telefon aloqasi xizmatlariga haq to'lanmaganligi yoki foydalanuvchi qurilmasini ekspluatatsiya qilish qoidalari buzilganligi uchun o'chirilgan foydalanuvchi qurilmasini bepul tarmoqqa ulashga;

j) telekommunikatsiyalar tarmog'i orqali ko'rsatilayotgan mahalliy telefon aloqasi xizmatlari kommutatsion qurilmadan telekommunikatsiyalar tarmog'ining kira olish nuqtasidagi abonent rozetkasigacha yoki u mavjud bo'lmaganda foydalanuvchi qurilmasigacha bo'lgan qismiga qadar xizmat ko'rsatishga.

319. Operator (provayder) tomonidan taqdim etiladigan axborotda:

a) operatorning (provayderning) nomi va uning tarkibiy bo'linmalarining nomi, ular joylashgan joy (pochta manzili), bog'lanish uchun telefon raqamlari, rasmiy veb-sayti va ish tartibi;

b) foydalanuvchilarga ko'rsatiladigan universal va qo'shimcha (pullik va bepul) telefon aloqasi xizmatlari ro'yxati;

v) telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish shartlari va tartibi;

g) telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatishdagi cheklovlar;

d) telefon aloqasi xizmatlari uchun tariflar va bu xizmatlarni ko'rsatish hamda haq to'lashdagi imtiyozlar;

e) telefon aloqasi xizmatlariga haq to'lash tartibi va shakllari;

j) yangi ATSnı ekspluatatsiyaga kiritish muddatlari va mavjud ATSlar abonent sig'imini ko'paytirish;

z) shartnomalarni tuzish tartibi, arizalarni qondirish muddatlari va shartnomalarni tuzish navbatining harakati;

i) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida qo'llashga ruxsat berilgan foydalanuvchi qurilmalarining ro'yxati;

k) ma'lumot, favqulodda tezkor xizmatlar va ta'mirlash byurosining telefon raqamlari;

l) foydalanuvchi ushbu Qoidalar bilan tanishishi mumkin bo'lgan joy to'g'risidagi axborot.

Ko'rsatilgan axborot shartnomalarni tuzishda ommaviy axborot vositalari, ma'lumot-axborot xizmatlari yoki telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish joylarida mijozlar bilan o'zaro ishlar xizmatlari orqali ko'rgazmali va foydalanish qulay bo'lgan shaklda bepul abonentlar e'tiboriga yetkaziladi.

320. Operator (provayder) telekommunikatsiyalar vositalari va inshootlaridan foydalanib u tomonidan ko'rsatilgan, ammo ayni damda telefon aloqasi xizmatlari bo'lib hisoblanmagan xizmatlarga (masalan, qo'riqlash signalizatsiyasi, Internet tarmog'i xizmatlari va boshqa) haq to'lanmagan holda abonentning telekommunikatsiyalar tarmog'idan foydalana olishini to'xtatib turishga haqli emas.

321. Operator (provayder) abonent roziligisiz alohida to'lov evaziga ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlar taqdim etilishini talab qilib turib olishga haqli emas.

322. Operator (provayder) tomonidan taksofon orqali telefon aloqa xizmatlari bevosita ko'rsatilgan holda, operator quyidagilarga majburdir:

foydalanuvchini taksofon orqali sifatli telefon aloqa xizmatlaridan foydalanishini ta'minlash;

taksofonlar, kabinalar va yarim kabinalarning soz holatda saqlanishini ta'minlash;

taksofon orqali telefon aloqa xizmatlarini ko'rsatish tartibi va shartlari o'zgarganligi to'g'risidagi axborotni foydalanuvchilarga taqdim etish;

foydalanuvchilar uchun qulay bo'lgan (savdo tarmog'i, aloqa bo'limi va hokazo) joylarda maxsus jeton yoki to'lov kartalari sotilishini ta'minlash;

foydalanuvchilarning shikoyatlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda ko'rib chiqish.

3-§. Mobil aloqa operatorlarining (provayderlarining) majburiyatlari

323. Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishda operator (provayder) quyidagilarga majbur: xizmat ko'rsatish hududi doirasida mobil aloqa xizmatlarini sifatli, o'z vaqtida va kecha-yu kunduz ko'rsatilishini ta'minlash;

abonent shartnomaning bekor qilinishi vaqtigacha qarzini va oldindan to'lovning zarur summasi to'liq hajmda to'laganida abonentga mobil aloqa xizmatlari ko'rsatilishini tiklash;

abonentning yozma (xizmat ko'rsatuvchi operatorning veb-saytida abonentning shaxsiy kabineti orqali) murojaatiga asosan bir yilgacha abonent raqamidan foydalanish davri ichida abonent shaxsiy hisobvarag'idagi o'zaro hisob-kitoblarning joriy holati to'g'risidagi axborotni taqdim etish. Uzoqroq muddat va ushbu axborotni taqdim etish shartlari shartnomada belgilanishi mumkin;

xizmatlar ko'rsatilishi to'xtagan hollarda abonent to'lovini qayta hisoblab chiqish;

SIM-karta yoki foydalanuvchi qurilmasi (SIM-kartadan foydalanish ko'zda tutilmagan mobil aloqa standartlari uchun va eSIM) yo'qolganda abonentning yozma arizasi bo'yicha yoki abonent uchun qulay bo'lgan, operator (provayder) tomonidan o'rnatilgan, boshqa usulda berilgan xabar bo'yicha xizmatlarning ko'rsatilishini zudlik bilan to'xtatish;

abonent-yuridik shaxsga mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun u bilan tuzilgan shartnomaning nusxasini taqdim etish;

abonent-jismoniy shaxsga mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun u bilan tuzilgan shartnomaning nusxasini yoki mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun ommaviy shartnoma tuzilganligining tasdig'ini taqdim etish;

dilerlar uchun operator (provayder) bilan birgalikda ishlashning teng imkoniyatlarini qo'llash;

dilerlar tomonidan ular zimmasiga yuklangan majburiyatlarning qat'iy bajarilishini nazorat qilish, dilerlarga nisbatan u bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq shartnomani bekor qilish va diler sertifikatini qaytarib olishgacha bo'lgan jazo choralarini qo'llash;

dilerlarda xodimlarning minimal soni har bir xizmat ko'rsatish punktiga bittadan xodim, ammo bitta dilerga kamida ikkitadan xodim bo'lganda abonentlarni ulash uchun dilerlarga operatorning (provayderning) tizimidan foydalanishni taqdim etish;

o'zining xizmat ko'rsatish punktlarida tashrif buyuruvchilar xavfsizligini ta'minlash, jumladan, videokuzatuv kameralarini qo'llagan holda (video yozuvni 90 kun saqlagan holda);

dilerlarga amaldagi abonentlar va ularning telekommunikatsiyalar tarmoqlaridagi harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishish va o'zgartirish kiritishga yo'l qo'ymaslik;

o'zini-o'zi obro'sizlantirgan dilerlar bilan shartnomalar tuzmaslik;

o'zining rasmiy veb-saytida dilerlarning ro'yxatini ularning to'liq nomlarini, yuridik manzili va xizmat ko'rsatish punktlarini ko'rsatgan holda yuritish;

o'zining rasmiy veb-saytida rasmiy axborotni, shu jumladan taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxatining o'zgarishi to'g'risidagi axborot, tariflar, prays-varaqlar, xizmatlarni taqdim etish tartibi va shartlarini o'z vaqtida e'lon qilish;

dilerning xodimlariga ushbu Qoidalarining talablari va operator (provayder) hamda diler o'rtasidagi shartnoma shartlariga muvofiq diler tomonidan o'z majburiyatlarini bajarish uchun zarur va yetarli bo'lgan darajada operatorning (provayderning) ma'lumotlar bazasidan shaxsan foydalanishni taqdim etish;

dilerni SIM-kartalar, hujjatlar, shartnomalar, blank mahsulotlari, uning o'z majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bo'lgan axborot-so'rovnoma ma'lumotlar bilan, shuningdek o'z moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, reklama va boshqa materiallar bilan ta'minlash;

ushbu Qoidalarining talablari va operator (provayder) hamda diler o'rtasidagi shartnoma shartlariga muvofiq diler tomonidan o'z majburiyatlarini bajarish uchun zarur va yetarli bo'lgan darajada diler xodimlarini o'qitishni va har ikki yilda malakasini oshirishni tashkil qilish;

diler tomonidan qo'pol qoida buzishlarga yo'l qo'yilganda diler bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq unga nisbatan shartnomani bekor qilish va diler sertifikatini qaytarib olishgacha bo'lgan javobgarlik choralarini qo'llash;

avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha ushbu operatorning (provayderning) beshta va undan ko'p raqamlariga ega abonent-jismoniy shaxs bilan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish

shartnomasini faqat operatorning (provayderning) xizmat ko'rsatish punktlarida tuzilishini ta'minlash;

avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha ushbu operatorning (provayderning) beshta va undan ko'p raqamlariga ega bo'lgan abonent-jismoniy shaxs bilan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzishda yangi ulanish to'g'risida abonentning ushbu operator (provayder) bilan avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha mavjud bo'lgan barcha raqamlariga SMS xabar orqali xabardor qilishni amalga oshirish;

SIM-kartani almashtirish, shuningdek abonentning arizasi bo'yicha raqamni boshqa foydalanuvchi qurilmasiga qayta dasturlash (SIM-kartadan foydalanishni ko'zda tutmaydigan mobil aloqa standartlari uchun) xizmatlarini ko'rsatish faqat operatorning (provayderning) xizmat ko'rsatish punktlarida amalga oshirilishini ta'minlash;

diler orqali tuzilgan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi asosida abonentga mobil aloqa xizmatlarini taqdim etish;

abonent to'g'risidagi ma'lumotlar onlayn rejimida operatorning (provayderning) ma'lumotlar bazasiga kiritilgandan keyin bir hafta muddatdan kechiktirmasdan dilerdan tuzilgan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi nusxasini, abonent shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarning nusxasini tegishli hujjatlar bilan birga olish. Hujjatlarni olishning boshqa muddati uzoqda va yetib borish qiyin bo'lgan hududlarda joylashgan dilerlar uchun dilerlik shartnomasida operator (provayder) tomonidan haqiqiy imkoniyatlardan kelib chiqib transport infratuzilmasining mavjudligini hisobga olgan holda belgilanishi mumkin;

o'zini-o'zi obro'sizlantirgan dilerlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, operatorning (provayderning) mijozlariga xizmat ko'rsatish huquqini beruvchi diler sertifikatdan mahrum qilingan dilerning rekvizitlari, ta'sischilari va boshqa ma'lumotlarni ko'rsatgan holda O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasiga markazlashtirilgan onlayn bazaga kiritish uchun darhol yuborish;

o'zining rasmiy veb-saytida mobil aloqa xizmatlarining turlari va standartlari bo'yicha xizmat ko'rsatish hududini namoyish etuvchi interaktiv onlayn elektron kartani, shuningdek aholi punktlarining ro'yxatini yuritish;

xalqaro trafikning noqonuniy o'tkazilishi hamda GSM, IP yoki SMS-shlyuzlardan yashirin foydalanishga qarshi choralarni ko'rish, shu jumladan tarmoqda maxsus apparat-dasturiy vositalarni o'rnatish yo'li bilan;

operatorning (provayderning) mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysunishidan qat'iy nazar tartibga soluvchi organ topshirig'i bilan ajratiladigan qisqa raqamlarni sozlash bo'yicha tegishli ishlarni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi hududida GSM standartida ishlaydigan barcha operator (provayder) KRMBga ulanish;

abonent tomonidan donorga rouming xizmatlari uchun aniqlangan qarzдорlik to'lanmagan taqdirda xizmat ko'rsatishni to'xtatib qo'yish;

abonentning operator tarmoqlarida abonent raqamini ko'chib o'tish xizmatidan foydalanish huquqiga to'sqinlik qilmaslik;

muntazam ravishda o'z telekommunikatsiyalar tarmoqlarida xalqaro trafikni o'tkazish tartibi buzilishlarining oldini olish, aniqlash va tugatishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish va abonentning harakatlarini tahlil qilish yoki tegishli tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan abonent raqamlarini faol aniqlash prinsiplariga asoslangan vositalar va tizimlarni qo'llash.

324. Operator (provayder) abonentlarga quyidagi axborotlarni abonentlarga bepul taqdim etishga majbur (shu jumladan, dilerlar orqali):

mobil aloqa tarmoqlarida foydalanuvchi qurilmasidan foydalanish imkoniyati to'g'risida;

ko'rsatilayotgan xizmatlarning ro'yxati, shuningdek ularni ko'rsatish tartibi va shartlari o'zgarganligi to'g'risida;

xizmat ko'rsatish hududi o'zgarganligi to'g'risida;

xizmatlarga tariflar o'zgarganligi to'g'risida yangi tariflar joriy qilingunga qadar kamida 15 kun oldin ommaviy axborot vositalari, o'zining rasmiy veb-sayti yoki SMS orqali majburiy tartibda xabardor qilish;

operatorning (provayderning) xizmat ko'rsatish punktlari ish rejimi o'zgarganligi to'g'risida;

o'z rekvizitlarining o'zgarganligi to'g'risida;

SMS, shuningdek abonentlarning USSD so'rovlariga USSD xabarlarini jo'natish yo'li orqali bepul yoki imtiyozli daqiqalar, SMS, Internet trafik va boshqa xizmatlarning tugaganligi to'g'risida.

325. Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishda diler quyidagilarga majbur:

xizmat ko'rsatish punktlarini faqat operator, provayder yoki dilerning tasarrufida, xo'jalik yurituvda, tezkor boshqaruvida yoki ijarasida bo'lgan binoda, binoning qismida, shuningdek statsionar savdo nuqtalarining jihozlangan savdo joylarida va savdo faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan va bir yoki bir nechta ish joylari uchun mo'ljallangan savdo zallariga ega hududlarda joylashtirish. Dilerning xizmat ko'rsatish punktini statsionar bo'lmagan savdo obyektlariga joylash taqiqlanadi;

dilerning barcha xizmat ko'rsatish punktlarida dilerlik xizmatlarini taqdim etish huquqi to'g'risidagi diler sertifikatining asl nusxasi bor bo'lishini va ko'rinadigan joyga qo'yilishini ta'minlash;

dilerning barcha xizmat ko'rsatish punktlarini malakali xodimlar bilan to'ldirish;

diler tomonidan xizmat ko'rsatish punktlarida operator (provayder) axborotiga ko'ra avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha ushbu operatorning (provayderning) beshta va undan ko'p raqamlariga ega bo'lgan abonent-jismoniy shaxs bilan operatorning (provayderning) mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzishga yo'l qo'ymaslik;

dilerning xizmat ko'rsatish punktlarida SIM-kartani almashtirish xizmatlarini ko'rsatishga yo'l qo'ymaslik (uzoq va yetib borish qiyin bo'lgan hududlardagi dilerning xizmat ko'rsatish punktlari bundan mustasno);

abonent ma'lumotlari onlayn rejimida operatorning (provayderning) ma'lumotlar bazasiga kiritilgandan keyin bir hafta muddatdan kechiktirmay operatorga (provayderga) abonent bilan tuzilgan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi nusxasini, abonent shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarining nusxasini tegishli hujjatlar bilan birga operatorga

(provayderga) taqdim etish. Hujjatlarni taqdim etishning boshqa muddati uzoqda va yetib borish qiyin bo'lgan hududlarda joylashgan dilerlar uchun dilerlik shartnomasida operator (provayder) tomonidan real imkoniyatlardan kelib chiqib transport infratuzilmasining mavjudligini hisobga olgan holda belgilanishi mumkin;

abonentlarning SIM-karta yoki foydalanuvchi qurilmasi (SIM-kartadan foydalanishni ko'zda tutmaydigan mobil aloqa standartlari uchun) yo'qolganligi to'g'risida yozma arizalarini qabul qilish va tegishli axborotni operatorga (provayderga) yuborish;

dilerning xizmat ko'rsatish punktlarida tashrif buyuruvchilarning xavfsizlik choralari ta'minlash, shu jumladan videokuzatuv kameralarini qo'llab videoyozuv va tovushni kamida 90 kun saqlagan holda;

326. Diler abonentlarga operatorning (provayderning) quyidagi axborotini taqdim etishga majbur:

mobil aloqa tarmog'ida foydalanuvchi qurilmasidan foydalanish imkoniyati to'g'risida; ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxatining, shuningdek ularni ko'rsatish tartibi va shartlarining o'zgarishi to'g'risida;

operatorning (provayderning) xizmat ko'rsatish hududi o'zgarishi to'g'risida;

abonentlarga xizmat ko'rsatish punktlari ish rejimining o'zgarishi to'g'risida;

operator (provayder) rekvizitlarining o'zgarishi to'g'risida;

avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha ushbu operatorning (provayderning) beshta va undan ko'p raqamlariga ega bo'lgan abonent-jismoniy shaxs bilan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzishda bunday abonentni faqat operatorning (provayderning) xizmat ko'rsatish punktlarida ulanishini ko'zda tutadigan cheklovlar to'g'risida;

SIM-kartani almashtirish xizmatlarini faqat operatorning (provayderning) xizmat ko'rsatish punktlarida ko'rsatish bo'yicha cheklovlar to'g'risida.

327. Dilerning xodimlari tomonidan yo'l qo'yilgan qoida buzishlar uchun ular bilan bir qatorda dilerlik xizmati ko'rsatish punktining bevosita rahbari va diler-yuridik shaxsning rahbari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

328. Diler tomonidan ushbu Qoidalar va operator (provayder) bilan tuzilgan shartnoma talablarining qo'pol buzilishiga yo'l qo'yilishi u bilan dilerlik shartnomasini bekor qilish va dilerni o'zini o'zi obro'sizlantirgan dilerlar reyestriga kiritish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Abonentning xabari bo'lmagan yoki uning roziligisiz, imzolarni qalbakilashtirib, soxta hujjatlar bo'yicha, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarning asl nusxasini tekshirmasdan abonent shartnomasining rasmiylashtirilishi qo'pol qoida buzish hisoblanadi.

4-§. Operatorlar va provayderlarning ma'lumotlar uzatish xizmatlarini ko'rsatishdagi majburiyatlari

329. Operator va provayderlar ma'lumot uzatish xizmatlarini ko'rsatishda quyidagilarga majbur:

a) Wi-Fi xizmati ko'rsatish vaqtida foydalanuvchilarning shaxsini identifikatsiyalash hamda foydalanilgan Internet tarmog'ining veb-resurslari (log-fayllar) hisobini qonunchilik

hujjatlarida belgilangan tartibda yuritish bo'yicha apparat-texnik chora-tadbirlar ko'rish va ularni 3 oy ichida saqlanishini tashkillashtirish;

b) abonentlarga o'zining veb-saytida va (yoki) ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda, shuningdek abonentlar va foydalanuvchilar bilan ishlash joylarida quyidagi axborotlarni taqdim etish:

xizmatlarni ko'rsatish tartibi va shartlari o'zgarganligi, shu jumladan xizmatlar uchun tariflar o'zgarganligi to'g'risida o'zgartirishlar kuchga kirishidan kamida 15 kun oldin ommaviy axborot vositalari, o'zining rasmiy veb-sayti yoki SMS orqali xabardor qilish;

ish vaqti, pochta manzili va bank rekvizitlari o'zgarganligi to'g'risida tegishli o'zgarishlar kiritilgan vaqtdan boshlab;

v) shartnomaning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi, shuningdek abonentning arizasiga ko'ra xizmatlar ko'rsatilmaganligi yoki shartnomada belgilangan darajadagi sifatga ega xizmatlar ko'rsatilmaganligi uchun qayta hisob-kitob qilish;

g) abonentning joriy holati, shu jumladan ma'lumotlar uzatish vaqti, tezligi, olingan va (yoki) uzatilgan axborotning hajmi to'g'risida batafsil axborotni taqdim etish;

d) xalqaro trafik noqonuniy o'tkazish (shu jumladan GSM, IP yoki SMS-shlyuzlardan), shuningdek tarmoqda maxsus apparat-dasturiy vositalarini o'rnatish yo'li bilan noqonuniy foydalanishga qarshi kurashish choralari ko'rish;

e) abonentga xizmatni shartnomada ko'rsatilgan manzilda ko'rsatishni ta'minlash.

330. Operatorlarga (provayderlarga) xizmatlarga ulanish uchun ariza kelib tushganda quyidagi muddatlarda ish ko'rishi kerak:

texnik imkoniyatni o'rganish va texnik imkoniyat bo'lmagan taqdirda ariza beruvchiga asoslangan rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan javobini berish 7 kundan oshmasligi kerak;

texnik imkoniyat bo'lganda shartnoma tuzilgan kundan boshlab 10 ish kunida ulanishni amalga oshirish;

texnik imkoniyat bo'lmaganda, yangi tarmoqlarni ariza beruvchining hisobidan o'tkazilishini hisobga olgan holda pudrat shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab 180 kungacha bo'lishi kerak.

Operator (provayder) abonentni haq to'lash evaziga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishga yoki ma'lum bir xizmatni ko'rsatish uchun boshqa xizmatlarni olishga majburlashga, shuningdek abonentdan ko'rsatilmagan xizmatlar uchun to'lov undirishga haqli emas.

5-§. Eshittiruvchilar, operatorlar va provayderlarning televideniye xizmatlarini ko'rsatishdagi majburiyatlari

331. Eshittiruvchi amalga oshiradigan faoliyati turiga ko'ra quyidagilarga majbur:

o'z faoliyatini qonunchilik hujjatlari, mualliflik shartnomalari, shuningdek mazkur Qoidalar asosida amalga oshirishga;

chet el ommaviy axborot vositalarining dasturlari yoki mahsulotlarini tegishli qonunchilik hujjatlari va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari talablari asosida tarqatishga;

efirga chiqishda, uzluksiz eshittirishlarda esa, bir kecha-kunduzda kamida to'rt marta teng taqsimlagan holda o'z nomini e'lon qilishga;

har haftalik televideniye dasturlari to'g'risidagi axborotni Internet tarmog'ida e'lon qilish yo'li bilan abonentlarga yetkazishga.

332. Televideniye xizmatlarini ko'rsatishda operator quyidagilarga majbur:

o'z faoliyatini qonunchilik hujjatlari, mualliflik shartnomalari, shuningdek mazkur Qoidalar asosida amalga oshirishga;

eshittiruvchining televideniye dasturlarini o'zgartirish va qo'shimchalarsiz translyatsiya qilishga;

televideniye tarmog'ining texnik holatini mazkur tizimlarni loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlari talablariga muvofiq tarzda saqlashga;

ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini amaldagi standartlarga muvofiq ta'minlashga.

333. Televideniye xizmatlarini ko'rsatishda provayder quyidagilarga majbur:

o'z faoliyatini qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirishga;

televideniye dasturlarining o'zgartirish va qo'shimchalarsiz uzatilishini ta'minlashga;

uy yoki xonadon ichidagi televideniye tarmoqlarining texnik holatini mazkur tizimlarni loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlari talablariga muvofiq saqlashga;

ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini amaldagi standartlarga muvofiq ta'minlashga.

6-§. Provayderlarning taksofon xizmatini ko'rsatishdagi majburiyatlari

334. Taksofon xizmatini ko'rsatishda provayderlar quyidagilarga majbur:

o'z faoliyatini qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirishga;

telekommunikatsiyalar tarmog'idan foydalanish uchun operatorga to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishga;

operatorning ish sifatini pasaytirishga yoki telekommunikatsiyalar tarmoqlarini shikastlantirishga qaratilgan xatti-harakatlar qilmaslikka;

foydalanuvchining taksofon orqali sifatli telefon aloqa xizmatlaridan foydalanishini ta'minlashga;

taksofonlar, kabinalar va yarim kabinalar soz holatda saqlanishini ta'minlashga;

taksofon orqali telefon aloqa xizmatlarini ko'rsatish tartibi va shartlari o'zgarganligi to'g'risidagi axborotni foydalanuvchilarga taqdim etishga;

foydalanuvchilar uchun qulay bo'lgan (savdo tarmog'i, aloqa bo'limi va hokazo) joylarda maxsus jeton yoki to'lov kartalari sotilishini ta'minlashga;

foydalanuvchilarning shikoyatlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda ko'rib chiqishga.

IV bo'lim. Abonentlar va foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari

1-bob. Abonentlar va foydalanuvchilarning huquqlari

1-§. Abonentlar va foydalanuvchilarning umumiy huquqlari

335. Jismoniy yoki yuridik shaxs operator yoki provayder bilan shartnoma tuzishdan oldin operator yoki provayderdan:

taqdim etiladigan asosiy va qo'shimcha telekommunikatsiyalar xizmatlari ro'yxati;

taqdim etiladigan telekommunikatsiyalar xizmatlari narxi va tariflar;

aloqani va abonentning telekommunikatsiyalar tarmog'idan foydalana olishni tashkil qilish usullari;

ulanish va xizmat ko'rsatish tartibi;

telekommunikatsiyalar xizmatlarini taqdim etish qoidalari;

kafolatlangan xizmat ko'rsatish darajasi, sifat darajasi, operator (provayder) serverida abonent axborotining himoyalanganligini ta'minlashning kafolatlangan darajasi va boshqa ma'lumotlarni, axborotlarni olishga haqli.

336. Abonentlar va foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga ega:

a) umumiy foydalanish telekommunikatsiyalar tarmog'idagi xizmatlardan foydalanish uchun operator va provayderlar bilan shartnomalar tuzish;

b) o'z foydalanuvchi qurilmasini ushbu Qoidalar va qonunchilik hujjatlarida belgilangan shartlar va tartibda tarmoqqa ulash;

d) operator (provayder) ushbu Qoidalarda belgilangan majburiyatlarini, shuningdek uning telekommunikatsiyalar tarmoqlari xizmatlarini taqdim etish shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajarishini hamda o'z vaqtida sifatli xizmat ko'rsatilishini talab qilish;

e) shartnomada ko'zda tutilgan telekommunikatsiyalar xizmatlaridan amaldagi tariflarga, xizmatlarning tavsifi va xizmatlar sifatiga muvofiq, shuningdek operator (provayder) tomonidan ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlardan foydalanish;

f) operator (provayder) telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish uchun shartnomada belgilangan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish;

g) operator (provayder) tomonidan shartnomada kelishilgan shartlar buzilgan holda telekommunikatsiyalar xizmatlaridan voz kechish va operator (provayder) bilan shartnomani qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilish;

h) telekommunikatsiyalar xizmatlari ko'rsatilmaganligi yoki tegishli sifatga ega bo'lgan xizmatlar ko'rsatilmasligi natijasida operator (provayder) tomonidan yetkazilgan zarar o'rining qoplanishini talab qilish, ustidan shikoyat qilish, hamda ma'naviy zarar o'rining to'ldirilishini talab qilish;

i) abonent va foydalanuvchilar operator (provayder) tomonidan telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish muddatlari buzilganda, agar shartnomani o'z vaqtida bajarish boshlanmagan yoki ishlar (xizmatlar) shartnomada belgilangan muddatda bajarilmasligi ayon bo'lganda, shuningdek bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar sifati shartnoma shartlarida belgilanganidan past darajada bo'lganda, kamchiliklarini bepul bartaraf etish, operator (provayder) bilan kelishuv bo'yicha telekommunikatsiyalar tarmog'i xizmati ko'rsatilishi

mumkin bo'lgan yangi muddatni belgilash, telekommunikatsiyalar tarmog'i xizmatining narxini qayta hisoblashni talab qilish;

j) qonunchilik hujjatlarida ko'zda tutilgan imtiyozlar va afzalliklar berilishini talab qilish, imtiyozlar huquqini beruvchi hujjatlar taqdim etilgandan boshlab imtiyozlar va afzalliklar amal qiladi, shuningdek shartnomaga tegishli o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish;

k) shartnomada ko'zda tutilmagan va abonent yoki foydalanuvchi tomonidan talab qilinmagan telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun haq to'lashni rad etish;

l) favqulodda tezkor xizmatlarni (yong'in-qutqaruv bo'linmalarini, ichki ishlar organlarini, tez tibbiy yordamni, gaz tarmog'ining avariya xizmatini va boshqa xizmatlarni) chaqirishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasining ishonch telefonlariga qo'ng'iroqlarni amalga oshirishda, shuningdek shartnomada ko'zda tutilgan hollarda telekommunikatsiyalar xizmatlaridan bepul foydalanish;

m) unga rozilgisiz taqdim etilgan telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun to'lovni to'lashni rad etish;

n) operator (provayder) tomonidan taqdim etilayotgan telekommunikatsiyalar xizmatlari bo'yicha arizalar, takliflar va e'tirozlar bilan operatorga (provayderga) murojaat etish;

o) mobil ilovada ro'yxatdan o'tgan holda operator (provayder) bilan o'zaro munosabat o'rnatish;

p) agar telekommunikatsiyalar xizmatini ko'rsatish muddatlariga rioya qilmaslikka yengib bo'lmaydigan kuch sabab bo'lgan bo'lsa, operator (provayder) bilan kelishib telekommunikatsiyalar xizmatini bajarishning yangi muddatini belgilash, bu haqda telekommunikatsiyalar xizmatini bajarish uchun belgilangan muddat tugaguniga qadar abonentga yoki foydalanuvchiga xabar qilinadi;

q) ularning huquqlari buzilganda vakolatlangan davlat organlariga yoki sudga murojaat qilish;

r) belgilangan tartibda operatorning (provayderning) rasmiy veb-saytlarida ro'yxatdan o'tish va taqdim etilayotgan interaktiv xizmatlardan foydalanish;

s) istalgan amaldagi tarif rejasiga bepul o'tish, bundan foydalanuvchilarning muayyan guruhiga yoki ma'lum cheklangan hudud uchun ishlab chiqilgan alohida tarif rejalariga o'tish mustasno.

337. Axborot-ma'lumot xizmatlarini yoki ma'lumot xizmatlarini ko'rsatish jarayonida kamchiliklar aniqlanganda abonentlar va foydalanuvchilar o'z tanlovi bo'yicha quyidagilarni talab qilishga haqli:

axborot-ma'lumot xizmatlari va ma'lumot xizmatlarining kamchiliklarini bepul bartaraf etish;

telekommunikatsiyalar xizmatlari ko'rsatilmaganligi yoki lozim darajada bo'lmagan sifatli telekommunikatsiyalar xizmatlari ko'rsatilmaganligi natijasida yetkazilgan zararlar o'rnini to'ldirish, ma'naviy zararlarning kompensatsiya qilish.

338. Foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

a) jamoat foydalanish joyining internet-provayderi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalana olishga;

b) jamoat foydalanish joyining internet-provayderi tomonidan o'z vaqtida va sifatli xizmat ko'rsatilishiga;

d) jamoat foydalanish joyining internet-provayderi tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar sifatining yomonlashishiga yoki boshqa oqibatlarga olib keladigan katta kamchiliklarga yo'l qo'yilgan holda foydalanuvchi o'z xohishi bilan quyidagilarni talab qilishga haqli:

kamchiliklarni bepul bartaraf etish;

taqdim etilgan xizmatlarning narxini mos ravishda kamaytirish;

xizmatlarni takroran taqdim etish;

shartnomani bekor qilish;

ular huquqlari buzilgan holda vakolatlangan davlat organlariga yoki sudga murojaat qilish.

339. Foydalanuvchi jamoat foydalanish joyining internet-provayderidan quyidagi axborotni olish huquqiga ega:

jamoat foydalanish joyining firma nomi;

jamoat foydalanish joyining joylashgan joyi (yuridik manzili);

jamoat foydalanish joyining ish rejimi;

taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxati;

taqdim etiladigan xizmatlar narxi, tariflar;

xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha boshqa axborotni.

Abonent va foydalanuvchi qonunchilik hujjatlarida va ushbu Qoidalarda belgilangan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

2-§. Telefon aloqa xizmatlari abonentlari va foydalanuvchilarining huquqlari

340. Telefon aloqa xizmatlari abonentlari va foydalanuvchilari quyidagi huquqlarga ega:

abonentning aybisiz aloqa bo'lmagan davrda ta'mirlash byurosida uning talabnomasi mavjud bo'lganida, shuningdek foydalanuvchining arizasisiz qo'shimcha pullik xizmatlar va boshqalar taqdim qilinganda telefon aloqasi xizmatlari uchun to'lovlarni qayta hisoblashni yoki ushbu xizmatlardan foydalanganlik uchun pul mablag'larining qaytarilishini talab qilish;

mahalliy telefon aloqasi xizmatlari uchun vaqtbay to'lov tizimidan foydalangan holda to'langan davr uchun hisob taqdim etilganda alohida to'lov evaziga bo'lib o'tgan telefon bog'lanishlar rasshifrovkasini (hisobning batafsil tavsifini) talab qilish.

341. Telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish muddatlari buzilganda abonent o'z tanloviga ko'ra:

operatorga shaharlararo va xalqaro telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish kerakligi davomida yangi muddatni tayinlash va ushbu xizmatning narxini pasaytirishni talab qilish;

shartnomani bekor qilish va zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

342. Agar operator telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish jarayonida kamchiliklarga yo'l qo'ysa, abonent o'z xohishiga ko'ra quyidagilarni talab qilish huquqiga ega:

telefon aloqasi xizmatlarining kamchiliklarini bepul bartaraf etishga;

telefon aloqasi xizmatlarini qayta taqdim etishga;
xalqaro, shaharlararo va mahalliy telefon aloqasi xizmatlarining narxlarini kamaytirishga;
yetkazilgan zararlarni qoplash bilan shartnomani bekor qilishga.

3-§. Telegraf aloqa xizmatlari foydalanuvchilarining huquqlari

343. Foydalanuvchi aloqa korxonasining ishlash tartibi, ko'rsatilayotgan xizmatlar, telegrammalarning o'tish muddatlari, telegraf aloqa xizmatlarini ko'rsatish qoidalar va ushbu xizmatlar uchun tariflar bo'yicha kerakli va ishonchli axborotni talab qilishga haqli.

4-§. Taksofon orqali telefon aloqa xizmatlari foydalanuvchilarining huquqlari

344. Taksofon orqali telefon aloqa xizmatlari foydalanuvchilari quyidagi huquqlarga ega:

taksofonlarni ekspluatatsiya qiluvchi operatorni (provayderni) taksofonlarning sifatsiz ishlashi, kabina va yarim kabinalarining qoniqarsiz holati to'g'risida arz qilish;

taksofon orqali telefon aloqa xizmatlarini taqdim etish bilan bog'liq takliflar va da'volar bilan operatorga (provayderga) murojaat qilish;

operatorning (provayderning) aybi bilan telefon aloqa xizmatlari ko'rsatilmaganligi yoki sifatsiz ko'rsatilganligi natijasida keltirilgan zarar o'rnini qoplanishini talab qilish.

5-§. Mobil aloqa xizmatlari abonentlari va foydalanuvchilarining huquqlari

345. Mobil aloqa xizmatlari abonentlari va foydalanuvchilari quyidagi huquqlarga ega:

barcha xizmatlar turlari bo'yicha batafsil hisobni barcha amalga oshirilgan ulanishlarning sanasi va vaqti, ularning davomiyligi va abonent raqamlarini ko'rsatgan holda abonent raqamidan foydalangan bir yilgacha davr uchun operator (provayder) tomonidan belgilangan tartib va shartlarda olish. Ushbu axborotni taqdim etishning kattaroq muddati va shartlari shartnomada belgilanishi mumkin;

ushbu Qoidalar va shartnomalar shartlariga rioya qilgan holda, shuningdek muayyan hududda (aeroport, samolyot, antenna maydoni va boshqalar) amal qiladigan alohida qoidalarini hamda to'sqinlik qilishi yoki xavfli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarda (tibbiyot muassasalari, yoqilg'ini saqlash va qayta yuklash hududi, portlash ishlarini o'tkazish joylarida va boshqalar) cheklanishlarni hisobga olgan holda, texnik talablarga mos bo'lgan foydalanuvchi qurilmasidan foydalanish;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda operator (provayder) tarmoqlarida abonent raqamini ko'chib o'tish xizmatidan foydalanishi.

2-bob. Abonentlar va foydalanuvchilarning majburiyatlari

1-§. Abonentlar va foydalanuvchilarning umumiy majburiyatlari

346. Abonentlar va foydalanuvchilar quyidagilarga majbur:

- a) operator (provayder) bilan tuzilgan shartnoma shartlariga rioya qilishga;
- b) unga tegishli bo'lgan foydalanuvchi qurilmasi yordamida ko'rsatiladigan telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun shartnomada belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda to'lovni to'lashga;
- v) telekommunikatsiyalar tarmog'idan davlat siri bo'lgan ma'lumotlarni yoki qonunchilik bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni uzatish uchun foydalanishga yo'l qo'yimaslikka;
- g) telekommunikatsiyalar tarmog'i orqali O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat etishga, urush, zo'ravonlik va terrorizmni, shuningdek, diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g'oyalarini targ'ib qilishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atuvchi, shuningdek pornografiyani targ'ib qilishga qaratilgan axborotni va tarqatilishi qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlangan boshqa axborotni tarqatmaslikka;
- d) telekommunikatsiyalar tarmog'i yordamida fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'yuvchi axborotni tarqatmaslikka;
- e) qonunchilik hujjatlariga asosan telekommunikatsiyalar tarmog'i orqali tarqatilishi taqiqlangan axborotlardan tijorat yoki notijorat maqsadlarda tarqatish uchun foydalanmaslikka;
- j) telekommunikatsiyalar tarmoqlari ish sifatining pasayishiga yoki telekommunikatsiyalar tarmoqlarining shikastlanishiga olib keladigan harakatlarni bajarmaslikka;
- z) operatorni (provayderni) o'zining foydalanuvchi qurilmasi, tarmog'i va dasturiy ta'minotidagi barcha nosozliklar yoki o'zgarishlar to'g'risida xabardor qilishga;
- i) o'z xonalarida joylashgan abonent tarmog'i va foydalanuvchi qurilmasini texnik hujjatlar qoidalariga rioya qilishga;
- k) ma'lumotlar bazalaridan ruxsatsiz foydalanmaslikka va operatorning (provayderning) dasturiy vositalarini o'zgartirmaslikka;
- l) operatorga (provayderga) yetkazilgan zararni qonunchilik hujjatlariga muvofiq qoplashga;
- m) tarkibida kompyuter viruslari yoki tarmoq uchun zarar yetkazishi mumkin bo'lgan axborotni yoki dasturiy ta'minotni e'lon qilmaslik yoki uzatmaslikka;
- n) kompyuter axborotidan, ya'ni axborot-hisoblash tizimlari, tarmoqlari va ularning tarkibiy qismlaridagi axborotlardan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanmaslikka;
- o) telekommunikatsiyalar tarmog'ida taqdim etilgan axborot va intellektual mulk obyekti uchun mualliflik huquqlarini buzmaslikka;
- p) televideniye tarmoqlarida boshqa shaxslarning beriladigan signalga ulanish holatlariga yo'l qo'yimaslikka;
- r) operator (provayder) vakillariga ularni tekshirish, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish uchun telekommunikatsiyalar inshootlari va qurilmalari joylashgan hududlarga kirishni ta'minlashga.

347. Abonent va foydalanuvchiga qonunchilik hujjatlarida va ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

2-§. Telefon aloqa xizmatlari abonentlari va foydalanuvchilarining majburiyatlari

348. Telefon aloqa xizmatlari abonentlari va foydalanuvchilari quyidagilarga majbur: operator (provayder) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq telefonlashtirilgan turar-joydan ko'chish, sotish, almashtirish, ijaraga berish, ijaraga (ikkilamchi ijaraga) olish, familiya, turar-joy manzili, rekvizitlari, korxona nomining o'zgarishi, telefon aloqasi xizmatlariga to'lash va ko'rsatish bo'yicha imtiyozlarni olish yoki yo'qotgan hollarda bir oy muddat ichida operator (provayder) bilan shartnomani qayta rasmiylashtirish yoki bekor qilishga; abonent liniyasini va qurilmasini o'z uyida yaxshi holatda saqlashga.

Yakka tartibda foydalanadigan telefonga ega abonent, shuningdek tashkilotlardagi (shu jumladan, mehmonxonalar, yotoqxonalar, sanatoriylar, dam olish uylari, chet el vakolatxonalari va xalqaro tashkilotlar) telefon egalari ularning telefonlaridan amalga oshirilgan mahalliy va xalqaro telefon bog'lanishlarga haq to'lash uchun javobgar bo'ladi.

3-§. Taksofon orqali telefon aloqa xizmatlari foydalanuvchilarining majburiyatlari

349. Taksofon orqali telefon aloqa xizmatlari foydalanuvchilari quyidagilarga majbur: taksofondan foydalanish bo'yicha yo'riqnomaga muvofiq foydalanish, taksofonlar, kabinalar yoki yarim kabinalarning shikastlanishiga yo'l qo'ymaslikka; taqdim etilgan so'zlashuv to'lovi uchun taksofonlarning ushbu tipi uchun mo'ljallangan naqd pul va naqd pulsiz to'lov vositalaridan (maxsus jeton, to'lov kartasi) foydalanishga.

4-§. Ma'lumot uzatish xizmatlari abonentlari va foydalanuvchilarining majburiyatlari

350. Ma'lumot uzatish xizmatlari abonentlari va foydalanuvchilari quyidagilarga majbur: telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish uchun GSM, IP yoki SMS-shlyuzlar yoki shunga o'xshash apparat-dasturiy vositalardan foydalanish niyati bo'lganda, bu haqda operatorni (provayderni) ogohlantirishga; ma'lumotlar uzatish tarmog'idan xalqaro trafikni noqonuniy o'tkazish maqsadida foydalanmaslikka, shu jumladan GSM va IP-shlyuzlar orqali.

5-§. Mobil aloqa xizmatlari abonentlari va foydalanuvchilarining majburiyatlari

351. Mobil aloqa xizmatlari abonentlari va foydalanuvchilari quyidagilarga majbur: a) SIM-karta yoki foydalanuvchi qurilmasi (SIM-kartadan foydalanish ko'zda tutilmagan mobil aloqa standartlari uchun va eSIM) yo'qolganligi to'g'risida operatorning (provayderning) Call-markaziga zudlik bilan qo'ng'iroq qilib xabar qilish, keyinchalik operatorga (provayderga) yoki diler orqali yozma arizani taqdim qilgan holda. Abonent

tomonidan ushbu shartlarga rioya qilinmagan holda u yo'qotilgan SIM-karta yoki foydalanuvchi qurilmasidan (SIM-kartadan foydalanish ko'zda tutilmagan mobil aloqa standartlari uchun va eSIM) foydalangan holda olingan operator (provayder) tomonidan ko'rsatilgan mobil aloqa xizmatlariga to'lov bo'yicha operator (provayder) abonentning ular yo'qolganligi va xizmatlar ko'rsatishni to'xtatish istagi to'g'risidagi arizasini olgan vaqtigacha majburiyatga ega, agar xabar qilishning abonent uchun qulay bo'lgan boshqa usuli operator (provayder) tomonidan ko'zda tutilmagan bo'lsa;

b) ma'lumotlar o'zgargani haqida operatorga (provayderga) 15 kun ichida xabar berishga;

jismoniy shaxs uchun – familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi yoki turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olinganligi va shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari haqiqiy hujjatni taqdim etgan holda yoxud uning vakili tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarning asl nusxasi va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnomani taqdim etish yo'li bilan;

yuridik shaxs uchun – nomi (firma nomi), yuridik manzili o'zgarganligi, shuningdek yuridik shaxs tugatilganligi to'g'risida xabar qilishga;

d) mobil aloqa xizmatlari ko'rsatish shartnomasini tuzayotganda ushbu operator (provayder) bilan avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha aktiv raqamlarning mavjudligi to'g'risida xabar qilishga;

e) mobil aloqaning ayrim xizmatlari yoki mobil aloqa xizmatlarining to'plamlari uchun operator (provayder) tomonidan belgilangan shartlarga muvofiq maxsus tariflar (tarif rejaları)dan maqsadli foydalanishni ta'minlashga;

f) olingan abonent raqamidan GSM, IP yoki SMS-shlyuzlarda yoki analog uskunalarda foydalanish yoki telekommunikatsiyalar xizmatlari ko'rsatish yoki ommaviy SMS jo'natmalar uchun foydalanish istagi bo'lganda, buni oldindan operator (provayder) bilan kelishishga;

g) shartnoma tuzishda olinadigan raqam (SIM-karta) birga foydalaniladigan foydalanuvchi qurilmasining asosiy turlari (uyali telefon, USB-modem, elektr energiyasi/suv/gaz hisoblagichlari, onlayn to'lov terminallari, GSM, IP yoki SMS shlyuzlar yoki uskunaning boshqa turlari)ni ko'rsatishga;

h) abonent raqamidan shaxsiy maqsadlarda yoki ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun (yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar uchun) foydalanish, spamga, firibgarlikka, operator (provayder) bilan oldindan kelishmasdan ommaviy SMS-jo'natmalarga, shuningdek, boshqa noqonuniy foydalanishga yo'l qo'ymaslikka;

i) abonent raqamidan xalqaro trafikni noqonuniy o'tkazish uchun foydalanmaslik, shu jumladan, GSM va IP shlyuzlardan foydalangan holda.

j) o'rnatilgan himoya tizimlarini chetlab o'tgan holda telekommunikatsiyalar tarmog'idan foydalanish hamda xalqaro trafikni o'tkazish maqsadida telekommunikatsiyalar tarmog'idan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanmaslikka, shuningdek mazkur maqsadlar uchun mo'ljallangan maxsus dasturiy yoki apparat vositalarini qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) saqlash va ularning faoliyatiga yo'l qo'ymaslik;

k) abonent raqami ko'chirilgan taqdirda, donor bilan tuzilgan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi bo'yicha mobil aloqa tarmog'i xizmatlari uchun mavjud qarzni to'lashga.

V bo‘lim. Ko‘rsatilgan telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun hisob-kitoblar va to‘lovlar

1-bob. Telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun hisob-kitoblar va to‘lovlar

352. Telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun tariflar qonunchilik hujjatlariga muvofiq shakllantiriladi va tartibga solinadi.

Televideniye va radioeshittirish dasturlarini uzatish va tarqatish tasdiqlangan amaldagi tarif (preyskurant) asosida ko‘rsatiladi.

353. Foydalanuvchilarning ayrim toifalari uchun telekommunikatsiyalar xizmatlariga haq to‘lash va telekommunikatsiyalar tarmog‘idan foydalanishni taqdim etish bo‘yicha imtiyozlar belgilanishi mumkin.

354. Telekommunikatsiyalar xizmatlariga haq to‘lash shakli va tartibi taraflar o‘rtasida tuziladigan telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomada belgilanadi.

Telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun hisob-kitoblarni bu xizmatlarni ko‘rsatgan operator (provayder, eshittiruvchi) yoki shartnoma asosida ular tomonidan vakolatlangan shaxs olib boradi.

355. Telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun tariflarni belgilash, hisob-kitoblar va barcha to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida amalga oshiriladi.

Ko‘rsatilgan telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun hisob-kitoblarni amalga oshirishda xorijiy valyutadan, shuningdek xorijiy valyutadagi to‘lov hujjatlaridan foydalanishga qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollarda, tartib va shartlarda yo‘l qo‘yiladi.

356. Hisob-kitoblar shakli va tartibi qonunchilik hujjatlariga muvofiq, operatorning (provayderning) texnologik imkoniyatlardan kelib chiqib abonent bilan kelishilgan holda operator (provayder) tomonidan belgilanadi hamda shartnomada aks ettiriladi va hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

357. Telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun tariflar qonunchilik hujjatlariga muvofiq tomonlar o‘rtasida tuziladigan shartnomada belgilaniladi.

358. Telekommunikatsiyalar xizmatlariga tariflar ayrim xizmatlar yoki xizmatlarning to‘plamiga tariflar (tarif rejalari) ko‘rinishida belgilanishi mumkin.

Tarif rejalari operatorlar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi (qonunchilikda belgilangan tartibda tartibga solinuvchi tariflar bundan mustasno).

Bunda, operator (provayder) tomonidan, foydalanuvchilarning muayyan guruhiga yoki ma’lum cheklangan hududda alohida tarif rejalari va imtiyozlar taqdim etilishi mumkin.

Operator va provayderlarning belgilangan talablari bo‘yicha telekommunikatsiyalarning ayrim xizmatlari yoki xizmatlarining to‘plamlari uchun (masalan, USB-modemlar, elektr energiyasi, suv, gaz hisoblagichlari, onlayn to‘lov terminallari, GSM, IP yoki SMS-shlyuzlar yoki uskunaning boshqa turlarida foydalanish uchun, shuningdek muayyan toifalardagi shaxslarga taqdim etiladigan) maxsus tariflar (tarif rejalari) belgilanishi mumkin.

359. Telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun tariflar va tarif rejalari shakllantirishda tarifkatsiyaning quyidagi turlari qo‘llanishi mumkin:

abonentlik, bunda muayyan davr (hisob-kitob davri) uchun abonentning to'lov miqdori haqiqatda olingan telekommunikatsiyalar xizmatlarining hajmiga bog'liq bo'lmagan doimiy kattalik hisoblanadi;

vaqtbay, bunda abonentning to'lov miqdori hisob-kitob davri davomida taqdim etilgan abonentning tashabbusi bilan amalga oshirilgan ulanishlar davomiyligining summasiga bog'liq bo'ladi;

har bir ko'rsatilgan telekommunikatsiyalar xizmati uchun, bunda to'lov miqdori amalda ko'rsatilgan xizmat uchun aniqlanadi.

Tarif rejalarini shakllantirishda tarifkatsiyaning bir nechta turlarini birga qo'shishga yo'l qo'yiladi.

360. Operator, provayder ko'rsatilayotgan telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun hisob-kitob davrini mustaqil belgilaydi.

361. Telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun to'lov quyidagicha amalga oshiriladi:

xizmatlar ko'rsatilganidan keyin to'lov to'lash;

xizmatlar ko'rsatilishidan oldin to'lov to'lash;

shartnomada belgilangan yoki hisobda ko'rsatilgan hisob-kitob davri muddatiga kechiktirilgan to'lov to'lash yo'li bilan.

Abonent o'z xohishiga ko'ra, 2 oydan ko'p bo'lmagan muddatga telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun abonentlik to'lovlarini oldindan to'lab qo'yishi mumkin va bunda tarif o'zgarsa ham qiymat qayta hisob-kitob qilinmaydi. Ushbu tartib bir oydan ortiq muddat uchun taqdim etiladigan tariflarga tatbiq etilmaydi.

362. Telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun hisob-kitob va to'lovlar xizmatlar ko'rsatish vaqtida amalda bo'lgan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

Tariflarni o'zgartirish va amalga kiritish to'g'risidagi axborot operator (provayder) tomonidan ommaviy axborot vositalarida, o'zining rasmiy veb-saytida yoki SMS orqali kamida 15 kun oldin majburiy e'lon qilinishi lozim.

363. Operator (provayder, eshittiruvchi) va abonent o'rtasida to'lovni undirish bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelgan holda, kelishmovchiliklar sud tartibida hal etiladi.

Begona shaxslar tomonidan telekommunikatsiyalar tarmog'iga ruxsatsiz ulanish va foydalanish natijasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklarda bajarilgan so'zlashuvlarning kimga tegishliligi belgilangan tartibda tekshirilishi (aniqlanishi) kerak. Tekshiruv natijalaridan rozi bo'lmagan abonent sudga murojaat qilish huquqiga ega.

364. Telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun to'lovlar naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda amalga oshirilishi mumkin.

365. Telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun to'lovlar qabul qilinishini operator, provayder, eshittiruvchi, diler mustaqil ravishda yoki to'lov agentlari orqali tashkil qilishi mumkin.

366. Shartnoma bekor qilingan hollarda abonent avans sifatida kiritilgan pul mablag'larini qaytarish uchun operatorga (provayderga, eshittiruvchiga) murojaat qilish huquqiga ega. Bunday holda operator (provayder, eshittiruvchi) 15 kun muddat ichida pul mablag'larining foydalanilmagan qoldig'ini qaytarishga majbur.

367. Telefonlashtirilgan turar joyga nisbatan egalik qilish huquqi belgilangan tartibda ushbu yashash joyi bo'yicha yoki turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olinmagan shaxslarga o'tganda shartnoma tuzilgan holda foydalana olish taqdim etilganligi uchun to'lovlar qo'llaniladi.

368. Mahalliy telefon bog'lanishlar xizmatlari uchun abonent to'lov tizimini yoki xizmatlar uchun vaqtbay to'lov tizimini qo'llagan holda to'lanadi.

Mahalliy telefon bog'lanishlarni vaqtbay hisobga olish texnik imkoniyati bo'lmaganda xizmatlar uchun abonent to'lov tizimidan foydalaniladi.

Mahalliy telefon bog'lanishlarni vaqtbay hisobga olinishini ta'minlash texnik vositalarining tayyor bo'lishiga qarab xizmatlar uchun vaqtbay to'lov tizimi kiritiladi.

Vaqtbay to'lov tizimida telefondan foydalanganlik uchun to'lov miqdori telefon bog'lanishlarning ma'lum davomiyligi uchun belgilangan qayd qilingan kattalikdan va qayd qilingan kattalikdan tashqari telefon bog'lanishning davomiyligiga bog'liq bo'lgan o'zgaruvchan kattalikdan tashkil topadi.

369. Avtomatik mahalliy, xalqaro telefon aloqadan foydalanganlik uchun xizmatlarga to'lov vaqtbay to'lov tizimida abonent tomonidan faqat unga tegishli bo'lgan foydalanuvchi qurilmasidan chiqadigan telefon bog'lanishlar uchun to'lanadi, bundan chaqirilayotgan abonent yoki operatorning (provayderning) hisobidan ko'rsatiladigan xizmatlar mustasno.

370. Operator-telefonist yoki avtomatik usul bilan taqdim etilgan xalqaro telefon bog'lanishlarga telefon bog'lanishning davomiyligiga bog'liq holda amaldagi tariflar bo'yicha to'lov to'lanadi.

371. Mahalliy (xizmatlarga vaqtbay to'lov tizimida), xalqaro telefon bog'lanishda telefon bog'lanishlarining davomiyligini hisobga olish operator tomonidan qabul qilingan tarifkatsiya birligiga muvofiq yuritiladi.

372. Mahalliy va xalqaro telefon bog'lanishlarining tarifkatsiya birligi miqdori va to'liq bo'lmagan tarifkatsiya birligini to'lash tartibi foydalanilayotgan kommutatsion texnikaning texnik imkoniyatlariga bog'liq holda belgilanadi.

Bunda, tarifkatsiya birligi bir daqiqadan ko'p bo'lmasligi kerak.

373. Avtomatik mahalliy (xizmatlarga vaqtbay to'lov tizimida), shaharlararo va xalqaro telefon bog'lanishdan foydalanganda telefon bog'lanishining davomiyligi istalgan shaxs yoki foydalanuvchi qurilmasining javob berish paytidan chaqirayotgan yoki chaqirilayotgan shaxs yoki foydalanuvchi qurilmasining uzilishigacha hisoblanadi.

374. Javob signali chaqirilayotgan shaxsning javobiga tenglashtiriladigan va telefon bog'lanishining davomiyligini hisoblash boshi bo'lib xizmat qiladigan foydalanuvchi qurilmasiga quyidagilar kiradi:

ma'lumotlar uzatish apparaturasi (modem va boshqalar);

faksimil apparati;

avtojavobbergich bilan ta'minlangan foydalanuvchi qurilmasi;

raqamni avtomatik aniqlovchi telefon apparati;

abonent bo'lmaganda uning o'rnini bosadigan va axborot almashinuvini ta'minlaydigan (yoki imitatsiya qiladigan) boshqa foydalanuvchi qurilmasi.

375. Agar abonent liniyasi yo‘q bo‘lgan abonentlar xizmatiga o‘tkazilgan yoki abonent bo‘lmaganda uning o‘rniga foydalaniladigan (xabarlarni yozib oluvchi yoki ma’lumotlar bilan almashish uchun xizmat qiladigan) qurilma bilan ulanganda, bu xizmat yoki bu qurilmaga abonentning so‘roviga ko‘ra u uchun javob beradigan shaxs sifatida qaraladi. Bunday holda telefon bog‘lanish o‘rnatiladi va to‘lov hisoblanadi.

Abonent operatorning (provayderning) Call-markaziga qo‘ng‘iroq qilganda oldindan yozib olingan ovozli xabarlar tizimini eshitish vaqti yoki avtoinformatorning audio xabarlari bog‘lanishning tarifkatsiyalanadigan davomiyligiga kiritilmaydi.

376. Konferensaloqa xizmatining davomiyligi barcha chaqirilayotgan shaxslar chaqirayotgan shaxs bilan telefon bog‘lanish o‘rnatilgandan keyin hisoblanadi, chaqirayotgan shaxsning “otboy” signali boshlanish paytidan tugaydi.

377. Bog‘lanish uchun buyurtma (operator-telefonist orqali) xalqaro telefon bog‘lanishlar taqdim etilganda to‘lanishi kerak bo‘lgan telefon bog‘lanishining minimal davomiyligi belgilanadi. Bunda, minimal davomiylikdan kam davom etgan telefon bog‘lanishiga minimal davomiylikdagi telefon bog‘lanishi sifatida to‘lov to‘lanadi.

Telefon bog‘lanishining ko‘rsatilgan minimal davomiyligi bir daqiqadan oshmasligi kerak.

378. Mahalliy (xizmatlar uchun vaqtbay to‘lov tizimida), xalqaro telefon bog‘lanishi uchun to‘lov telefon bog‘lanishi o‘rnatilishidan boshlab joriy sutkada amal qiladigan tarif bo‘yicha amalga oshiriladi.

379. Chaqirayotgan shaxs u tomonidan buyurtma berilgan oldinroq o‘rnatilgan shaharlararo yoki xalqaro telefon bog‘lanishni rad etganda, bunday telefon bog‘lanish taqdim etilgan vaqtda abonentdan bog‘lanishga buyurtma qilingan tarif bo‘yicha so‘zlashuv daqiqasining narxi va telefon bog‘lanishi paytiga operator-telefonist tomonidan bajarilgan xizmatlarning to‘liq qiymati miqdorida to‘lov undiriladi.

380. Agar chaqirilayotgan shaxs bilan bildirishnomali shaharlararo va xalqaro telefon bog‘lanish ko‘rsatilgan manzil bo‘yicha chaqirilayotgan shaxsning turmasligi sababli bildirishnoma bu shaxsga topshirilmaganligi yoki topshirish imkoniyati yo‘qligi sababli bo‘lib o‘tmagan bo‘lsa, chaqirilayotgan shaxsdan xizmat narxi miqdorida to‘lov undiriladi.

Agar chaqirilayotgan shaxs bilan bildirishnomali shaharlararo va xalqaro telefon bog‘lanish chaqirilayotgan yoki chaqirayotgan shaxsning so‘zlashuv punktiga kelmaganligi yoki chaqirilayotgan shaxsning ko‘rsatilgan telefon raqami bo‘yicha bo‘lmaganligi sababli telefon bog‘lanishi uchun tayinlangan vaqtdan keyin bir soat ichida bo‘lib o‘tmasa, to‘lov xizmatining narxi miqdorida undiriladi.

381. Agar chaqirayotgan shaxs xalqaro telefon bog‘lanishga buyurtma berayotganda chaqirilayotgan foydalanuvchi qurilmasining noto‘g‘ri abonent raqamini ko‘rsatgan bo‘lsa, u holda u ushbu buyurtma uchun amaldagi tariflar bo‘yicha o‘rnatilgan telefon bog‘lanishining haqiqiy davomiyligiga haq to‘laydi.

382. Avtomatik xizmat ko‘rsatish tizimi bo‘yicha taqdim etilgan mahalliy (xizmatlar uchun vaqtbay to‘lov tizimi) yoki xalqaro telefon bog‘lanishda abonentga hisobni taqdim etish uchun magnit tashuvchi (magnit tasmalar, disklar)ga yozilgan qiymatni hisoblash apparaturasining ma’lumotlari, operator-telefonist yordamida xalqaro telefon bog‘lanish taqdim

etilganda operator-telefonist tomonidan buyurtma blankiga kiritilgan yoki avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar tizimining, shuningdek elektron kommutatorlarning magnit tashuvchilari (magnit tasmlar, disklar)ga yozilgan ma'lumotlar asos bo'lib hisoblanadi.

383. Mahalliy shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlari xizmatlari uchun to'lovlar so'zlashuv punktlarida bog'lanish uchun buyurtma qilishda foydalanuvchi buyurtma qilinayotgan telefon so'zlashuvining davomiyligi va buyurtmada ko'rsatilgan qo'shimcha pulli xizmatlar uchun oldindan haq to'lashi kerak. Kompyuter bilan jihozlangan so'zlashuv punktida telefon orqali so'zlashuvdan keyin to'lovni amalga oshirishga yo'l qo'yiladi.

Oldindan to'lovni tasdiqlash uchun foydalanuvchiga majburiy tartibda buyurtma blankidan yirtib olinadigan talon beriladi. Mazkur talonda taqvim shtempelining yoki talonni bergan operator kassa apparatining izi bo'lishi kerak.

384. Agar so'zlashuv buyurtmada ko'rsatilgan vaqtdan kam davom etsa yoki umuman bo'lib o'tmagan bo'lsa, foydalanuvchiga pulning qolgan qismi yoki butun to'langan summa qaytariladi. Hisob-kitob qilish uchun foydalanuvchi yirtib olinadigan talonni qaytarishi kerak.

Pulning qolgan qismi berilganda yirtib olinadigan talon foydalanuvchidan olib qo'yiladi va bu talon o'rniga undan undirilgan summa uchun kvitansiya beriladi. Kvitansiya har bir so'zlashuv uchun bepul beriladi.

385. Ko'rsatiladigan telegraf xizmatlariga haq to'lash belgilangan tariflarga muvofiq amalga oshiriladi.

386. Taksofon orqali telefon aloqa xizmatiga haq to'lash uchun maxsus jeton, to'lov kartasi, tanga va milliy valyutaning tegishli kupyurasi ishlatiladi.

387. Taksofon orqali mahalliy, shaharlararo va xalqaro telefon aloqasi xizmati uchun tariflar qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

388. Taksofon orqali shaharlararo va xalqaro telefon aloqasining tarifikatsiya birligining o'lchovi hamda tarifikatsiya birligining to'liq bo'lmagan birligini to'lash tartibi operator (provayder) tomonidan foydalaniladigan kommutatsiya texnikasining texnik imkoniyatlariga bog'liq holda belgilanadi. Bunda, tarifikatsiya birligi bir daqiqadan ko'p bo'lmashligi kerak.

389. Taksofon orqali telefon so'zlashuvining davomiyligi chaqiriluvchi abonent yoki foydalanuvchi qurilmasining javobidan to chaqiruvchi yoki chaqiriluvchi abonentning yoki foydalanuvchi qurilmasining uzilishigacha hisoblanadi.

390. Chaqiriluvchi shaxsning javobiga tenglashtirilgan, javob signali telefon so'zlashuvi davomiyligi hisobining boshlanishi bo'lgan foydalanuvchi qurilmasiga quyidagilar kiradi:

ma'lumotlar uzatish apparaturasi (modem va boshqalar);

faksimil apparati;

avtojavobbergich bilan jihozlangan foydalanuvchi qurilmasi;

raqamni avtomatik aniqlovchi telefon apparati;

abonent bo'lmaganda uning o'rnini bosadigan va axborot almashinuvini ta'minlaydigan (yoki imitatsiya qiladigan) boshqa foydalanuvchi qurilmasi.

391. Ma'lumotlar uzatish tarmog'i operatori (provayderi) avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlari yordamida abonentga ko'rsatilgan xizmatlar (ma'lumotlar uzatish vaqti, tezligi,

olingan va (yoki) uzatilgan axborot hajmi, shuningdek abonent pul mablag'larining harakati va boshqalar) to'g'risidagi axborot hisobini yuritadi.

392. Operator (provayder) shartnoma asosida hisob-kitoblarni amalga oshirish maqsadida bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lash to'g'risida abonentga axborot taqdim etadi.

Bunda, quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi shart:

operator (provayder) rekvizitlari va murojaat uchun telefon raqamlari;

hisob-kitob davri;

bajarilgan ishlar narxi;

taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxati, har bir xizmat uchun hisob-kitob davri va ular uchun to'lanadigan summa;

qo'shilgan qiymat solig'i summasi (agar undirilsa);

umumiy to'lanadigan summa;

hisob taqdim etilgan sana;

haq to'lash muddati.

393. Operator (provayder) tomonidan abonentning hisobvarag'i yuritilgan taqdirda, to'lov to'g'risida ko'rsatilgan axborot operator (provayder) va abonent o'rtasidagi shartnoma shartlarining o'zgarishlari bilan bog'liq abonentning hisobvarag'i bo'yicha balans tuzatishlarini, shuningdek kelib tushgan va abonentning hisobvarag'ida aks ettirilgan oldingi hisob-kitob davridagi xizmatlar uchun abonentning to'lovlari to'g'risidagi axborotlarni o'z ichiga olishi kerak.

394. Mobil aloqa tarmog'i bo'yicha ulanish davomiyligining tarifkatsiya birligi operator (provayder) tomonidan belgilanadi, ammo bir daqiqadan ko'p bo'lmasligi kerak.

Mobil aloqa tarmog'ida har bir internet sessiyani alohida hisobga olgan holda ma'lumotlar uzatish traficing har bir yo'nalishi bo'yicha uzatilgan va olingan ma'lumotlar hajmining tarifkatsiya birligi operator (provayder) tomonidan belgilanadi, ammo 16 KB dan ko'p bo'lmasligi kerak.

Boshqa operatorning (provayderning) mobil aloqa tarmog'idagi har bir internet sessiyani alohida hisobga olgan holda roumingda Internet-trafikni yaxlitlash xalqaro rouming to'g'risidagi kelishuvga ko'ra belgilanadi, ammo ma'lumotlar uzatish traficing har bir yo'nalishi bo'yicha tarifkatsiya birligi 16 KB dan ko'p bo'lmasligi kerak.

395. Ulanishning davomiyligini hisobga olish operator (provayder) tomonidan qabul qilingan tarifkatsiya birligiga muvofiq olib boriladi.

396. To'lov miqdorini aniqlash uchun foydalaniladigan mobil aloqa tarmog'i bo'yicha ulanish davomiyligi chaqiriluvchi abonent yoki abonent javob bergan deb tenglashtirilgan javob signali bo'lgan uskuna javob bergan sekunddan boshlab chaqiruvchi yoki chaqiriluvchi abonent yoki shu uskuna so'zlashuvi tugagan vaqtgacha hisoblanadi.

Operator (provayder) tomonidan belgilangan minimal hisoblangan vaqt birliklarida hisoblangan ulanishlar davomiyligi to'liq birlikkacha yaxlitlanadi.

Operator (provayder) tomonidan belgilangan trafik hajmining minimal hisob-kitob birliklarida hisoblangan ishlatilgan ma'lumotlar uzatish traficing hajmi to'liq birlikkacha yaxlitlanadi.

Operator (provayder, eshittiruvchi) ushbu Qoidalariga nisbatan abonent holatini yomonlashtirmaydigan mobil aloqa xizmatlari tarifikatsiyasi qoidalarini mustaqil belgilaydi.

397. Abonent tomonidan ushbu Qoidalarda belgilangan talablar, shuningdek shartnoma shartlari buzilgan hollarda, buzilishlar bartaraf etilguniga qadar operator (provayder) mobil aloqa xizmatlari ko'rsatilishini to'xtatish huquqiga ega.

Bunda, mobil aloqa tarmog'idan foydalana olish va abonent tomonidan favqulodda tezkor xizmatlarni chaqirish imkoniyati saqlanadi.

398. Operator (provayder) tomonidan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'xtatilgandan keyin abonent shartnoma va qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan muddatda aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish huquqiga ega. Aniqlangan buzilishlar bartaraf etilgandan keyin mobil aloqa xizmatlaridan foydalanish tiklanadi.

399. Kreditga taqdim etilgan mobil aloqa xizmatlari uchun to'lov muddatini operator (provayder) mustaqil belgilaydi.

400. Abonent raqamini ko'chirib o'tish xizmatlari uchun to'lov va retsipiyent bilan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzish abonent tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

401. Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha imzolangan shartnoma asosida operatorga (provayderga) mobil aloqa xizmatlari to'lovi amalga oshiriladi.

402. Har biri rezident hisoblangan mobil aloqa operatorlari (provayderlari) o'rtasidagi hisob-kitoblar qonunchilik hujjatlariga muvofiq milliy valyutada amalga oshiriladi.

403. Mahalliy operatorning xizmat ko'rsatuvchi xorijiy operatorlar (rouming-sheriklar) bilan va tizim hosil qiluvchi rouming-sheriklar bilan hisob-kitoblari O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga va xalqaro qoidalariga muvofiq bajariladi.

VI bo'lim. Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi tomonlarining javobgarligi va yakuniy qoidalar

1-bob. Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi tomonlarining javobgarligi

404. Operator (provayder) tuzilgan shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi hamda telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish muddatlarini va shikastlanishlarni bartaraf etish muddatlarini buzganligi uchun quyidagi hollarda abonent oldida javobgardir:

telekommunikatsiyalar tarmog'idan foydalana olishni ta'minlash muddatlarining buzilishi;
shartnomada belgilangan telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish muddatlarining buzilishi;

shartnomada ko'rsatilgan va abonent tomonidan talab qilingan telekommunikatsiyalar xizmatlarining barcha turlarini ko'rsatmaganlik;

telekommunikatsiyalar xizmatlarini sifatsiz ko'rsatish;

telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq axborotning taqdim etilmaganligi, to'liq taqdim etilmaganligi yoki o'z vaqtida taqdim etilmaganligi;

shartnomani bajarish natijasida operatorga (provayderga) ma'lum bo'lgan abonent to'g'risidagi ma'lumotlarning tarqatilishini cheklash to'g'risidagi talablarning buzilishi.

405. Majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik foydalanuvchining aybi bilan yoki yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) oqibatida sodir etilgan bo'lsa, operator (provayder) abonent/foydalanuvchi oldida javobgar bo'lmaydi.

406. Telegraf xizmatida jo'natuvchi tomonidan manzil noto'g'ri ko'rsatilganligi sababli telegramma topshirilmagan bo'lsa, operator abonent yoki foydalanuvchi oldida javobgar bo'lmaydi.

407. Telekommunikatsiyalar tarmog'ida yuzaga kelgan nosozlik yoki shikastlanishlar shartnomada belgilangan muddatda bartaraf etilmagan taqdirda, operator (provayder, eshittiruvchi) abonentning talabiga ko'ra shartnomada belgilangan miqdorda jarima (penya) to'laydi.

Operator (provayder, eshittiruvchi) tomonidan jarima (penya) to'langanligi ularni shartnoma bo'yicha zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

408. Ushbu Qoidalar va shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, tomonlar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

409. Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmagan hollarda, telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini bekor qilish tartibi va shartlari abonent va operator (provayder, eshittiruvchi) o'rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi.

410. Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq nizoli masalalar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

411. Agar mobil aloqa operatorining (provayderining) javobgarligi dilerning aybi bilan yuzaga kelgan bo'lsa, operator (provayder) dilerdan u bilan tuzilgan shartnomaga va qonunchilik hujjatlariga muvofiq yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli.

412. Operator, provayder, Wi-Fi xizmati tashkilotchisi o'z ixtiyorida (bevosita boshqaruvi va nazorati ostida) bo'lmagan ma'lumotlar uzatish tarmog'ining resurslari, serverlari va segmentlari mazmuni, ulardan foydalanish imkoniyati va ishlash qobiliyati uchun javobgar bo'lmaydi.

413. Abonent o'z majburiyatlarini bajarmaganligi, shu jumladan shartnomaga muvofiq belgilangan muddatda xizmatlar uchun haq to'lamaganligi uchun shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladi.

414. Operator (provayder, eshittiruvchi) qonunchilik hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa holatlarda ham javobgardir.

415. Abonent tomonidan qilingan shikoyat yozma, og'zaki va/yoki elektron shaklda amalga oshiriladi, u operatorga (provayderga, eshittiruvchiga) kelib tushgan kun ro'yxatga olinishi kerak.

Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatishni rad etish, shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmaslik yoki lozim darajada bajarilmaslik bilan bog'liq masalalar yuzasidan shikoyatlar telekommunikatsiyalar xizmatlari ko'rsatilgan, uni ko'rsatish rad etilgan yoki hisob taqdim etilgan kundan boshlab 6 oy ichida beriladi.

2-bob. Yakuniy qoida

416. Mazkur Qoidalar talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradi.